hodisaga aylanib ulgurdi. Xususan, tilshunoslikda qo'llanuvchi aksentuatsiya o'zlashmasi birgina tilshunoslik sohasining o'zida uchta ma'noni ifodalamoqda. 1. So'z yoki gapdagi ma'lum qismlarni urg'u yordamida ajratish; 2. Tilning urg'u sistemasi; 3. Matnda urg'uni belgilash ma'nolarini ifodalash maqsadida[3]. Shuningdek, shaklan o'xshash bo'lgan ayrim terminlar turli xil sohalar terminlar o'rtasida qo'llanilishi ham uchrab turadi. Masalan, granata termini 1. Portlovchi snaryad; 2. Irg'itiladigan gimnastika asbobi ma'nolarini anglatadi. Ushbu bitta termin boshqa-boshqa bo'lgan harbiy va sport sohalarida teng foydalanilmoqda. Ko'rinib turganidek, polisemiya hodisasi umumadabiy til leksikasida qo'llansa, tilning boyligi, bu she'riyatda, badiiy asar yaratishda so'z o'yinini qo'llashda, badiiy san'atlardan mohirona foydalanishda ijodkorga yordam beradi, asarning emotsional-ekspressivlik ta'sirini kuchaytiradi. Lekin, ko'p ma'nolilik terminlar tizimida qo'llanilishi salbiy hodisalardan hisoblanadi. Chunki bitta termin bitta ma'noni ifodalashi, u emotsional-ekspressivlikdan holi, neytral bo'lishi kerak, deyildi. Aks holda, termin matnda kelar ekan, uning ayni qaysi ma'noda kelayotganini anglashda qiyinchilik tug'dirishi kabi salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Undan tashqari, bitta termin bir nechta ma'nolarni ifodalashidan tashqari, bir nechta bir-biriga o'xshash yoki bir xil terminlar bitta ma'noni ifodalamoqda. Bu ilmiy tilda dubletlar deyiladi, ya'ni ma'nosi bir-biriga teng bo'lgan so'zlar. Buni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biri chet tillardan ko'r-ko'rona termin o'zlashtirishdir. Bugungi kunda ayniqsa, ilmiy terminologiyada ruscha-baynalmilal terminlar tilga to'g'ridan to'g'ri, uning muqobili adabiy til leksikasida bor bo'la turib, ya'ni tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanilmasdan o'zlashtirilmoqda. Masalan: tasnif-klassifikatsiya kabi. Bu terminologik tizimni qat'iy ravishda tartibga solib turishni taqozo etmoqda. Shu muammolar hisobga olingan holda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 21-oktabrda "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Ushbu farmonda o'zbek tilining mamlakatimizda va xalqaro miqyosdagi obro'sini tubdan oshirish, davlat tilining amal qilishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash, zamonaviy atamalarining o'zbekona muqobillarini yaratish kabi muammolar o'z aksini topgan va ilmiy asoslangan yangi terminlarni iste'molga kiritish va uni tartibga solish bo'yicha Atamalar komissiyasi tashkil etilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Har bitta tilda polisemiya hodisasi mavjuddir. Til agar rivojlanar, jamiyatda foydalanilar ekan til bilan birgalikda polisemiya ham taraqqiy etib boraveradi. Avvalo, dunyo tilshunosligida ma'no, leksema shakl bilan birgalikda ma'nodan ham iboratligi, shakl va ma'no munosabati, leksemaning ma'nolari o'rtasidagi munosabatlar o'rganila boshlangan. Bu nazariyalar o'zbek tilshunosligiga ham kirib keldi. XX asrda yaratilgan ishlarda tilshunoslikning alohida ma'noshunoslik (semasiologiya) sohasi paydo bo'ldi. Bular Sh. Rahmatullayevning "Sememalarning semalar sostavi va semantik bog'lanish masalalari" va boshqa maqolalarida, I. Qo'chqortoyevning "So'z ma'nosi va uning valentligi" ilmiy ishida, keyinchalik M. Mirtojiyevning "O'zbek semasiologiyasi", M. Hakimovning "Semasiologiya" kabi tadqiqotlarida ko'rinadi. Shuningdek, semantika yoki semasiologiyaga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda, monografiyalarda polisemiya yo'l-yo'lakay to'ztab o'tilgan. Sh. Safarovning "Semantika" nomli asarida esa ma'noning, asosan, antroposentrik xususiyatlari ochib berilgan. Ushbu monografiyada ma'no, uning referent nazariyasi, ma'no shakllanishining diskursiv-sinergetik tavsifi, generative semantika, kognitiv semantika, konsept va ma'no munosabati kabi masalalar to'g'risida so'z yuritilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** XX asrda paydo bo'lgan antroposentrik paradigmadan mustaqil ajralib chiqqan tilshunoslikning bugungi zamonaviy sohalar ham o'zining so'z boyligiga, terminologik tizimiga ega. Bu sohalar tilshunoslik va boshqa tabiiy yoki ijtimoiy fanlar integratsiyasida paydo bo'lgan yangicha o'ziga xos yo'nalishlardir. Masalan, sotsiologiyada sotsiologiya va tilshunoslikning, psixolingvistika psixologiya va tilshunoslikning, lingvokulturologiya lingvistika va kulturologiyaning o'zaro munosabatidan kelib chiqqan. Bunday sohalar juda ko'p, bugungi kunda, hatto eng yangi sohalar ham paydo bo'lmoqda. Albatta, zamonaviy sohalarning terminologiyasi boshqa sohalar, an'anaviy lingvistik terminlar farqlanadi. O'zbek tilshunosligiga antroposentrik paradigmaning zamonaviy sohalar kirib kelishi bilan uning terminologiyasi ham kirib keldi, ko'pchilik terminlar jadallik bilan to'g'ridan to'g'ri o'zlashdi va tilshunoslik terminologiyasi boyidi. Mana shu tilshunoslik sohalar har biri o'zining alohida tadqiqot obyekti, predmetiga ega bo'lsa ham barchasi bir-biri bilan bog'liq. Bu bog'liq terminlar orasida ham uchraydi, ya'ni bitta termin bir nechta zamonaviy lingvistik sohalar keng qo'llanilmoqda. Xususan, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiologiyada pragmalogiyada kabi sohalar bir xil muomalada bo'lgan konsept xuddi shunday terminlardan biri.

**Tahlil va natijalar.** Konsept lotincha "tushunmoq", "tasavvur qilmoq" ma'nolarini bildiradi. Termin maqomini olgan bu so'z ingliz tilidan avval rus tiliga, keyin o'zbek tiliga o'zlashgan. Bugungi kunda o'zbek tilida "tushuncha" so'ziga teng deb qaralmoqda. Kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Kognitiv nazariyasiga ko'ra, konsept tafakkur birligi deb qaraladi va u til birliklarining ma'nosi bilan bog'liq holda o'rganiladi. U ko'p bosqichli tafakkur (ong) faoliyati mahsul bo'lib, ma'lum yo'sinlardan o'tgandan so'ng individual shaxsning ichki leksikonidan o'rin oladi, uning idiolekti namunasiga aylanadi. Konsept lingvokulturologiya yo'nalishida endi individ emas, umumiy, jamoaviy tarzda kichadi, ya'ni etnik guruhlar, har bir xalq, millat turmush tarzi, yashash ehtiyoji asosidagi ma'lum lisoniy madaniyatning o'ziga xos idrok etiladigan belgisidir. Psixolingvistlar ta'biricha esa konsept insonning bilish va muloqot faoliyatida harakatga keladigan idrokiy kognitiv tuzilma bo'lib, inson ruhiyatining qonuniyatlariga bo'ysunadi va shu jihatdan ma'no hodisasidan farq qiladi. Ko'rinib turganidek, har qaysi soha bitta tushunchani o'zining tadqiqot obyekti ko'ra o'rganadi. Kognitiv tilshunoslar konseptni tafakkur, onga bog'lasa, lingvokulturologlar madaniyatga, madaniy onga, psixolingvistlar esa uni ruhiyatga bog'lashadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, terminologiya leksikologiyadan ajralib chiqqan mustaqil sohasi hisoblansa ham, u umumadabiy leksika bilan chambarchas bog'liq. Vaqt o'tishi bilan umumiste'moldagi so'z terminga, termin umumiste'mol so'zga aylanishi mumkin. Ko'rib o'tganimizdek, adabiy leksikaga xos shakliy, ma'noviy hodisalar ham ilmiy leksika – terminlarga notanish emas. Polisemiya tashqari terminlar o'rtasida omonimiya, sinonimiya, partonimiya, graduonimiya, giponimiya kabi hodisalar ham ko'p uchraydi. Bu aslida terminlarga xos salbiy xususiyatlardir. Lekin sohalar o'zaro chambarchas bog'liqligi, terminlarning sababsiz yoki muqobili qidirilmasdan to'g'ridan to'g'ri o'zlashishi va boshqa sabablar terminologiya tizimini o'z qonuniyatlari asosida tartibga solib turishni qiyinlashtiradi. Shu sababli bugungi kunda jadallik bilan kirib kelayotgan terminlarni tartibga solish, avval uning muqobilini adabiy tildan qidirish, agar muqobili yo'q bo'lsa, uni tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanib yarim kalkalash imkoniyatlari mavjud bo'lsa, bundan foydalanish va shuningdek, terminlarni til qonuniyatlariga muvofiq ravishda tizimli tartibga keltiruvchi terminologik izohli lug'atlarni yaratish lozim.

**ADABIYOTLAR**

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019. – B. 4
2. Hakimova M. Semasiologiya. – Toshkent, 2008. – B. 49,50.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2002. – B. 24.
4. Mirtojiev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Sangzor, 2006
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008
7. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 183, 268.
8. Usmonova Sh va boshq. Sotsiolingvistika. – Toshkent, 2014
9. Usmonova Sh. Psixolingvistika. – Toshkent, 2014
10. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2020
11. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015
12. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013



UDK: 81'38:81'373

**Salima BABAeva,**

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek Associate professor of the Department of Translation theory and Comparative linguistics, candidate of philological Sciences

E-mail: salimahon71@gmail.com

**Kamola ORIPOVA,**

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek MD student of Translation theory and Comparative linguistics

E-mail: oripovak08@gmail.com

Reviewer M.A.Soliyeva Candidate of philological Sciences, docent

## STILISTIKA VA PRAGMATIKANING BIRLASHUVI FRAZEOLOGIZMLARNING PRAGMATIK JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada frazeologizmlarning pragmatik jihatlari stilistika va pragmatikaning kesishishi doirasida ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, frazeologizmlarning pragmatik o'lchovlarga qanday hissa qo'shishini o'rganadi va ularning nutqdagi stilistik hodisalariga bo'lgan ta'sirini o'rganiladi. Nazariy va empirik tadqiqotlar orqali tadqiqot frazeologizmlardan foydalanishda lingvistik shakl va pragmatik funktsiya o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochishga qaratilgan. Natijalar frazeologizmlarning ijtimoiy ma'noni yetkazib bera olishi va muloqotda qo'llaniladigan pragmatik nutq strategiyalarini shakllantirishdagi roli to'g'risida qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** Pragmatika, hazil, sarkazm, ironiya, giperbola, tautologiya, evfemizmlar, metafora, deysis, pragmatistika, frazeologizm.

## ПЕРЕСЕЧЕНИЕ СТИЛИСТИКИ И ПРАГМАТИКИ ПРАГМАТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ.

Аннотация

В этой статье рассматриваются прагматические аспекты фразеологизмов в контексте пересечения стилистики и прагматики. В ней исследуется, как фразеологизмы вносят вклад в прагматические аспекты использования языка, и исследуется их влияние на стилистический выбор в дискурсе. Посредством теоретического и эмпирического исследования исследование направлено на раскрытие сложной взаимосвязи между языковой формой и прагматической функцией при использовании фразеологизмов. Полученные результаты дают ценную информацию о роли фразеологизмов в передаче социального значения и формировании прагматических дискурсивных стратегий, используемых в коммуникации.

**Ключевые слова:** Прагматика, юмор, сарказм, ирония, гипербола, тавтология, эвфемизмы, метафора, дейксис, прагматистика, фразеологизм.

## AN INTERSECTION OF STYLISTICS AND PRAGMATICS. PRAGMATIC ASPECTS OF PHRASEOLOGISMS.

Annotation

This article examines the pragmatic aspects of phraseologisms within the context of an intersection between stylistics and pragmatics. It explores how phraseologisms contribute to the pragmatic dimensions of language use and investigates their impact on stylistic choices in discourse. Through a theoretical and empirical investigation, the study aims to unravel the intricate relationship between linguistic form and pragmatic function in the use of phraseologisms. The findings offer valuable insights into the role of phraseologisms in conveying social meaning and shaping the pragmatic discourse strategies employed in communication.

**Key words:** Pragmatics, humor, sarcasm, irony, hyperbole, tautology, euphemisms, metaphor, deixis, pragma-stylistic, phraseologism.

**Introduction.** It is known that stylistics and pragmatics are interdisciplinary parts of linguistics. According to some scientists they are not related with each other however others disagree with this suggestion. So, what is stylistics? What is the role of stylistics in pragmatics? And what is pragma stylistics?

Stylistics is a field of general linguistics concerned with the analysis of two distinct goals, which are:

a) Stylistics is the study of language's particular media, sometimes known as stylistic devices or expressive methods.

b) Stylistics is the study of writings that are characterized by the pragmatic component of communication and are called functional styles of language.

"Stylistics is a branch of linguistics, which studies the principles and results of the choice and usage of lexical, grammatical, phonetic and other language means with the aim

of transmitting of ideas and emotions in different communication settings"[1].

Pragmatics is a discipline of linguistics that investigates what a speaker conveys and what a listener infers based on a variety of factors such as the situational context, the speaker's state of mind, the preceding conversation, and others. [2]

Pragmatics is used in language learning, where teachers have to teach not just the literal meanings of words and phrases, but their contextualized and culturally-relevant meanings to help improve the learners' capacity to meaningfully comprehend the new language [3].

**Research Methodology.** The research will employ a mixed-method approach, integrating qualitative and quantitative techniques. Qualitative analysis will involve the examination of phraseologisms from various sources to identify pragmatic and stylistic elements. Additionally, a

comparative analysis of different types of phraseologisms will be conducted to unveil patterns and variations in their pragmatic and stylistic features.

Stylistic devices as an example for pragmatics:

Irony:

Irony is a rhetorical tactic in which the apparent meaning of a situation or remark does not correspond to the underlying meaning. Irony is the contradiction between appearance or anticipation and reality:

"You're a great driver! You should get an award!"

(When driving poorly)

Metaphor:

A metaphor is a figure of speech that represents an item or process in an incorrect manner yet aids in the explanation or comparison of a concept. In other terms, a metaphor is the use of one object to depict another. A metaphor is a form of speech that explicitly compares one item to another without using the terms "like" or "as."

Time is money.

You are the light in my life.

Deixis:

Deixis, a linguistic concept derived from the Greek word for "indicating," describes how language users use context to figure out the meaning of certain words or expressions. It allows language users to direct attention to certain things, locations, or times inside a speech situation (such as this, that, these, those, now, then, here).

Here is where we will stay tonight.

Euphemisms:

Euphemism is a polite term that replaces unpleasant or harsh words or phrases. In a nutshell, euphemism lessens the brutality of a certain word or phrase. It substitutes unpleasant terms and is widely used in everyday discourse.

Before I go — Before I die

Born sleeping – Baby born dead

Hyperbole:

Hyperbole is a figure of speech and literary style that uses purposeful exaggeration to produce a stronger impression. Hyperbole is frequently a blatantly overblown or exaggerated remark or statement used to emphasize without the objective of being literally factual.

I Love you to the moon and back.

I'm dying of thirst.

Pragmatics in jokes and humor:

By using pragmatics, jokes could be more appealing and interesting, sharing deep meaning. For example:

Customer: Is this good for wasps?

Shop assistant: No it kills them.

In this linguistics joke, it is known that people are sharing another meaning by using different words in a special way.

Silence:

Silence is a valuable form of communication that can be interpreted differently according on the culture and language utilized. The communicative silence serves multifunction, and it has a contextual and cultural dependency. This kind of silence is called "eloquent silence" as it is an "active means chosen by the speaker to convey his or her message"[4].

Tautology:

Tautology is the act of defining or explaining something using the same terms in different context.

She always arrived on time and punctual.

Sarcasm

When a speaker is being sarcastic, they say something other than what they genuinely intend. Sarcasm is the lowest form of wit, but the highest form of intelligence[5] (Oscar Wilde). This is one of the most examples of sarcasm in everyday situations:

"-It is raining outside

-Oh, yeah! What a beautiful day to have a match!"

This sarcasm is mostly used in order to emphasize how bad a situation really is. Here, pragmatics helps us to understand inner meaning of sarcasm appropriately.

An intersection of stylistics and pragmatics

What is pragma-stylistics?

Pragma stylistics

is stylistics but includes a pragmatic component.

It aims to demonstrate how pragmatics might contribute to the study of literature.

It investigates the application of pragmatic ideas to the understanding of literary works.

Pragma stylistics provides comprehensive explanations for inexplicable events, beyond stylistics and pragmatics alone.

This discipline of stylistics analyzes and interprets texts using linguistic pragmatics concepts.

Pragmatics, stylistics, and pragma-stylistics are all fields within language studies, each with its own focus and approach. Here are the primary differences between them:

PRAGMATICS	STYLISTICS	PRAGMA STYLISTICS
- Pragmatics is the study of language in use and how contextual factors influence the interpretation of meaning. It examines how language is used in social contexts to achieve specific communicative goals.	- Stylistics is the study of the ways in which language is used to create specific effects or impressions. It focuses on the analysis of linguistic choices and their impact on the overall style of a text.	- Pragma-stylistics explores the intersection of language use in context with the stylistic choices made by speakers or writers to achieve specific communicative purposes.
- It focuses on the relationship between language and its users, including aspects such as speech acts, implicature, presupposition, and the cooperative principle.	- It examines features such as word choice, sentence structure, figurative language, rhythm, and sound patterns to uncover the stylistic elements within a text.	- This approach integrates the study of pragmatic principles with the analysis of stylistic devices and strategies used in discourse, such as politeness strategies, persuasive language, and rhetorical devices.
- Pragmatics is concerned with understanding how language functions in real-life situations and how speakers and listeners infer meaning beyond the literal interpretation of words and sentences.	- Stylistics aims to understand how language can be manipulated to evoke particular emotions, convey nuances of meaning, and create a distinct literary or rhetorical style.	- Pragma-stylistics seeks to understand how pragmatic and stylistic considerations interact and influence the production and interpretation of language in different communicative settings.

Pragmatic aspects of phraseologisms

Phraseologisms, beyond their literal interpretation, often carry nuanced pragmatic meanings that are intricately tied to their context of usage. Below are some examples illustrating the pragmatic meanings of phraseologisms within specific context:

1. "Hit the nail on the head"

Pragmatic Meaning: Expressing Precision or Accuracy

Example: "When David pinpointed the cause of the issue, she really hit the nail on the head."

Russian: Когда Сара точно определила причину проблемы, она действительно попала в точку.

In this example, the phrase "hit the nail on the head" is used to convey the speaker's acknowledgment of someone's accurate assessment or pinpointing of a situation. The pragmatic meaning of this phrase goes beyond its literal interpretation and serves to highlight the precision and correctness of an action or statement.

2. "Go the extra mile"

Pragmatic Meaning: Signifying Extra Effort or Dedication

Example: "He is so kind man, always ready to go extra mile for his family."

In Russian: Я ценю готовность команды сделать все возможное, чтобы обеспечить успех проекта.

In Uzbek: "Jonini berib qilmoq, keragidan ko'prog'ini qilmoq" [6]

It adds a layer of pragmatic implication, emphasizing the team's willingness to put in additional effort for the achievement of a shared goal.

3. "Keep your cards close to your chest"

Pragmatic Meaning: Suggesting Caution or Strategic Secrecy

Example: "His actions are unpredictable - he keeps his cards very close to his chest."

In Uzbek: "tishini kovagida saqlamoq" In Russian: держать что-либо в секрете; держать язык за зубами Here, the phrase "keep your cards close to your chest" is utilized to communicate the pragmatic implication of caution and strategic reticence in revealing information, especially within a competitive or strategic context.

**Conclusion.** In conclusion, the exploration of the pragmatic aspects of phraseologisms represents a rich intersection of stylistics and pragmatics, shedding light on the multifaceted role of idiomatic expressions in language use. This study underscores the pivotal role of phraseologisms as pragmatic tools that go beyond mere semantic content, offering insights into the intertwined relationship between language form, meaning, and contextual use. Ultimately, understanding the pragmatic dimensions of phraseologisms enhances our grasp of how language acquires depth, expressiveness, and effectiveness in real-world communicative acts, underscoring their vital role in shaping meaning and interaction within diverse linguistic and cultural contexts.

#### REFERENCES

1. Kunin A.V. A Course on modern English phraseology (Moscow, Vy'sshaya shkola,) - 1996. - P. 65-69.
2. Arnold.I.V. Стилистика современного английского языка. (Moscow) - 1959. - P.14-18.
3. Krivenko B.V. Фразеология и газетная речь. - 1993 - P. 45-49.
4. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. New York: Blackwell. - 2008 - P.461
5. Kecskes I. Context in communication: A cognitive view. Oxford University Press. - 2022.
6. Moghaddam A. S. & Golnaz, C. & Vahideh, A. Z. Eloquent Silence, a Pragmatic Concept in Persian Language. Procedia - Social and Behavioral Sciences 136. - 2014 - P. 250 - 254.
7. Searle J. R. Making the social world: The structure of human civilization. Oxford: Oxford University Press. - 2010 - P.61-89.
8. Yo'ldoshev B. O'zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari.Samarqand, 2002.-B.26-27.





**Shaxlo BAXODIROVA,**  
*Chirchiq davlat Pedagogika universiteti tayanch doktoranti,*  
*E-mail:shaxlo.bakhodirova@mail.ru*

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori Z.Xolmanova taqrizi asosida*

### LACUNAS IN THE SMALL WORKS OF ABDULLA QADIRI

Annotation

The purpose of writing the article is to analyze the lacunar means in the text of Abdulla Qadiri's novels, to reveal the characteristics of the individual creative manner of the creator, the skill of using language, the peculiarities of choosing and using words, and the contribution of each language unit to the success of the work. Comparative study of the lacunae in the lexicon of the literary language with the lexicon of the dialects and the determination of the possibilities of the dialect in filling them, the development of norms and criteria for filling the lexical lacunae with dialectisms, the enrichment of the Uzbek literary language and the increase of the expressive possibilities of the literary potential of the dialect words. is to reveal.

**Key words:** lacuna, dialect, story, feleton, artistic work, literary language.

### ЛАКУНЫ В НЕБОЛЬШИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АБДУЛЛЫ КАДИРИ

Аннотация

Целью написания статьи является анализ лакунарных средств в тексте романов Абдуллы Кадири, выявление особенностей индивидуальной творческой манеры создателя, умения пользоваться языком, особенностей выбора и употребления слов, а также вклад каждой языковой единицы в успех работы. Сравнительное изучение лакун лексики литературного языка с лексикой диалектов и определение возможностей диалекта в их заполнении, разработка норм и критериев заполнения лексических лакун диалектизмами, обогащение узбекского языка. литературного языка и повышение выразительных возможностей литературного потенциала диалектных слов.

**Ключевые слова:** лакуна, диалект, рассказ, фелетон, художественное произведение, литературный язык.

### ABDULLA QODIRIY KICHIK ASARLARIDAGI LAKUNALAR

Annotatsiya

Maqolani yozishdan maqsad Abdulla Qodiriy kichik asarlari matnidagi lakunar vositalarni tahlil qilish, ijodkorning individual ijodiy manerasiga xos xususiyatlari, tildan foydalanish mahorati, so'z tanlash va qo'llashdagi o'ziga xosliklari hamda har bir til birligining asar muvaffaqiyatidagi hissasini ochib berishdan iborat. Adabiy til leksikasidagi lakunalarni shevalar leksikasiga qiyosan o'rganish hamda ularni to'ldirishda sheva imkoniyatlarini aniqlash, leksik lakunalarning dialektizmlar bilan to'ldirish me'yorlari va mezonlarini ishlab chiqish, o'zbek adabiy tilining boyishi va ifoda imkoniyatlari oshishida sheva so'zlarining adabiyatlashish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** lakuna, dialekt, hikoya, feleto'n, badiiy asar, adabiy til.

**Kirish.** Mamlakatimizda ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlar asosida o'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini har taraflama o'rganish hamda tavsiflash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Badiiy so'z ustalarining mahorati lisoniy imkoniyatdan yuqori darajada foydalanishi va o'z imkoniyatlarini namoyon etishi bilan belgilanadi. Zero, "Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analari amal qilib, ularning g'oyalari teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz"[4]. Binobarin, "Hozirgi kunda o'zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida – davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san'at sohalorida faol qo'llanilmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda"[5]. Lekin o'zbek tilining leksik tarkibida qo'llanilish jihatidan o'zlashma qatlama oid so'zlar faollashib borayotganligi, ayrim olinma va shevaga xos so'zlarning mos muqobili, ba'zan munosib so'z yasovchi affiksning topilmayotgani badiiy matnlarni, xususan, jadidchilik davri asarlarini lingvistik jihatdan tahlil qilish, tadqiq etish undagi so'zlarning mazmunini anglash va zamonaviy holatda amaliyotga tatbiq etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Shunday ijodkorlarimizdan biri Abdulla Qodiriy – yorqin, barchaga keng ma'lum shoir va yozuvchi, dramaturg

va publisist, o'zbek adabiyotida roman janri asoschisi, mohir badiiy so'z ustasi. Qodiriyning asarlari o'zbek xalqi hayotini qamrab olgan.

**-Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Abdulla Qodiriy asarlari doimiy ravishda o'rganilib kelingan. Lekin kichik asarlari hamon o'rganilishda romanlariga nisbatan biroz orqada qolmoqda. Shu sababdan biz uning kichik asarlaridagi lakunalarni o'rganishga qaror qildik. Lakuna terminiga biroz to'xtalib o'tsak. Ikki leksik tizimni qiyoslash jarayonida paydo bo'lgan lakuna atamasi tilshunoslikda so'nggi yillarda keng qo'llanilayotgan tushunchalardan biriga aylandi[6]. Bugungi kunda lakuna tushunchasi lingvokulturologiya, lingvomamlakatshunoslik, tarjimashunoslik, madaniyatlararo muloqot nazariyasi, madaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarda faol qo'llanilmoqda.

Lakuna termini ilk bor kanadalik olimlar J.Vine va J.Darbelnelar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Mazkur olimlar "Fransuz va ingliz tillarini qiyoslash uslubi" nomli kitobida lakunaga ikki til qiyosida aniqlanadigan lisoniy hodisa sifatida quyidagicha tarif bergan: "Bir tildagi so'zning boshqa tilda muqobili topilmagan o'rinlarda lakuna hodisasi voqelanadi"[7]. Ushbu ta'rifdan ham ko'rinib turibdiki, ikki til muqoyasasida aniqlanadigan va tillarning birida muqobili mavjud bo'lmagan tushunchani ifodalash uchun mazkur atama qo'llangan. Lakuna atamasining keyingi davrdagi juz'iy

semantik o'zgarishlarga uchrashiga qaramasdan asl terminologik xususiyatlarini saqlab qolishida ayni shu ta'rif birlamchi asos vazifasini o'tab kelmog'da.

**-Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda lakunani o'rganish faqat ikki tildagi farqli jihatlarini aniqlashdangina iborat emas balki bir til ichida ham o'rganilmog'da. Adabiy til leksikasining tizimli to'ldirilishi, boyitilishi uchun ham mazkur lingvistik hodisani chuqurroq tadqiq etish maqsadga muvofiq. Tadqiqotchilar o'z ona tillarini o'zga til bilan qiyoslab, leksik sathdagi bo'shliqlarni aniqlashga va ularni bartaraf etishga intilmog'da, shuningdek, tafakkur va tasavvur bilan bog'liq, ongda shakllanadigan yangi tushunchalarning paydo bo'lishini hamda ularning nomlanish jarayonlarini ham obyektiv o'rganishga harakat qilmog'dalar. O'zbek tilshunosligida ham bu boradagi ishlarni jonli amalga oshirish, milliy til tarkibidagi lahja va dialektlarni adabiy til bilan qiyoslash asosida adabiy til leksikasidagi lakunalarni aniqlash, saralash hamda to'ldirish til taraqqiyotini, sofligini, umrboqiyiligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan muhimdir.

Shu boisdan biz yetuk jadidchi yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning kichik asarlarini o'rganish uchun obyekt sifatida tanlab oldik va asardagi shevaga oid so'zlarni saralash orqali lakunar birliklarni qisman jamlashga harakat qildik.

**-Tahlil va natijalar.** Dastlabki tahlil uchun kichik asari sifatida "Baxtsiz kuyov" to'rtinchi parda dramasidan boshladik: "Uchunchi pardadagi sahnaning ayni, faqat kelinlarining uyidek dorpo'shlar osilinur va taxtmonning ustidan kirpo'sh osilinur, tokchalarga har xil asboblur qo'yilur, to'rg'a ko'rpacha solingan, ustida Rahima xalqqa qarab do'ppi tikub o'tirar"[1. 36-b]. Birgina shu jumlaning o'zida uchta shevaga oid so'zni uchratishimiz mumkin. Gapning mazmunidan ko'rinib turibdiki, bu yerda o'zbek xonadonlarida bo'ladigan narsa buyumlarga oid predmetlar tilga olingan. Dorpo'sh uy ichida kiyimlar osib qo'yish uchun tortilgan arqon bo'lib odatda yangi kelin kelgan uyga shunday arqonlar tortilib kelinning sepidadagi kiyimlar osib chiqiladi ya'ni kelgan mehmonlar yangi kelinning sepini bemalol tomosha qilishi uchun. Taxtmon esa yuklar yoki ko'rpalar taxlanadigan maxsus joy. O'zbek xonadonlarida tartib bo'lishi uchun har bir detalga alohida ahamiyat berilib kelingan. Kirpo'shni odatda taxtmonga yig'ilgan ko'rpalarni ustini yopib qo'yadigan maxsus jild deyish mumkin. (Kirpo'sh [kir + f. — o'rov, jild; to'sib turuvchi narsa] s. t. Kirpech. Shu vaqt taxtmonga osilgan kirpo'sh o'z-o'zidan qimir-lagandek bo'ldi. A.Qodiriy, "O'tgan kunlar"[11]. Kirpo'shni yopishdan ko'zlangan maqsad yig'ilgan yukni chang va kir bo'lishini oldini olish bo'lgan.

Adibning "Shodmarg" kichik feleto'nidan quyidagi misolni keltirishimiz mumkin. "Juda boy bo'lmasa ham, besh-o'n ming oqchasi, o'n-o'n besh botmon sholikor va bir qo'rasi, yana bular ustiga xatmi qutub ham qilg'an, zamonadan xabardor, musulmonlarning foyda zarariga tushunuvchi edi"[1]. Hozirgi kunda xalq orasida o'rta ma'lumot, oliy ma'lumot deyilganidek, o'sha davrda ma'lumotga ega bo'lish xatmi qutub (Yozuvchi: Xatmi qutub- biror doiradagi maktabni o'qib tugatish) deya yuritilgan. Yozuvchining o'zi bunga izoh berib ketgan: "Lekin ul hushsiz emas edi, balki shodmarg bo'lg'an edi"[1]. Feletonning kulminatsiyasi bo'lgan ushbu jumlada shodmarg so'zini yozuvchi quyidagicha izohlaydi. Shodmarg- shodlik kayfiyatidan o'lmoq. Shodmarg holat ravishi bilan bog'liq so'z. Hozirgi kunda shunday shodmarg ketgan insonlarga nisbatan "rozi bo'lib ketdi", "armonsiz ketdi" kabi iboralar ko'proq qo'llaniladi.

Yozuvchining "Qimmatchilik hasrati" hikoyasida: "Bizdek kambag'al Julqunboylarni, o'zingizni, ham komitetingizdagi ikki yuzmi, uch yuzmi xidmatchilaringizni javobini beringiz-da, hammamizni ovoragarchilikdan ham tamug'likdan qutqaring!"[1] jumlasini olaylik. Yozuvchi

tamug'likdan qutqaring deya o'z holatini tasvirlaydi (Yozuvchi: Tamug'lik-do'zax, bu yerda eng yomon axvol ma'nosida). Yozuvchining so'z qo'llash mahorati shu qadar turli-tuman jilolanadiki, har bir jumlasida bunga amin bo'lamis "Qarzing mingga yetsa, mug'ri musamman yegin". (Mug'ri musamman- gavhar tuxum qiladigan samo qushi; qush go'shtini odatda aslzodalar yeydi, "Kuning yetib qarzga botib ketsang ham obro'ni qo'ldan berma, otdan tushsang ham egardan tushma", deb muallif kinoya qilyapti) [1]. Adib birgina kinoyali ibora bilan asardagi butun boshli holatni ochib bera olgan.

"Bizda askarlik masalasi" hikoyasining quyidagi jumlasida adib o'lchov birliklari ma'nosida qo'llanuvchi forsax so'zidan foydalanadi. "Qurol, kiyim, joy va ovqat hozir bo'lgan holda askar bo'luvdin forsaxlarcha yiroqg'a qochamiz..."[1] Ushbu so'z bugungi kunda qo'llanilmaydi. Sababi bu masofa o'lchov birligidan foydalanilmasligidir, ehtimol. (Farsax-(farsang) taxminan 7-8 km.ga teng masofa o'lchovi).

"Bizda teatru ishining borishi" hikoyasida adib o'z tahlillarini berar ekan- "Teatrlarga xalqimizning bu nazarda qaray boshlovchi shubhasiz teatr asarlarimiz ahsizlar tarafidan bajariluvidadir" [1] jumlasini keltiramiz. Ahsizlar deya yozuvchi chet odamlarni nazarda tutayotganini izohlab keltiradi. Ya'ni shaxslarga nisbatan qo'llangan so'z hisoblanadi. Adib ahsizlar deya gapda teatrlarimizda chetki, aloqasi yo'q insonlarning rol ijro etishi xalqimizning e'tiborini tortadi demog'chidek. Yana shunday bir jumlani keltiramiz: "Boqingiz, muharrirlik g'ururi ila yozilg'an dramalargakim, bunda birisining oldig'i mavzu g'oyat ahamiyatsiz, turmushimizda yo'q, ya'ni fantaziya shaklli bir narsa, ikkinchisining olg'an mavzui ahamiyatli, lekin voqiali tasvir yo'li so'ng daraja buzuq, asardagi qahramonning so'z va ishi xarakteriga nomuvofiq, dialog o'rniga monolog ishlatilgan, monologni talab etgan bir o'rin butun ko'rsatilmagan asar qahramonining ichki siri ochilmay tomoshachilarni qabziyatga yetkurgan va aktlar to'la ko'rsatilmagan uchun ko'b yerlar majhul va hakazo..."[1] Yozuvchining o'zi qabziyat- diqqat bo'lish deya izoh beradi. Hozirgi kunda qabziyat kasallik bilan bog'liq termin sifatida ham qo'llanishi hammamizga ma'lum. Demak, o'sha davrda bu so'zning boshqa ma'nosi ham bo'lganiga asar orqali guvoh bo'lamis.

Adibning "Tilanchilik yoxud yengil kasb" hikoyasida "Insoniyat olaminda eng mazmum va manfur bir ish bo'lsa, ul ham tilanchilik - soyillikdir" [1] jumlasida qo'llangan mazmum so'ziga shunday ta'rif beradi: Mazmum-ayblanilgan, yomonlanilgan. Ya'ni holat bilan bog'liq so'z ya'ni insonlarning holati tasvirlangan.

"Tinch ish" hikoyasidan quyidagi jumlani olaylik: "O'z ahli tarafidan varasatul-anbiyo qatorig'a kiritilgan uchun mertuq-sertuqlarning falon-tuganiga quloq soluvning ham luzumi yo'q edi"[1]. Bu jumlada qo'llangan mertuq-sertuq juft so'ziga yozuvchining o'zi shunday ta'rif beradi: Mertuq-sertuq-o'tmas, yaramas; bu yerda past darajadagi odamlar ma'nosida. Demak, bu so'z o'sha davrdagi past odamlarga nisbatan ta'rif keltirish ma'nosida ishlatilgan. Ya'ni insonlarning ijtimoiy darajasini ko'rsatib bergan. "Ilgari Bolshhevik og'alarning, kimning otini, kimning molini, kimning yerini tortib oluvlarig'a qanday ma'ni berishga ojiz bo'lg'an Oxund domlamiz "Miftohul-jinon" va amsoli kitoblardan istixroj etib: "Zamona oxir bo'lib, qiyomat yaqinlashg'an ekan bu kungi Bolshhevik deganimiz yajuj-majuj, doibatul-arz bo'lur" deb o'ylar edi"[1]. Jumlada qo'llangan istixroj so'zi adibning izohiga ko'ra ilmiy termin hisoblanadi. Istixroj etish-sitata chiqarish, keltirish. Bu termin hozirgi kunda iqtibos keltirish deyiladi.

**-Xulosa va takliflar.** O'zbek adabiy tilidagi leksikasidagi lakunalarni to'ldirish milliy tilshunoslik uchun

yangilik emas. Leksik bo'shliqlarni lakuna sifatida atash ommalashmagan davrda ham ularni sheva so'zlari bilan to'ldirish til leksikasini boyitish va tartibga solish orqali amalga oshirilgan.

Leksik sahdagi lakunalarni to'ldirishda tilning reprezentativ (kuzatishda berilgan) shakli – nutq jarayoni muhim ahamiyatga ega. Zero, tilning barcha imkoniyatlari va imkonsizligi nutq vaziyatida anglanadi. Shundan kelib chiqib, o'zida barcha nutq ko'rinishlarini mujassamlashtira oluvchi badiiy asarlarni, Abdulla Qodiriy asarlarini tahlil qilish orqali til ichidagi lakunalarning to'ldirilishi, xususan, bu borada

dialektizmlarning ahamiyati xususida yetarlicha tajriba to'plash mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abdulla Qodiriyning kichik asarlari tarixiy jarayonni o'zida birlashtirib juda go'zal badiiyatni yaratgan. Bu asarlarni o'qigan har bir kitobxon o'ziga nafaqat estetik zavq, balki tariximiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va eng muhimi, o'tmishimizning eng qiyin damlarini o'zining qalbi ila his etadi. Abdulla Qodiriy romanlarining qiymati va qadri qanchalar bebaho va durdona bo'lsa, uning kichik asarlari ham shunchalik badiiy ahamiyati va lingvistik jihatlari bilan muhim ahamiyat kasb etuvchi asarlarimiz bo'lib qoladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy "Diyori bakr" kichik asarlar to'plami. "Yangi asr avlodi", 2007-y.
2. Abdurazzoqov Eldor "Abdulla Qodiriy romanlari tilining o'ziga xos xususiyatlari", nom.diss., T., 2023 y.
3. Bykova G.V. Rus tilining leksik lakunarligi fenomenologiyasi. Blagoveshchensk, 2001 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi / Xalq so'zi. – Toshkent, 2017. – № 196 (6860).
5. uza.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 4-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-4479-son Qarori.
6. Xolmonova Z., Saidahmedova O., Nurillayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi /monografiya/. – T.: NAVRO'Z, 2018. – B. 48.
7. Vinay J., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. – Paris: 1958. P.10
8. Ҳасанов.А Ўзбек адабий тилидаги лексик лакуналарнинг диалектал асослари.Филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.– Тошкент, 2021. – 148 б.
9. Вахитова Т. Лексические лакуны как фрагмент национальной языковой картины мира (на материале казахского и русского языков).- ... дисс. автореф. Уфа, 2019. -26 с.
10. Толипова Д. Лексические лакуны в узбекском и русском языках. дисс. ... (PhD). филол. наук. – Т,2023.-133 с.
11. Ўзбек тилинингизохли луғати 2- том" Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007 й.



Rano BEGMATOVA,  
O'zDJTU dotsenti, f.f.n  
E-mail: rano@rambler.ru

O'zDJTU dotsenti, f.f.n L.Xaliyarov taqrizi asosida

## THEORETICAL ASPECTS OF THE COOPERATION PRINCIPLE IN LINGUISTICS

Annotation

This article studies theoretical views on the process of cooperation in linguistics. There is an important basis for the desire to cooperate, where humility, self-control and abstention from negativity are important. Cooperation, as a means of achieving common goals, is aimed at achieving a balance in conversation, and in intercultural communication it is achieved only if the interlocutors have similar values and communication is free from manipulative factors. The way to achieve cooperation is mutual positivism, that is, interaction based on positive.

**Key words:** Modern linguistics, cooperation, intercultural communication, cooperation.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИНЦИПА СОТРУДНИЧЕСТВА В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье изучаются теоретические взгляды на процесс сотрудничества в языкознании. Существует важная основа для стремления к сотрудничеству, где важны смирение, самообладание и воздержание от негатива. Сотрудничество, являющееся одним из способов достижения общих целей, направлено на обеспечение баланса в разговоре, а в межкультурном общении оно достигается только в том случае, если собеседники имеют схожие ценности, а общение свободно от манипулятивных факторов. Способ достижения сотрудничества – взаимный позитивизм, то есть взаимодействие, построенное на позитиве.

**Ключевые слова:** Современное языкознание, сотрудничество, межкультурная коммуникация, кооперация.

## TILSHUNOSLIKDA KOOPERATSIYA TAMOYILIGA DOIR NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilshunoslikda kooperatsiya jarayoniga bo'lgan nazariy qarashlar o'rganilgan. Bunda kooperatsiyani maqsad qilishning muhim fundamenti mavjud bo'lib, bunda kamtarlik, o'zini tuta bilish va negativ fikrlashdan tiyilish muhimdir. Umumiy maqsadlarga erishish yo'llaridan biri sanalgan kooperatsiya suhbatda muvozanatni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, madaniyatlararo muloqotda unga suhbatdoshlarning qadriyatlarini o'xshash, muloqot esa manipulyativ faktordan holi bo'lsagina erishiladi. Kooperatsiyaga erishishning yo'li o'zaro pozitivizm, ya'ni ijobiyat ustiga qurilgan interaktsiyadir.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy tilshunoslik, kooperatsiya, madaniyatlararo muloqot, hamkorlik.

**Kirish.** Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslik fanlararo yondashuvlarni va bir qancha ilmiy sohalardagi materiallar hamda nazariyalarni qamrab oldi. Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyathunoslik kabi sohalarning mazkur yondashuvlar bilan bir qatorda rivojlanishi jahon hamjamiyati uchun yangi dolzarb muammolarni keltirib chiqardi. Shu bois ob'ektiv voqelikning lingvistik tavsifi ekstralingvistik bilimlar bilan sezilarli darajada to'ldirildi, xususan, olimlarga turli xil lingvomadaniyatlarda insonlarning muloqoti va munosabatlarini yaxshiroq tushunishni ta'minlaydigan yangi xulosalar berilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xorvat olimasi Snejana Kordichning ilmiy qarashlari asosida [3], implikatsiyalar nazariyasi tilning pragmatik jihatlarini tushinishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu nazariya, til strukturasi va grammatikasidan tashqari, tilning ishlatilishi va ma'noning kontekstual shakllanishiga qaratilgan. S.Kordichning fikricha, implikatsiyalar nazariyasi orqali pragmatika, ya'ni tilning ishlatilish "kuchi" va uning muloqotdagi roli kengroq qamrovdagi tushuniladi. Demak, implikatsiyalar nazariyasiga ko'ra, muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi implisit (ya'ni, ochiqchasiga aytilmagan) ma'nolarni anglash va shakllantirish mexanizmlari muloqot samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Shuningdek, S.Kordich semantika va pragmatika orasidagi farqlarni ta'kidlaydi. Uning tadqiqotida semantika

so'zlar va iboralarning ma'nosiga qaratilgan bo'lsa, pragmatika tilning "kuchi"ga, ya'ni uning muloqotdagi ishlatilishi va ta'sir kuchiga e'tibor beriladi. Bu ikki paradigma orasidagi farq tilni tahlil qilishda muhimdir, chunki har ikkala yo'nalish tilning turli jihatlarini yoritadi: semantika tilning ma'nosini va strukturasi o'rgansa, pragmatika tilning ijtimoiy va muloqotdagi funksiyalariga diqqatni qaratadi.

Muloqotning samarali va maqsadga muvofiq kechishi, jumladan uning konstruktiv yoki destruktiv yo'nalishi, ko'p jihatdan kooperatsiyaga bo'lgan munosabatga bog'liq. "Kooperatsiya" so'zi lotin tilining "cooperatio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "birgalikda ishlash" yoki "hamkorlik" ma'nosini anglatadi. Lotin tilidagi "co-" prefiksi "birga", "ham" degan ma'noni bildiradi va "operatio" so'zi "ishlash", "amal qilish" ma'nosini ifoda etadi. Ushbu so'z XVI asrdagi qo'l yozmalarda keltirilishining guvohi bo'lamiz. Kooperatsiya tushunchasi muloqot jarayonida ijobiy muhitni yaratish, maqsadlarga erishishni tezlashtirish, potensial agressiyani kamaytirish va mumkin bo'lgan ziddiyatlarning oldini olish kabi muhim vazifalarni bajargan holda, o'zaro hurmat va taktik harakatlarning strategik muhimligini ta'kidlaydi.

Rus tilida ham "birlashuv" so'zi "kooperatsiya" tarzida qo'llanilib hamkorlikni anglatadi. "Kooperativ aloqalar" va "kooperativ munosabatlar" qo'shma so'zlari ham iste'molda mavjud. Katta nemis-rus tili lug'atida kooperatsiya iqtisodiyotga tegishli atama ekanligi qayd etilib, hamkorlik

asosida ishlab chiqarish turi ko'zda tutiladi. Iqtisodiyotda birlashmaning 5 turi mavjud bo'lib, bularga marketing, kredit, xizmat ko'rsatish birlashmalari va boshqalar kiradi. Aytish mumkinki, kooperatsiya termini, asosan, siyosatshunoslik va iqtisodiyotda ko'p qo'llaniladigan, siyosatda birlashuv birikuv deya tushunilsa, iqtisodiyotda birlashma atamasini ifodalaydi. Shuningdek, oxirgi paytlarda ta'lim sohasida kooperativ ta'lim tushunchasi qo'llanilib, u maktab kollektivi va ish beruvchilar birlashmasini anglatadi. Ta'kidlash joizki, o'tgan asrda chop etilgan lug'atlarda kooperatsiya lingvistik termin ekanligi haqida xabar uchramaydi. Kooperatsiya hodisasi bir necha fanlarning o'rganilish ob'ekti bo'lib, lingvistikaning o'rganilish ob'ektiga, nazarimizda, "nutq kooperatsiyasi" birikmasi mos tushadi.

Shunday qilib, "kooperatsiya" so'zi bilan bir necha shaxslar yoki guruhlarning umumiy maqsadlar yo'lida birgalikda harakat qilishi ta'kidlanadi. Bu tushuncha iqtisodiyot, ijtimoiy fanlar va boshqa sohalarida keng qo'llanilib, umumiy maqsadga erishish uchun resurslar va kuchlarni birlashtirish zaruratini aks ettiradi. Kooperatsiya, shuningdek, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning asosiy shakllaridan biri sifatida, jamiyat rivojlanishining muhim omilidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tilshunoslikda kooperatsiya, ko'pincha, tilning ijtimoiy aspektlarini o'rganish kontekstida muhim tushuncha sifatida qaraladi. Bu termin tilshunoslar, adabiyotshunoslar, sotsiologiyatlar va boshqa olimlar tomonidan tillarning rivojlanishi, tillararo va til ichidagi ta'sirlanish jarayonlari, shuningdek, tillarning ijtimoiy funksiyalari va ularning jamiyatdagi roli kabi masalalarni o'rganishda ishlatiladi.

Kooperatsiya tushunchasi, ayniqsa, dialoglar va muloqotlarda ishtirok etayotgan sub'ektlarning o'zaro ta'siri va hamkorlik qilishini o'rganishda muhim bo'lib, P.Graysning muloqotdagi kooperatsiya tamoyili va uning maksimalari bilan bog'liq [2]. Shuningdek, kooperatsiya termini tillararo aloqalar, bir tilning boshqa tilga ta'siri, tillarning aralashishi kabi hodisalarni tasvirlashda ham ishlatiladi. Tillar o'rtasidagi kooperatsiya ko'p madaniyatli va ko'p tilli jamiyatlarda alohida ahamiyat kasb etadiki, u turli tillarning o'zaro ta'siri natijasida insonlarning madaniy va ijtimoiy integratsiyasiga xizmat qiladi.

Umuman olganda kooperatsiya tushunchasi tilshunoslikning turli sohalarida, jumladan sotsiologiyat, pragmatika, diskurs tahlili kabi yo'nalishlarda qo'llaniladi.

Konstruktiv muloqot, shubhasiz, jamiyatda hamkorlik va o'zaro anglashuv muhitini mustahkamlashning asosiy omillaridan biridir. Shu munosabat bilan, jamiyatshunos olim A.I. Kreykning kooperatsiyaga oid qarashlari ahamiyatlidir [6], chunki u kooperatsiyani insoniyatning asosiy xususiyati sifatida ta'kidlab, integratsiya, kooperativlik, birlashma, kelishuv, hamdo'stlik va birdamlik kabi atamalarning ma'no jihatdan yaqin ekanligini ko'rsatadi. Kreykning ta'kidlashicha, individuallashtirilgan zamonaviy jamiyatda insonlar faqat o'zaro ma'qullashuv va hamkorlik orqali ruhiy konsensusga erishib, muammolarni hal qilish va umumiy maqsadlarga erishish imkoniyatini topishadi.

**Tahlil va natijalar.** Muloqotning ushbu konstruktiv yo'nalishini ta'minlashda P.Graysning kooperatsiya tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Graysning fikricha, muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi samarali hamkorlik va o'zaro tushunish, faqat kooperatsiya tamoyillariga amal qilingan holda erishiladi [2]. Kooperatsiya tamoyillari muloqotni mazmunli, maqsadli va to'siqsiz o'tkazishni kafolatlaydi, natijada har ikki tomon ham mamnunlik va qoniqish hissini tajriba qiladi. Demak, muloqotda kooperatsiyaning ahamiyati beqiyos bo'lib, u muloqotni konstruktiv yo'nalishda rivojlantirishning asosiy shartidir. Mazkur tamoyillarga amal qilgan holda, muloqot ishtirokchilari o'zaro tushunish va

umumiy maqsadlarga erishish yo'lida samarali hamkorligi amalga oshiriladi.

J.Allwood kooperatsiyani insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning bir turi sifatida, aniqroq aytganda, kommunikatsiyaning samarali va ravon kechishini ta'minlovchi asosiy omil sifatida tavsiflaydi [1]. Uning tadqiqot ishida kooperatsiya ratsionallik, me'yoriylik va boshqariluvchi normalar doirasida ko'rib chiqiladi, bu esa konfrontatsiya va tushunmovchiliklarning oldini olishda muhim. Anglashiladiki, J.Allwoodga ko'ra, kooperatsiya maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan ratsionallik va logikaning bir ko'rinishidir. Darhaqiqat, agar kommunikatsiya barcha qonun-qoidalarga ko'ra olib borilsa, bunday muloqotni kooperatsiya deb ham atash mumkin.

Shu bilan bir qatorda, N.N. Koshkarova kooperatsiyani ikki tomonlama – til fenomeni va nutq fenomeni sifatida o'rganishni taklif qiladi [5]. Olima kooperatsiyani faqat tilning funksional yoki ma'noli aspektlari doirasida emas, balki nutq vaziyatlari, kommunikativ xatti-harakatlar va madaniyatlararo munosabatlar nuqtai-nazaridan ham o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. O'ylashimizcha, kompleks yondashuv kooperatsiyani to'liq tushunish uchun zarur bo'lib, bu yondashuv orqali til vositalarining maqsadga muvofiq qo'llanilishi, ularning adresatga ta'siri, shuningdek, madaniyatlararo muhitda diskursning milliy xususiyatlarini aniqlash mumkin. Chunonchi simbioz ya'ni, pragmatik lingvistik yondashuvga til vositalarining qay maqsadga qo'llanilganligini yuzaga chiqarishda, uning adresatga ta'sirini, sotsiologiyat yondashuviga suhbatdoshlarning kommunikativ xatti-harakatini va nutq vaziyatlarini, madaniyatlararo muhitgina diskursiv milliy tabiatni yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Kooperatsiya tushunchasini tahlil qilish jarayonida uning qutblanishi va polyarligi muhim omil sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Ushbu tushuncha, vaqt va makonga bog'liq ravishda turlicha ko'rinishlarga ega bo'lib, bir qutbida konflikt kabi negatív holatlarni, ikkinchi tomonda esa tolerantlik va xushmuomalalik kabi ijobiy holatlarni o'z ichiga oladi. N.N. Koshkarova ta'kidlanganidek, kooperativ diskurs tolerantlik va xushmuomalalikka asoslangan bo'lib, bu ziddiyatlilikning qarama-qarshi qutbidir. Falsafiy, psixologik va lingvistik nuqtai nazardan yoritiladigan tolerantlik aynan lingvistikada xushmuomalalik ko'rinishida uchraydi. Diskursda kooperatsiyaga erishish uchun odatiy hisoblangan til vositalari, qanday vazifani bajarishi kerakligiga ko'ra informativ, analitik va regulativ nutqdan foydalanish yetarli bo'ladi.

Kooperatsiya til va nutq fenomeni sifatida, shuningdek, kommunikativ ta'sir vositasi sifatida ham o'rganiladi. I.O.Kosova boshqa izlanuvchilardan farqli ularoq kooperatsiyani kommunikativ ta'sir vositasi sifatida bayon qiladi [4]. Kooperatsiya kommunikatsiya tarkibida baho vazifasiga ega ekanligi bilan ajralib turganligi sababli u pragmatik kategoriya sanaladi. U turli sohalarida turlicha ko'rinishlarga egadir, biroq umumiy maqsadga erishish uchun rejali va yaxshi tushunilgan hamkorlik sifatida tavsiflanadi. Kooperatsiya, shu tariqa, kommunikatsiyaning bir qismi sifatida, pragmatik kategoriya hisoblanib, baho vazifasini bajaradi.

Ma'lumki, kooperatsiya binarlikni va ko'p o'lchamli, murakkab tushunchani tashkil qiladi, kooperatsiya qutblashuvi esa subkategoriyalarga bo'linadi, bular kooperativlik va nokooperativlik. Bizningcha, kooperatsiya ijtimoiy xodisa bo'lib, o'zaro munosabatlarni boshqaruvchi omil hisoblanadi va nizosiz, muvaffaqiyatli muloqotga ta'sirini o'tkazish bilan o'z hissasini qo'shadi. Har bir nutq aktida suhbat ishtirokchisi kooperatsiya yoki konflikt strategiyasini qo'llashni o'zi hal qiladi. Masalan, kooperativ provokatsiya taktikasi so'zlovchining emotsional holatini izdan chiqarmasligi

maqsadida qo'llaniladi. Zero, kooperatsiya nutq akti konfliktidan farqli ularoq garmonizatsiya, ya'ni uyg'unlashuvni talab qiladi. Demak, biz kooperatsiyani strategiya sifatida ham tushunishimiz mumkin. Chunonchi, kooperatsiya taklif, rozilik, yon berish, ma'qullash, maqto'v va boshqa taktikalardan biri yoki bir nechasidan foydalanish asosida nutq garmonizatsiyasiga erishishga yo'naltirilgan.

Madaniyatlararo hamkorlik jihatidan, kooperatsiya turli madaniyatga mansub shaxslar o'rtasidagi umumiy manfaatlar uchun aniq belgilangan sohalarida amalga oshiriladigan teng huquqli hamkorlikni anglatadi. Bu borada ta'kidlash zarurki, kooperatsiya turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan, lekin har doim hamkorlik va o'zaro tushunishni oshirishga qaratilgan jarayondir. Kooperatsiya madaniyatlararo hamkorlikdan tortib, kommunikativ ta'sirgacha bo'lgan keng ko'lamdagi holatlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya va ijtimoiy etika nuqtai-nazaridan, kooperatsiya murakkab ijtimoiy interaktsiya turlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda sheriklar, xususan, monokultur bo'lmagan holatlarda, jamoaviy qabul qilingan qoida va ko'rsatmalar asosida o'zaro muloqot qilishadi. Madaniyatlararo kooperatsiyaning asosida o'zaro ishonch va to'g'rilik kabi tushunchalar yotadi. O'zaro ishonch hamkorlikning samarali kechishi uchun zarur bo'lgan asosiy shartlardan biridir. Bu o'zaro birgalikni taqozo qiladi va ijtimoiy etika normalaridan biri sifatida hamda guruhlar va tashkilotlarning tuzilishi tamoyili sifatida namoyon bo'ladi.

Kooperatsiya, shuningdek, adolatli shartlar va o'zaro manfaatlar asoslangan hamkorlikni taqozo qiladi, uning muvaffaqiyati maqsadlarni muvofiqlashtirish, axborot almashish, o'zaro aloqa va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, konstruktiv muammolarni muhokama qilish va ishonchni mustahkamlash orqali ta'minlanadi. Hamkorlik shakli, ishtirokchilarning rivojlanishiga imkon beradigan, sheriklar tomonidan qaror qabul qilish va harakat qilish erkinligini talab qiladigan vaziyatdir.

Madaniyatlararo kooperatsiyada, albatta, hisobga olinishi lozim bo'lgan qirralar mavjud bo'lib, ular ishtirokchilarning madaniy hurmati, qadriyatlarini va an'analarni hurmat qilish bilan bog'liq. Hamkorlik jarayonida madaniy farqlarni e'tiborga olish, har qanday potensial ziddiyatlardan qochish va o'zaro tushunish va hurmatni ilgari surish juda ahamiyatlidir. Shu tariqa, madaniyatlararo kooperatsiya, ijtimoiy etika normalari asosida qurilganda, samarali va barqaror hamkorlikka erishish mumkin.

Har bir muloqot, ayniqsa xorijliklar bilan bo'ladigan munosabatlarada madaniyatlararo tushunish va hurmatni taqozo qiladigan "qizil chiziq"ga amal qilinadi. Bunday chiziq, turli madaniyatlardagi nozik masalalarga, an'analarga va qadriyatlarga hurmat bilan yondashishni o'z ichiga oladi. Masalan, Frau Grayn ta'kidlaganidek, ba'zi madaniyatlarda mentalitet yoki ijtimoiy normalarga tegishli ma'lum so'z yoki iboralardan foydalanishda ehtiyot bo'lish kerak, chunki bu so'zlar noto'g'ri tushunilishi mumkin yoki madaniyatga xos bo'lmagan tarzda qabul qilinishi mumkin.

Kooperatsiyani ta'minlash va uni samarali qilish madaniyatlararo aloqalarda global hamda etnik va xalqaro qadriyatlar tizimidan xabardor bo'lishni taqozo etadi. Bunday bilim madaniyatlararo muloqotda o'zaro tushunishni ta'minlaydi va muvofiqlashtirilgan hamkorlikni yuzaga keltiradi. Shuningdek, kooperatsiyani saqlash iqtisod, siyosat va ijtimoiy hayotimizda muhim o'rin tutadi, chunki u o'zaro hamkorlik va birgalikda ishlash madaniyatini rivojlantiradi. Kooperatsiya mas'uliyat, ochiqlik va fikrlarni kengaytirishga nisbatan ham ochiq bo'lishga asoslangan, bunda simpatiya, do'stonalik, hamdardlik va muhabbat kabi ijobiy munosabatlar

alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, jiddiy egoistik xislatlardan voz kechish va qadriyatlarini yaxshi tomonga o'zgartirish zarur hisoblanadi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning yetishmasligi odatda xalqaro loyihalarning samarasizligiga olib keladi. Shu sababli, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun trening markazlari va baholash mexanizmlari zarur. Madaniyatlararo muloqot kouchingi ham muhimdir, chunki u madaniyatlar o'rtasidagi ko'priklarni vazifasini bajaradi va o'zaro anglashuv va hamkorlikni mustahkamlaydi.

Madaniyatlararo siyosiy nutqni tadqiq qilgan rus olimasi N.N. Koshkarovning dalolat berishicha, Rossiya prezidenti nutqida kooperativ nutqdan ko'ra destruktiv nutq ustunligini, uning nutqini kooperativ nutq deyishga hali erta ekanligini alohida qayd etadi [5]. Bu borada J. Allwoodning "mukammal kooperatsiya" haqidagi fikrlarini eslash joizdir [1], muallif buni me'yori holat deydi va quyidagicha ta'rif keltiradi: "Mukammal kooperatsiya – bu ikki va undan ortiq ratsional agentlarning: 1. bir maqsadga erishish uchun o'z ixtiyori bilan harakat qilishishi; 2. maqsadga erishish uchun bir-birini etik va kognitiv jihatdan hisobga olishi; 3. bir-birlariga ishonishlari, birinchi va ikkinchi bandlarda keltirilganidek ish tutishlari lozim, agar buning iloji yo'q bo'lsa bir-birlarini ogohlantirishi kerak". Haqiqatdan ham, kooperatsiyaga erishish uchun ikki tomon ham faol kooperatsiya tashabbusini ko'rsatishlari lozim.

J. Allwoodning ta'limotiga ko'ra, kooperatsiya tashabbusining me'yorlari quyidagilardan iboratdir:

- faol mukammal kooperatsiyaga erishish uchun bir maqsad bilan bog'langan agentlar bir-birining etik va kognitiv nuqtai-nazarini hisobga olishi;

- ishonchli mukammal kooperatsiyaga erishish uchun boshqalar agentlarning etik va kognitiv jihatlariga e'tibor qaratib, ularga ishongan holda o'z ixtiyorlari bilan kooperatsiyaga kirishishi.

Bundan kelib chiqadiki, mukammal kooperatsiya ratsional adresat va ratsional adresantni taqozo qiladi. J. Allwoodning yana bir xizmati shundan iboratki, u ratsional kommunikatsiya tushunchasini ham yoritib o'tgan va uni kommunikatsiyaning o'z intensiyasi va maqsadiga ega hamda ixtiyoriy va erkin tashkil etilishidir, deb ta'riflagan. Ratsional kommunikatsiya motivatsiyali, adekvat va kompetentli agentlar tomonidan tashkil etilsa, ushbu jarayon yoqimli, aks holda esa ikki tomon uchun og'riqli kechishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, kooperatsiya termini o'z universalligi bilan ajralib turadi va madaniy turli-tumanlilikni keltirib chiqaradi. Kooperatsiyani maqsad qilishning muhim fundamenti mavjud bo'lib, bunda kamtarlik, o'zini tuta bilish va negativ fikrlashdan tiyilish muhimdir. Umumiy maqsadlarga erishish yo'llaridan biri sanalgan kooperatsiya suhbatda muvozanatni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, madaniyatlararo muloqotda unga suhbatdoshlarning qadriyatlarini o'xshash, muloqot esa manipulyativ faktordan holi bo'lsagina erishiladi. Kooperatsiyaga erishishning yo'li o'zaro pozitivizm, ya'ni ijobiyat ustiga qurilgan interaktsiyadir.

Shunday qilib, kooperatsiya muloqot davomida yoqimli muhitni yuzaga keltiradi, ko'zlangan maqsadga erishishni tezlashtiradi va potensial agressiyani yumshatadi hamda yuz berishi mumkin bo'lgan zoniing oldini olishga yordam beradi. Demak, kooperatsiya tamoyillariga amal qilish bu suhbatdoshiga nisbatan oq ko'ngilli bo'lish, o'zaro hurmatni saqlash va taktik harakat qilishda strategik muhim ahamiyatga egadir.

1. Allwood Jens. "Linguistic communication as action and cooperation : a study in pragmatics." (1976).
2. Grays G.P. Logika i rechevoye obsheniye // Nooye v zarubejnoj lingvistike. Vip. 16. Ligvisticheskaya pragmatika, 1985.
3. Kordic S. Konverzacijske implikature. Suvremena lingvistika 17\_31-32 (1991). Zagreb. 87-96c.
4. Kosova I.O. Pragmaticheskiye kategorii kooperatsii i konflikta v rechevoy kommunikatsii // Vestnik VolGU. Seriya 2: Yazikoznaniye. 2006. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pragmaticheskie-kategorii-kooperatsii-i-konflikta-v-rechevoy-kommunikatsii>
5. Koshkarova N.N. Konfliktniy i koopertivniy tipi russkoyazichnogo diskursa v mejkulturnom politicheskom prostranstve. Yekaterinburg – 2015. 48 str.
6. Kreyk A.I., Xudiyakova N.I., Kooperativnost kak fundamentalniy priznak chelovechestva // Psixologiya, sotsiologiya i pedagogika. 2014. № 6 [Elektronniy resurs]. URL: <https://psychology.snauka.ru/2014/06/3238>



*Nilufar DILMURODOVA,*  
*ToshDO'TAU mustaqil tadqiqotchisi, TDIU dotsenti*  
*E-mail: nilu.01@mail.ru*

*ToshDO'TAU professori, f.f.d. Islom Yoqubov taqrizi asosida*

**ASAD DILMUROD NASRIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TALQIN**  
Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, taniqli adib Asad Dilmurod (1947-2019) nasrida tarixiy haqiqat va badiiy talqin muammosi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Hikoya, qissa, roman, tarixiy haqiqat, badiiy talqin, poetik mahorat, realistik uslub, xarakter

**ИСТОРИЧЕСКАЯ ПРАВДА И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В ПРОЗЕ АСАДА ДИЛМУРАДА**  
Аннотация

В статье исследуется проблема исторической правды и художественного осмысления в прозе известного писателя Асада Дилмурада (1947-2019), заслуженного работника культуры Узбекистана

**Ключевые слова:** Рассказ, повесть, роман, историческая правда, художественная интерпретация, поэтическое мастерство, реалистический стиль, характер.

**HISTORICAL TRUTH AND ARTISTIC INTERPRETATION IN ASAD DILMURAD'S PROSE**  
Annotation

The article analyzes the problem of historical truth and artistic comprehension in the prose of the famous writer Asad Dilmurod (1947-2019), Honored Worker of Culture of Uzbekistan

**Key words:** Short story, novel, historical truth, artistic interpretation, poetic skill. Realistic style, character

**Kirish.** Butun borliq, hayot va insonni ziyrak nigoh bilan keng miqyosda kuzatish, hissiy tafakkur orqali badiiy-falsafiy tahlil chig'irigidan o'tkazish bugungi adabiyotimiz qiyofasini belgilovchi yetakchi xususiyatdir. Badiiy did xilmal bo'lib, ilmiy salohiyat kuchayib borayotgani tufayli bugun hammaga birdek ma'qul va qiziqarli asar yozish iloji yo'q, unaqasi allaqachon o'tmishda qoldi. Boshqacha aytganda, "Ijtimoiy ongning o'sishi, badiiy iste'molchilar saviyasi yuksalishi tufayli endilikda voqealarni qayta hikoya qilib berishni badiiy asar sifatida taqdim etish ko'pchilikni qoniqtirmay qo'ydi. Oldinlari shu xildagi bitiklar badiiy adabiyot sifatida qabul qilinib o'qilar edi. Endilikda voqealarni bo'lganiday bayon etish badiiy adabiyot emas, balki tarixning ishi ekanligi ko'pchilik tomonidan anglab yetildi"[1].

Xalqimizning adabiy-estetik ehtiyojini qondirish yo'lida samarali mehnat qilgan iste'dodli, kamtar va kamsuqum nosirlarimizdan biri – Asad Dilmurod ijodi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Adib nasrida tarixiy-hayotiy haqiqatlarni badiiy talqin qilish, odam va olam mohiyatini yangicha anglash va idrok etish yetakchilik qiladi. Uning "Kunsuluv", "Qo'ng'iroq", "Narvon", "Xilvat", "Xayol cho'g'lanishi" kabi ko'plab hikoyalari, "SHerdor", "Mul'k", "Girih", "Intiho", "Mezon burji", "Oq ajdar sayyorasi", "Sirli zina" qissalari, "Mahmud Torobiy", "Fano dashtidagi qush", "Pahlavon Muhammad", "Rang va mehvar", "Zarradagi olam" romanlarini zamondosh kitobxonlar hukmiga havola etdi[2]. Mazkur asarlarda goh tarixiy ziddiyatlar, goh reallik va noreal hayot birligi, ya'ni mistik-romantik holatlar, gohida esa o'tkir psixologizm ruhi ustuvorlik qiladi. Bu tasodifiy hol bo'lmay, dadamning aksariyat asarlari ijodiy niyat sifatida tug'ilgan, qaro tunlarni musaffo tonglarga ulab qog'ozga tushirilgan, qayta-qayta pardoziqlangan va nihoyat tandirdan uzilgan nonday o'quvchiga taqdim qilinib, yurak hovuchlab biror jo'yali fikr-mulohaza kutilgan lahzalarning jonli guvohi sifatida menga yaxshi tanish. O'sha qadrdon damlar, yaqin va olis xotiralarni

shuurimda tiklarkanman, dadamning muttasil o'qib-o'rgangani, o'z qalamini tinimsiz charxlagani, kitobxon oldidagi mas'ullik va so'zga sodiqlik hissini ardoqlab, mudom intilish va izlanishda bo'lgani meni hanuz hayratga soladi. Shuurimda uning qiyofasi men hayotliklarida tasavvur qilganimdan ko'ra oddiyroq va o'sha oddiy, beg'araz va beg'uborliklari bilan yanada ulug'vorroq bo'lib qad rostlay boradi...

Asad Dilmurod katta ijodiy o'rganish bosqichini o'tagandan keyingina roman janriga qo'l urdi. Jumladan, uning "Xilvat" hikoyasi va "Mezon burji" qissasida Amir Temur obrazi yaratildi. Istiqloqgacha bo'lgan davrda kitobxonlar qo'lga tekkan "SHerdor"[3] qissasida XVII asr birinchi yarmidagi Samarqand manzaralari, ashtarxoniyalar sulolasi vakili – hokim Abu Karim Boyhoji o'g'li Yalangto'shbiy bahodirning murakkab shaxsi, uning go'zal qizi Mohbonu bilan me'mor yigit Muhammad Avazning iztirobli muhabbati xususida so'z boradi. SHerdor madrasamasjidi go'zallik va ezgulik obidasi, hayot qarama-qarshiliklari va xalq donoligi aks etgan boqiy timsol sifatida talqin qilinadi.

"SHerdor"da Imomqulixon davridagi xalqimiz hayotini ma'rifat g'oyasiga yo'g'irib tasvirlaydi. Qahramonlar tabiiy intilishlarini insoniy ziddiyatlari, ma'naviy komilliklari va cheklanganliklari bilan ifoda etadi. Ularning ko'ngil iqlimlarini nafs masalasiga munosabatlari fonida taftish etadi. Qissadagi koshona ezgulik va nafosatning, shohi ro'molcha va unga naqshlangan tasvirlar esa muhabbatning ramzlari darajasiga ko'tariladi. Ijod ishi va yaratuvchanlik, go'zallik va nafislik, ulug'vorlik va abadiyat barqarorligi haqidagi yetakchi fikrni tasdiqlashga xizmat qiladi. Bu usul keyinchalik "Girih" qissasida qadimiy naqsh - girih majoziy obraz darajasiga ko'tarilishida ham bo'y ko'rsatadi. Nihoyat, "Fano dashtidagi qush" romanida uslubiy belgi sifatida yaxlitlashadi. Muhimi, ularda adib qalbidagi bunyodkorlik zavqi, ezgulik



sog'inchi, nafosat ehtiromi va g'ayrati, ertadan umidvorlik tuyg'ulari, falsafiy mushohadalari mujassamlashgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "MulK", "Girih", "Intiho"[4] qissalarida ham ma'rifat va jaholat o'rtasidagi kurash yaqin o'tmish hayoti misolida badiiy-falsafiy tahlil etiladi. Tarixiy o'tmish va madaniy merosga milliy manfaatlar nuqtai nazaridan qaralib, zo'ravonlikning har qanday ko'rinishi johillik sifatida baholanadi. "MulK" qissasi badiiy tasvirning kengligi, majoziy obrazlarga boyligi bilan e'tiborni tortadi. Nosir unda XX asr boshidagi tanazzulni qalamga oladi. Muhimi, inson va uning e'tiqodi, moddiy-ma'anaviy boylıkları toptalgani, sha'ni kamsitilgani haqida millat ziyolisi o'laroq, kuyinib so'zlaydi. Keyingi qissalarida adib tasvir doirasini yanada kengaytirib boradi.

Adibning "Mahmud Torobiy"[5] nomli ilk romaniga ham ruhiy-ijodiy tayyorgarlik bosqichi milliy istiqoldan ancha ilgari boshlangan edi. Uning "Yaroqdagi bitik" hikoyasidayoq Mahmud Torobiydagi sarkardalarga xos barqarorlik va jasorat tuyg'usi ona qonidan o'tganligi ko'rsatilgandi.

Tarixiy romanda Mahmud Torobiy oddiy kosiblikdan ulug' sarkardalikkacha ko'tarilgan, sultonlik rutbasiga musharraf bo'lgan, hurriyatga tashna inson obrazi sifatida keng ko'lamda ifoda etildi. Mahmud Torobiy – ruhan yengilmaydigan o'ktam inson. U xalq musibatini shaxsiy mayllaridan ustun qo'ya oladi. Yozuvchi uning nafaqat jismoniy, balki ruhiy qudratini ham ko'rsata bilgan. Bunday holni romanning Muhiddin Kamol va Suyguna Zebo ishq-muhabbati tasvirlangan o'rinlarda ham uchramiz. Yozuvchi intim tuyg'ularni tasvirlashda qahramonlar ruhiyatidagi tebranishlarga e'tibor qaratadi. Muhiddin Kamol bilan Olovxon Yusufni, Suyguna Zebo bilan Suzukni qarama-qarshi qo'yib tasvirlash orqali iymon pokligi va ruh musaffoligi haqidagi konsepsiyani tasdiqlaydi, kitobxon tuyg'ular olamini larzaga solib, goh g'urur, goh entikish, gohida esa achinish, iztirobga tushish hisslarining o'rmini almashtira boradi. Asar tasviriy yo'nalishidagi falsafiy mushohadakorlik, g'oyaviy konsepsiyasidagi teran hayotiy umumlashmalar o'quvchi ongida olam va odam haqida teran mulohazalar uyg'otadi, o'sha davr ruhini qalbiga joylaydi.

"Mahmud Torobiy" romani markazida jaholat va yovuzlik, xiyonat va qabohatning inkori orqali e'tiqod butligi, iymon musaffoligi, erk sog'inchi, yurtga sadoqat singari ardoqli tuyg'ularni ulug'lash turadi. Adib Mahmud Torobiyning ideallashtirmaydi. Butun umri dahshatli yo'qotishlar ichida kechgan sarkardaning dard-alamlari, iztiroblari haqqoniy tasvirlanadi. U muqarrar fojiasini anglagan holda katta maqsadlar yo'lida muxorabaga kirgani bilan ulug'vorlik kasb etsa, atrofini qurshaganlarning ruhiy olamini bilib ulgurmanligi jihatidan o'zligini ham namoyon etadiki, u adabiy qahramongina emas, jonli odam sifatida qabul qilinadi. Muallifning romandan ko'zlagan bosh maqsadi ham Chingiz qilichi yaralab, tiz cho'ktirishga uringan, buyuk Yaso qonunlari xo'rlagan islomiy yurt Buxoroda ertangi kun qayg'usi bilan yashayotgan, vatan tuprog'ini muqaddas biluvchi e'tiqodli botirlar ko'pligini ko'rsatishdan iborat edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, adibning asosiy e'tibori qo'zg'olon tafsilotlariga qaratiladi. Mahmud Torobiyning so'ngsiz fig'onlari boshidan ko'p jafolarni o'tkazgan elning fig'oni sifatida ifoda etiladi. Yozuvchi xalq qonida yashirin qudrat va shijoatning uyg'onishi katta kuch ekanligini, har qanday razolatni mahv etajagini g'oyatda ishonchli tasvirlashga erishadi. U qahramonlar ruhiyatidagi ziddiyatli evrilishlarni ko'rsatar ekan, dunyoning notug'alligini, farog'atli va erkin zamonlar orzusini nafs va iymon tushunchalari, vatan va xalq tuyg'ulari atrofiga jipslashtiradi.

Asad Dilmurod qahramonlarga bo'lgan munosabatini unchalik yashirmaydi. Asarda Mahmud Yalavoch singari murakkab xarakterlarning ruhiy o'rtanishlar orqali kechuvchi

inqirozi haqqoniy tahlil etiladi. Bu orqali nafaqat davr, balki arosatdagi inson taqdiriga xos fojia ham ko'rsatiladi. Romanda bosqinchilar va isyonchilar o'rtasidagi kurash ezigulik va yovuzlik kurashi tarzida ifoda etiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Muhimi, adib kitobxonni o'ylash va fikrlashga undaydi. Alam va iztirobga yo'g'rilgan ko'hna tarixni butun dahshatlari bilan jonlantirish orqali Mahmud Torobiy ruhida kechgan jarayonlarni iymon pokligi, niyat tozaligi bilan tutashira biladi. Siynasi dushman nayzalaridan pora bo'lganida ham "Yashasin, Hurlik!" – deya baralla hayqirgan Suyguna Zebo, jon taslim qilayotib vatan tuprog'ini tavof qilgan Muhiddin Kamol, qilich sopini chalgallaganicha jon taslim etgan Shamsiddin Mahbubiy, qo'lida tug' bilan janggohga otlangan va shahid ketgan Zor Jahon va nihoyat, o'linga tik boqib, xoin Olovxon Yusuf xanjariga mardona boshini tutib bergan Mahmud Torobiy jasorati va armonlari g'oyatda ishonarli, estetik ta'sirchan tarzda chiziladi. G'azab va nafrat, dahshat va umid bilan qorishgan ulug' muhoroaba tarixi xalq ruhining yengilmasligi timsoli darajasida ifoda etiladi.

"Pahlavon Muhammad"[6] romanida yanada kengroq ifodasini topadi. Asad Dilmurod ijodiy uslubi sayqallashadi va ijodiy pozitsiyasi yanada kengroq ko'lamda ko'zga tashlanadi. 2006 yilda kitobxonlar qo'lga tekkan ushbu romanda Alisher Navoiydek ulug' shaxs faoliyati va ijodining yo'nalishida, taraqqiyoti va takomilida muhim rol o'ynagan Pahlavon Muhammad Abusaid siymosi o'z ifodasini topgan. Adib uning hayotini xalq va vatan manfaatlar uchun fidoyilik namunasini, poetik ijodini esa ezigulik g'oyalarining ifodasi sifatida ma'naviy-ma'rifiy va irfoniy mazmunda yoritadi. Inson va hayot falsafasi haqida teran falsafiy fikr-qarashlarini ilgari suradi.

Asarda realistik uslub yetakchilik qilsa-da, romantik-fantastik bo'yoqlar ham ko'rinadi. Ayni shu bo'yoqlar epik tasvir ta'sirchanligini yanada orttirish, qahramanlar dunyosini teran ochish va badiiyatni kuchaytirishga yordam beradi. Jumladan, Ibrohim Bekpo'lat hind qoplani, filday baquvvat barzangi sifatida ta'riflanadi. Ahmad Piri "depsinsa yer o'yilgudek silkinar, na'ra tortsa havo tebranar edi" qabilida grotesk usulida beriladi. Ali Rustoiy dev suvratli, yosuman siyratli bo'lib, raqibiga qarshi lalmi do'q uradi. U: "istasam, yerni yelkashga qodirman", - deb chiranadi. Pahlavon Muhammad siltanganida movut kamzuli choki yag'rini tarafdin tirillab so'kiladi. Darvesh Muhammadning o'mrovlar qoyadek cho'ng, har yelkasi bir odam sig'adiganday keng, paylari tarang, mushaklari sandonda peshlangan kabi bo'rtiq, Muhammad Moloniy raqib ro'parasida qad rostlaganida go'yo ham bo'yiga, ham eniga o'sadi. "Odam suvratidagi dev'ning bir tepib bahaybat fil Manglusni qulatishi, o'zini qo'yib yuborganida go'yo mushaklari o'ynoqlab, bo'yin tomirlari o'qlog'dek bo'rtub, ko'zlari kosasidan irg'ib chiqquday bo'lishi holatlari, bir tomondan, maydonda masiqqan pahlavonlar jununini, ikkinchi jihatdan, ma'naviy va ruhiy qudratning oniy lahzalardagi birikuvini, uchinchidan esa, or talashgan pahlavonlar ma'naviy qiyofasini ko'rsatishga xizmat qiladi. Raqib dahshati va vahimasiga qarshi turgan kuch-qudrat, mardlik va jasorat kuchini ifodalashga va ma'lum darajada hajviy-yumoristik qiyofalar chizishga xizmat qiladi. Bunday tasvirlar romanga an'anaviy eposga xos epik ko'lamdorlik, badiiy shartlilik, ideallashtirish, mubolag'a va grotesk, ijodiy to'qima kabi ko'plab xususiyatlar singdirilganligini ko'rsatadi.

"Pahlavon Muhammad"da bosh qahramon siymosi talqini orqali donishmand, oqko'ngil, e'tiqodi butun va irodali alloma g'oyalarining insonparvarlik mohiyati mufassal ko'rsatilgan, muallifning unga kechinmadoshlik tuyg'ulari ifodalangan. Qahramonni ma'naviy-ruhiy poklanish yo'llaridan olib o'tish orqali kamolotga yetaklashda yozuvchi uning iymon-e'tiqodi va dunyoqarashiga alohida diqqat

qaratadi. BUTUN ODAMLardan ma'naviy-ruhiy madad olib, ozodlik sari talpingan qahramon o'zining jaholatga qarshi kurashish maslagiga safdoshlarini ham ishontira oladi. U faqat faylasuf allomagina emas, eldoshlarining ishonchli homiysi timsolida ham talqin qilinadi. Ruhoniy portretini chizish orqali pahlavon-valiylik xarakteriga xos ilohiylik qirrasini yoritiladi.

Boshqacha aytganda, romandagi ziddiyatlar nafaqat shaxs va jamiyat, ezgulik va yovuzlik, balki imon va nafs o'rtasida ham kechadi. Muallif jismoniy kuchlar to'qnashuvini davr ruhidan ajratmaydi, ichki kolliziya fonida aks ettiradi. Pahlavon Muhammad shaxsiyatidagi erkka intilish, so'fiylik, baland insoniy g'ururdan keluvchi andak kibr, qat'iyat, ishonch, yuksak ruhoniy ulug'vorlik, yig'iqlik, allomalik, oshiqlik, oddiylik, chapnilik, hazilkashlik kabi vaziyat talabi bilan o'zgarib turuvchi ruhiy holatlar uning ijtimoiy faoliyatidagi insonparvarlik va vatanparvarlik fazilatlarini bilan tabiiy uyg'unlikda jonli manzaralar vositasida mahorat bilan tasvirlanadi.

Yozuvchining o'ziga xos mahorati qahramon ijtimoiy mavqeyini uning ma'naviy-ruhiy olami badiiy manzaralari tasvirlari orqali yoritish, ko'ngil kishisining ichki ruhiy kuchini kezi kelganda sabot bilan jilovlay olishi, vaziyat talabi bilan uni jismoniy qudratga aylantira bilishi, har bir qahramonning betakror ma'naviy-ruhiy o'lchamlari borligini ifodalashida ham namoyon bo'ladi.

Asad Dilmurod tarixiy voqelikni badiiy anglash va qayta yaratishda yangicha tafakkur nuqtai nazaridan yondashadi va o'timish mafkurasi islomiy e'tiqodi tufayli uzoq yillar qalamga olishga yo'l qo'ymagan siymoning botiniy hamda zohiriy siymosini ishonarli tasvirlaydi. Natijada, dunyoviy va realistik yo'nalish doirasini ilohiylik motivlari, romantik-xayoliy hamda fantastik ruh hisobiga boyitadi hamda romanchiligimizda mavjud bo'shliqni to'ldirishga muvaffaq bo'ladi.

Roman kompozitsiyasi va arxitektonikasi har taraflama puxta ishlangan bo'lib, bo'lim va boblarning o'zaro muvofiqligi, yaxlit uzviy qurilishi ta'minlangan. Uchta hukmdor (Abulqosim Bobur, Sulton Abusaid, Husayn Boyqaro) davrida sodir bo'luvchi roman voqealari Mashhad, Hirot, Astrabod kabi shahar va uning qishlog'u kentlarida kechadi. Muallif retrospektiv syujet orqali odamlarga mehr ulashib, pirovardida o'zi ham mehr topgan, yaralmish bir banda sifatida foni dunyo sirlarini to'la anglab yetolmagan ruh kishisi ko'ngil hollarini teran anglaydi, kichik olamda suratlangan katta olamni ko'rishga, ifodalashga erishadi.

Abulqosim Bobur vafotidan keyin mamlakat taxtiga kelgan Sulton Abusaid zulmi haddan oshishi tafakkurning tushovlanishiga bois bo'lganligini tasvirlashda adib Alisher

Navoiy asarlariga tayanib ish ko'radi. Alisher Navoiyning Pahlavon Muhammad haqidagi ma'lumotlari, ayrim g'azallarining mazmuni romanga singdirib yuboriladi.

Shunga asoslanib aytish mumkinki, ulug' mutafakkir shoir asarlarida keltirilgan tarixiy qayd va rivoyatlar roman uchun epik zamin vazifasini o'taydi. Asar bayonida bir qadar sarguzasht-detektivlik xususiyati ham kuzatiladi. Navoiy va cho'ri Davlatbaxt, Navoiy va Binoiy munosabatlarida adib tariqat pirini anglashda rivoyatlar mazmunidan chiqib ketolmaydi.

Xadicha begimga bo'lgan muhabbati farzandlariga bo'lgan mehrini to'sgan, ham ruhi, ham qo'li kishanlangani bois o'z-o'zidan qochib qutula olmagan, arosat girdobida qolib, behad charchagan, otalik, oshiqlik va hukmdorlikni muvozanatga keltira olmagan, so'ngsiz iztirob girdobida umrdan nolib, dil chigalini yozmoq tilagida dardlarini mayga cho'ktirmoqni tilagan Sulton Husayn romanda ko'ngil odami sifatida ishonarli chiziladi. U o'z-o'zini uzluksiz ravishda taftish etadi, qilmishlarini izohlashga urinadi va shu jarayonda xarakteri ochila boradi.

**Xulosa va takliflar.** Adib serto'polon yurishlari shikorlar, nizoyu nifoqlardan xoli osuda olamni sog'ingan Alisher Navoiy ko'nglidagi orzu-niyatlar olamiga qaytish istagini, tabiatidagi xonaninglik va yolg'izlikka talpinish tuyg'ularini injalik bilan anglagan va ifoda etgan. Pahlavonning ma'shuqasi Zulfiyar ham ko'ngil odami sifatida idrok etiladi. U o'z baxtiyu taxtidan qoniqmay, notugal dunyoda majburiyat yuzasidan yashaydi. Bir umr oshig'ining olamiga intilib, undan ruhiy madad olib umrguzaronlik qiladi. Pahlavon Muhammad va uning shogirdlari insof va diyonatni dastur, sabru bardoshni qurol deb bilishadi, ruhiy erkinlikni ardoqlashadi. Ular bilak kuchini shuur va sezimlar kuchi bilan uyg'unlashtira oladilar. Pahlavon ko'ngil kishisi ekanligini kengroq ochishda uning ta'bi va holi poetik asoslarda kuzatilgani, tabiatida andak rindona kayfiyat-holatlar mavjudligiga e'tibor qaratilgani ham muhim rol o'ynagan.

Umuman olganda, Asad Dilmurod yaratgan Mulla Abdujabbor, Mahammad Avaz, Nazokatbonu, Mohbonu ("SHerdor"); Shamsiddin Mahbubiy, Mahmud Torobiy, Subuha, Muhiddin Kamol, Suyguna Zebo ("Mahmud Torobiy"); Yodgor valiy, Saidbek Umar, Mohina, Hazora momo, Ena Ko'kbo'ri, Chaqaloq ("Fano dashtidagi qush"); Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Sayid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad, Darvesh Muhammad ("Pahlavon Muhammad") singari obrazlar xarakteriga xos fazilatlar, ular ruhiyatida hayotiy ziddiyatlar bilan uyg'unlikda kechadigan tebranishlar muhim estetik ahamiyat kasb etadi va o'quvchini rom eta oladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Қозоқбой Йўлдошев. Модерн йўналиш белгилари. Ёник сўз. Янги аср авлоди. Т., 2006, 169-б.
2. Дилмурод А. Осмоннинг бир парчаси. Ёш гвардия. – Тошкент, 1978; Дилмурод А. Сирли зина. Ёш гвардия. – Тошкент, 1981; Дилмурод А. Тоғлар сукут сақламанг. Ёш гвардия. – Тошкент, 1987; Дилмурод А. Кўчки. Ёзувчи. – Тошкент, 1991; Дилмурод А. Танланган асарлар 2-жилд. ШАРҚ – Тошкент, 2012; Дилмурод А. Оқ аждар сайёраси. Ўзбекистон НМИУ. – Тошкент, 2012; Дилмурод А. Хаёл чўғланиши. Янги аср авлоди. – Тошкент, 2015; Дилмурод А. Пахлавон Муҳаммад. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2016; Дилмурод А. Хилват. Янги аср авлоди. – Тошкент, 2017 ва б.
3. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/asad-dilmurod/asad-dilmurod-sherdor-issa/>
4. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/asad-dilmurod/asad-dilmurod-mulk-issa/>; <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/asad-dilmurod/asad-dilmurod-giri-issa/>
5. Асад Дилмурод. Махмуд Торобий. Тарихий роман. – Тошкент, "Шарқ", 1998.
6. Асад Дилмурод. Пахлавон Муҳаммад. Роман. Тошкент, "Шарқ", 2006.



UDK:808.5

*Xilola ZAKIROVA,*  
*Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsenti*  
*E-mail: kh\_zakirova@gmail.com*

*TAQU professori M.B.Niyazova taqrizi asosida*

### SHAHAR DISKURSIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada diskurs tahlil tushunchasining tilshunoslikda qo'llanilishi va uning kelib chiqish tarixi jahon tilshunosligida diskurs tahlil tushunchasi borasidagi qarashlar va ularning mohiyati, uning lingvokulturologik talqini lingvokulturologiyaning bevosita diskurs bilan bog'liq jihati, diskurs ham boshqa til birliklari qatorida bu sohaning tadqiq obyektlaridan biri hisoblanishi haqida yoritilgan. G'arbda shahar diskursi, biografik hamda madaniy begonalik kabi madaniy tushunchalar yoritilgan. Shu sababdan muloqot analizi, shaxslararo munosabatlar, ulardagi lingvomadaniy xususiyatlar kabi yirik sohalarni o'rganish bejiz yemas.

**Kalit so'zlar:** Shahar diskursi, shaxslararo, lingvomadaniy, intent analiz, urbanizatsiya, madaniy begonalik.

### LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF INTERPERSONAL RELATIONS IN URBAN DISCOURSE

Annotation

This article highlights the use of the concept of discourse analysis in linguistics and the history of its origin, views on the concept of discourse analysis in world linguistics and their essence, its linguocultural interpretation, the aspect of linguoculture directly related to discourse. The fact is described that discourse is one of the objects of research in this area among other linguistic units. In the West, cultural concepts such as urban discourse, biographical and cultural alienation are highlighted. For this reason, it is not for nothing that such large areas as communication analysis, interpersonal relationships, linguistic and cultural characteristics are studied in them, as well as its linguocultural interpretation. For this reason, it is not for nothing that such large areas as communication analysis, interpersonal relationships, linguistic and cultural characteristics are studied in them.

**Key words:** Urban discourse, interpersonal, linguistic and cultural, intent analysis, urbanization, cultural alienation.

### ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕЖПЕРСОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ГОРОДСКОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются использование понятия дискурс-анализ в лингвистике и история его возникновения, взгляды на понятие дискурс-анализа в мировой лингвистике и их сущность, его лингвокультурологическая интерпретация, аспект лингвокультуры, непосредственно связанный с дискурсом. Описан тот факт, что дискурс является одним из объектов исследования данной области среди других языковых единиц. На Западе выделяются такие культурные концепции, как городской дискурс, биографическое и культурное отчуждение. По этой причине не зря в них изучаются такие большие направления, как анализ общения, межличностные отношения, языковые и культурные особенности.

**Ключевые слова:** Городской дискурс, межличностный, лингвокультурный, интенционный анализ, урбанизация, культурное отчуждение.

**Kirish.** Inson kundalik hayotida turli insonlarni uchratadi, ixtiyoriy-majburiy muloqotga kiradi. Har kuni har birimiz kundalik nutqning ishtirokchisi sifatida harakat qilamiz: uyda va ko'chada, ziyofatda, transportda va do'konda suhbatlar. Bu yerda oila, do'stlar, notanish odamlar bilan suhbatlar, jamoat joylarida insonlarning birlamchi va ikkilamchi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holatdagi muloqot qilish uchun real vaziyatlar ya'ni sof pragmatik suhbatlar mavjud. Bunga joriy faoliyatga hamroh bo'ladigan bir bo'g'inli so'zlarning tez almashinuvi va mazmuni amalga oshirilayotgan faoliyat va atrofdagi vaziyat bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin bo'lgan uzoq suhbatlar kiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kundalik nutqning dialog shakllari ustunlik qilishi bilan bir qatorda, kundalik yozishmalarining turli shakllari ham tez-tez uchrab turadi: oilaga eslatmalar, SMS xabarlar, telefon raqam qoldirish va boshqalar. Aynan kundalik nutq nutqning asosiy, genetik va tarixiy jihatdan original shakli hisoblanadi.

Hayotning birinchi yillaridan boshlab, birinchi so'zlarni o'zlashtirgandan so'ng, inson hayotining oxirigacha kundalik nutqning ishtirokchisi bo'lib qoladi. Shu sababdan

muloqot analizi, shaxslararo munosabatlar, ulardagi lingvomadaniy xususiyatlar kabi yirik sohalarni o'rganish bejiz yemas.

Hozirgi kunda, metropolda yashovchi inson uydan chiqib, bevosita ko'plab shahar ma'lumotlariga duch keladi, begonalar bilan muloqotga kirishadi. Shahar aholisining kundalik hayoti ikki turdagi shahar maydonida - tashqi shahar muhitining ochiq maydonida (ko'chalar, maydonlar, turar-joy binolari hovlilari, bog'lar, stadionlar, transport va boshqalar) va turli xil o'z ichki maydoniga yega bo'lgan funktsional maqsadli shahar ob'ektlarida (do'konlar, vokzallar, teatrlar, banklar, klinikalar va boshqalar) sodir bo'ladi. Tadqiqotda asosiy e'tibor metropolning har ikki shahar muhitining diskursiv maydoniga qaratildi.

Diskurs haqida so'z borar ekan, shuni ta'kidlash joizki bu atama zamonaviy tilshunoslikda keng qo'llanilmoqda. Ilk bor diskurs tushunchasi va uning ahamiyati bilan shugullana boshlagan antropolog Dell Humes diskurs tushunchasini lingvistik atama sifatida tilshunoslik sohasiga olib kirgan. Dellning fikriga kora diskurs bu faqatgina muloqotdir, yani kishilarning ogzaki nutqda bir-birlari bilan muloqotga

kirishishidir, biroq diskurs muloqotgina bo'lib qolmay, balki matn bilan ham o'zaro uyg'unlikda sodir bo'ladigan jarayon ekanligini hisobga olish kerak.

Tilshunoslikda "diskurs" atamasi birinchi marta amerikalik olim Z.Xarris tomonidan 1952-yilda chop etilgan "Diskurs tahlili" maqolasida qo'llanilgan. Ushbu maqolada u matn nima ekanligini qanday aniqlash mumkinligi haqidagi savolni ko'tardi. Z.Xarris tilda sintaksisdan bir pog'ona yuqori bo'lgan tizim mavjudligini, matn tushunchasi ham shu tizimga mansub, degan fikrni ilgari surgan. Uning fikricha, diskurs tahlili, tilning strukturasi, gapdan ko'ra kengroq elementlarda ko'rib chiqadi. U nutqni "muayyan vaziyatda bir (yoki bir nechta) shaxs tomonidan yozilgan yoki aytilgan bayonotlar ketma-ketligi" deb ta'riflagan.

Diskursiv tahlil alohida fan sohasiga aylanishi o'tgan asrning 70-yillariga tog'ri keladi. N.Artyunova ta'kidlashicha: "Diskurs -bu ekstralingvistik-pragmatik, sotsial-madaniy, psixologik omillar bilan birgalikdagi izchil matn hisoblanib maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq, odamlarning o'zaro ta'siri va ularning ongi mexanizmlari (kognitiv jarayonlar)da ishtirok etuvchi komponent sifatida qaraladi. Shu sababli "diskurs" atamasi, "matn" atamasidan farqli o'laroq, hayot bilan aloqasi tiklanmagan qadimiy va boshqa matnlarga qo'llanilmaydi"[1].

Y.S.Stepanov diskursni quyidagicha ta'riflaydi: Diskurs – bu "tilda til" [2], lekin maxsus ijtimoiy shaklda berilgan. Diskurs, haqiqatan ham, tilda bo'lgani kabi, uning "grammatikasi" va "leksikoni" ko'rinishida ham mavjud emas.

Har qanday diskursning o'ziga xos sinonim almashtirish qoidalari, o'z haqiqat qoidalari, o'z odobi bor. Tilshunoslikda u, dastlab, gap yoki nutqda bog'langan va kelishilgan oqibat sifatida tushunilgan bo'lsa, zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida izohlanmoqda. Tilni pragmatik nuqtai nazardan tadqiq yetishga bag'ishlangan ishlarda diskurs atamasi sakkiz xil ma'noda qo'llangan:

- 1) so'z muqobili;
- 2) frazalardan o'lchami bo'yicha ortadigan birlik;
- 3) nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatga ta'siri;
- 4) suhbat, nutqda so'zlovchi pozitsiyasi;
- 6) lisoniy birliklardan foydalanish;
- 7) fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi;
- 8) matn hosil bo'lish shartlarini tadqiq yetishga

mo'ljallangan nazariy qurilmalar [1].

Golland tilshunosi T.A.van Deyk diskursni bir nechta bosqichda nazar solishni taklif qiladi [2]. U keng ma'noda diskursga majmuaviy kommunikativ hodisa, tor ma'noda yesa kommunikativ faoliyatning yozma yoki nutqiy muloqot mahsuloti sifatida qarash kerakligini ta'kidlab o'tadi. T.A.van Deyk diskurs va matn o'rtasidagi farqni shunday belgilaydi: diskurs – aktual aytilgan matn, ya'ni faol nutqiy harakat, matn yesa til tizimiga yoki shakliy lisoniy bilimlarga tegishli fikrlarning mavhum grammatik tuzilishidir.

"Diskurs" tushunchasining ta'rifi o'rganilayotgan hodisa tilshunoslik, antropologiya, adabiyotshunoslik, etnografiya, sotsiologiya, sotsiolingvistika, falsafa, psixolingvistika, kognitiv psixologiya va boshqalar kabi bir qator ilmiy fanlarning birlashmasida bo'lganligi sababli sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shunga qaramay, turli sohalaridagi zamonaviy olimlarning sa'y-harakatlari tufayli diskurs nazariyasi hozirgi kunda zamonaviy ilm-fan rivojida integratsiyalashuvning umumiy tendentsiyasini aks ettiruvchi mustaqil fanlararo soha sifatida shakllanmoqda, bu diskursni chuqurroq va kengroq o'rganishga va uning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

**Tahlil va natijalar.** Diskurs – suhbat turi. Diskurs janr kabidir. Nutqiy janr – tipik tuzilishi, lingvistik vositalardan foydalanishning o'ziga xosligi, aniq adresat,

o'ziga xos kommunikativ maqsad va informativlik, imperativlik, yetiketlik kabi jihatlar bilan ajralib turuvchi nutq turi hisoblanadi.

Diskurs nafaqat og'zaki, balki yozma diskurs ham mavjud bo'lib, milliy tip doirasida diskursning adabiy va badiiy turini tanlash ham bunga yaqqol namuna bo'ladi. Shu munosabat bilan, diskursiv amaliyotda (keng ma'noda nutq) muloqotning kommunikativ, interaktiv va perseptiv tomonlari namoyon bo'ladi, deb taxmin qilish mumkin: ma'lumot va ma'lum bilimlarni uzatish (muloqot), nutq sheriklarining ma'lum bir ijtimoiy-madaniy aloqasi sifatida qo'llaniladi. Nutq madaniy hodisa sifatida, birinchi navbatda, axloqiy, utilitar va yestetik jihatlarda milliy madaniyatning qadriyat dominantlarini aks yettiruvchi, o'ziga xos xususiyatlarining yig'indisida tavsiflanadi.

Matnlarni talqin qilish o'quvchining madaniyatshunoslik malakasini, milliy madaniy qadriyatlar va ustuvorliklarni bilishini talab qiladi. Lingvistik madaniyatdagi madaniy ma'lumotlar – ma'lum bir madaniyatga xos hodisalar: voqealiklar, taniqli shaxslar, tarixiy voqealar, shuningdek, afsonalar, tasvirlar, e'tiqodlar, urf-odatlar, urfodatlar va boshqalar.

Bilamizki, Lingvokulturologiya - til-shunoslikning til, madaniyat, xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lish xususiyatlarini aks ettiruvchi, o'rganuvchi fan. Til birliklarining lingvokulturologik tahlili tilshunoslik va madaniy hamjamiyatning o'ziga xos xususiyatlari, milliy-madaniy xarakteristikani tavsiflaydi, kommunikativ toifa, milliy madaniyat tushunchasining ahamiyatini tushuntiradi [7].

Lingvokulturologiyaning asosiy vazifasi ma'lum bir lingvokulturologik doiraning muloqot makonining madaniy kelib chiqishi, diskurs va til, shuningdek, lisoniy birlikning madaniy belgilar terminlari interpretatsiyasi, xalqning tarixiy xotirasi prizmasidan kelib chiqqan holda tavsiflashdan iborat [5]. Shu jihatdan olib qaraganimizda, diskursni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish matnning lingvokulturologik maydonini tashkil etuvchi lingvokulturologik birliklar tizimini aniqlashni, matnning mazmuniy-tematik dominantlari sifatida madaniy tushunchalarni o'rganishni, nutqni individual – muallifning tilshunosligi sifatida ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

"Madaniy ahamiyatga ega so'z boyligi, –deb to'g'ri yozadi O.S.Chesnokova, – o'ziga xos konseptual va konnotativ yukka ega. Boshqacha qilib aytganda, tabiatan bunday so'zlarqimmatlimalumotombori, ammo tayyor bo'lmagan odam uchun, agar siz ularning ma'nosinitushunmasangiz, tushunishga jiddiy to'sqinlik qilishi mumkin. Bunday asarlar tabiatan qo'llaniladi, chunki ulardagi ma'lumotlar keyinchalik hayotda(ishda,sayohatda va hokazo) foydalanish uchun berilgan. Badiiy adabiyot, bundaestetikfunksiya axborotdan ustun bo'lsa-da, xuddi shunday rolni bajarishi va xalqtarixi,madaniyati va kundalik hayoti haqida ekstralingvistik bilim manbayi bo'lishim mumkin.

Lingvokulturologiyaning bevosita diskurs bilan bog'liq jihatiga kelsak, shuni aytish lozimki, diskurs ham boshqa til birliklari qatorida bu sohaning tadqiq obyektlaridan biri hisoblanadi. "Lingvokulturologiya" kitobining muallifi V.A.Maslova bu borada quyidagicha yozadi: "Matn tilshunoslik va madaniyatning haqiqiy kesishuv nuqtasidir. Zero, diskurs til hodisasi va uning oliy sathi hisoblanadi, shu bilan birga, u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir" [5].

**Muhokama.** Shahar diskursida jamiyat manfaatlarini ifodalanganligi, bizga aholining ehtiyojlarini tushunish va hukumatning shaharga bo'lgan qarashlarini aniqlash imkonini beradi. Shaharning jamiyat vakillari turli institutsional tashkilotlarda faoliyat olib borayotgani sababli, ularda shahar talqini ham turlicha bo'ladi.

Shahar diskursida bu konstruksiyalarni urbanemalar deb atash maqsadga muvofiqdir. Shahar urbanemalarining institutsional muhit elementlari bilan nomuvofiqligi, ba'zi shaharlarni ulkan metropolitenga aylantirishiga, ba'zilarini esa muqarrar ravishda yo'q bo'lib ketishiga, buning natijasida shahar uyg'unligining yo'qolishiga olib keladi.

G'arbda begona odamlarning g'amxo'rlik ehtiyojlariga shahar diskursida berilayotgan javoblari orqali odamlarning xatti-harakati jismoniy yaqinlik va ijtimoiy o'zaro ta'sirni minimallashtirish intensiyasi mavjudligini guvohiga aylanishimiz mumkin. Bu mavzu klassik G'arb shahar sotsiologlari tomonidan ilgari surilgan.

Tonnies, Simmel va Wirth shahar hayotini individuallashtirish va sanoatlashtirish kabi modernizatsiya jarayonlarini aks ettiruvchi ijtimoiylikning yangi va o'ziga xos shakli sifatida tasvirladilar.

Yangi ijtimoiy tuzilmalar (Tonnie, 1957 [1887]), ortiqcha hissiy ma'lumotlar (sezuvchanlik) (Simmel, 1971 [1903]) va qo'shni aholi zichligi (Wirth, 1938) natijasida odamlar jamoat joylarida hissiy jihatdan yopiq bo'lib qolishdi,

atrofdagilar bilan imkon qadar kamroq aralashishga harakat qila boshlashdi.

Natijada, aholi jamoat joylarida bir-birlariga aralashmaydigan va boshqalardan ham shunday qilishlarini kutadigan bo'lib qolishdi. Bunday fikr yuritish uzoq vaqtdan beri urbanizmning umumiy tavsifi sifatida qaralgan.

**Xulosa.** Olimlarning keyingi avlodlari shahar hayotidagi guruhlar va guruhlararo ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi farqni kengaytirdilar. Klassik sotsiologlar, Simmel dan tashqari, bir-birini shaxsan tanimaslikning taxminiy umumlashtirilgan holatiga e'tibor qaratgan bo'lsalar («biografik begonalik», Lofland, 1998: 7–8), ularning davomchilari shaharlardagi ijtimoiy bo'linishlarning etnik kelib chiqishi va sinfi kabi rolga e'tibor qaratishgan (Allport, 1954; Valentin, 2008; Vang va boshqalar, 2020; Wessendorf, 2014).

Shu nuqtai nazardan, aloqa qilmaslik "madaniy begonalik" dan dalolat beradi (Lofland, 1998: 7-8), chunki shaharliklar boshqa madaniy guruhga mansub bo'lgan "begona" deb qabul qilingan odamlar bilan ko'proq tanish bo'lgan odamlar bilan va kamroq aloqada bo'lishadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Арутюнова Н. Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь; гл. ред. В. Н. Ярцева. – М. : Сов. Энциклопедия, 1990.
2. Абдуназарова Н. “Дискурс”ни изохлашга бўлган турлича ёндашувлар. Academic research in educational sciences. 2021, №4
3. Борботько В.Г. Элементы теории дискурса. - Грозный: Изд-во Чечено-Ингуш.гос.ун-та,1981 4. Карасик В.И. О типах дискурса. Языковая личность: институциональный и персональный дискурс.- В., 2000.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология.–М.: 2001
5. Соболева Е. Проблемы прагматики англоязычного художественного текста // Известия ПГПУ. 2008.
6. Газизов Р. А., Мурашов Р. З. Лингвокультурология и современная лексикография. 2016.. № 2.



**Robiya INOG‘OMJONOVA,**  
Toshkent davlat transport universiteti talabasi  
E-mail: inogomjonovarobiya@gmail.com

TDTTrU professori I.Rustamov taqrizi asosida

### ANALYSIS OF LINGUISTIC TRANSFORMATIONS IN THE WORK OF "AMERICAN TRAGEDY" BY THEODORE DREASER

Annotation

This study explores the differences that have emerged in the translation of the above article from English to Uzbek, as well as linguistic changes and the theories of several scholars: V.N. Komissarov and L.S.Barhudarov. Additionally, it examines the brief content and nature of the article, the processes involved in translating literary texts into Uzbek, and the similarities and differences in meanings of interlingual expressions. The article emphasizes the importance of investigating and deeply understanding the linguistic features in literary texts in English and Uzbek.

**Key words:** Literary text, linguistic transformation, translation types, equivalent, compression, interference.

### АНАЛИЗ ЯЗЫКОВЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «АМЕРИКАНСКОЙ ТРАГЕДИИ» ТЕОДОРА ДРИЗЕРА

Аннотация

В данном исследовании рассматриваются различия, возникшие при переводе вышеуказанной статьи с английского на узбекский язык, а также лингвистические изменения и теории нескольких ученых: В.Н. Комиссарова и Л.С. Бархударова. Кроме того, исследуется краткое содержание и характер статьи, процессы перевода литературных текстов на узбекский язык, а также сходства и различия в значениях межъязыковых выражений. Статья подчеркивает важность изучения и глубокого понимания лингвистических особенностей литературных текстов на английском и узбекском языках.

**Ключевые слова:** Литературный текст, лингвистическая трансформация, типы перевода, эквивалент, компрессия, интерференция.

### TEODOR DRAYZERNING "AMERIKA FOJIASI" ASARIDA YUZAGA KELGAN LINGVISTIK TRANSFORMATSIYALAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda yuqoridagi asarning ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish mobaynida vujudga kelgan bir qancha tafvutlar, tildagi o‘zgarishlar, hamda bir qancha olimlar: V.N.Komissarov va L.S.Barhudarov nazariyalari asosida talqin qilingan. Shuningdek, asarning qisqacha mazmun-mohiyati, badiiy tilga tarjima mobaynidagi jarayonlar, o‘zaro atamalarning ma’no jihatdan o‘xshashlik va farqli jihatlari haqida ham to‘xtalangan. Maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda til xususiyatlarini tadqiq etish va chuqur o‘rganish zarur ekanligini belgilaydi.

**Kalit so‘zlar:** Badiiy matn, lingvistik transformatsiya, tarjima turlari, ekvivalent, kompressiya, interferatsiya.

terminlarning tartibga keltirilishi va ularning kompleks unifikatsiyasini amalga oshirishni taqozo etdi”[2] deb to‘g‘ri ta’kidlanadi. Shu kungacha ingliz tilshunoslari va leksikograflari tomonidan bir qancha lug‘atlar yaratilishiga qaramasdan, aynan arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlarning lug‘atlarida ham bir qancha to‘g‘irlanishi lozim bo‘lgan jihatlar mavjud.

Tadqiqotimiz davomida biz ham arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlar, iboralar, ularning talqinini o‘rganishda M.Xarris tomonidan tuzilgan va nashr qilingan “Arxitektura va qurilish lug‘ati”dan (Dictionary of architecture & Construction)[3] foydalandik, shuningdek Oksford universiteti nashriyoti tomonidan ham bosma ham onlayn shaklga ega lug‘at Djeym Stiven Ko‘rl (James Stevens Curl) tomonidan yaratilgan bo‘lib “Dictionary of Architecture and Landscape Architecture”[4] lug‘ati ishlatishga qulay hamda doimiy ravishda yangilanib to‘ldirib boradigan manba hisoblanadi.

Ingliz tilidagi arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlarning taraqqiyoti va ulardagi asosiy ma’lumotlarni to‘liqroq o‘rganish uchun etimologik lug‘atlarga, jumladan Ernest Vikli tomonidan 1921 yilda yaratilgan «An Etymological Dictionary of Modern English»[5], Ernest Klayn tomonidan tuzilgan «A Comprehensive Etymological Dictionary of the English Language»[6] hamda «Barnhart Dictionary of Etymology»[7] (1988), Evropa hamjamiyati qo‘llab-quvvatlashi natijasida yaratilgan onlayn lug‘at «Etymologisches Wörterbuch der Englischen Sprache»[8]

kabilardan olingan ingliz tilidagi so'zlarning etimologik onlayn lug'atiga murojaat qildik.[9] Shuningdek, mazkur sohada o'z tadqiqot ishini olib borgan tilshunos Z.Xakieva arxitektura va qurilish sohasiga oid leksik birliklarning nafaqat kelib chiqishi, balki ularning paydo bo'lishiga ko'ra davrlarga ajratib chiqqan. Aynan mazkur tadqiqotga tayangan holda biz ham shu davrlarni o'rganib chiqish jarayonida amin bo'ldikki, har bir davrdagi termin o'sha davrda yaratilgan va saqlab qolingan inshootlarga oid bo'lib, davrlar o'tgan sari ularning matnlar va lug'atlarga kiritilishi natijasidagina bizgacha saqlab qolingan. Z.Xakievaning ta'kidlashicha, inglizxon xalqning arxitektura va qurilishga oid terminologiyaning genezisi, taraqqiyoti hamda nutqimizda saqlanib qolishi quyidagi davrlarga bo'lingan: Birinchi davr – IV asrgacha, Ikkinchi davr – VI-XI asrlar, Uchinchi davr – XII-XVII asrlar, To'rtinchi davr XVI-XIX asrlar, Beshinchi davr - XX-XXI asrlarga to'g'ri keladi.

Z.Xakieva ingliz tilidagi arxitektura va qurilish sohasiga oid terminologiyaning nafaqat davrlashtirish masalasi bilan balki, ularning boshqa jihatlarini o'rganishga ham harakat qilgan. Tilshunosning fikriga ko'ra qurilish terminologiyasining rivojlanish dinamikasidagi yana bir muhim jihat evolyutsion jarayonlarni aniqlash ekanligi ta'kidlanadi. Bunda aniqlanishicha, quyidagi semantik hodisalar sodir bo'lgan: Terminologizatsiya–31%, Transterminologizatsiya–38%, Metofozatsiya – 19%, Determinologizatsiya – 6%, Metonimizatsiya – 6%.

Endi o'zbek tili xususida so'z yuritadigan bo'lsak, o'zbek tili taraqqiyotini shu til doirasidagi termin va atamalar taraqqiyoti, rivojlanish darajasidan ayro holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Barcha sohada bo'lgani kabi arxitektura, qurilish sohasiga oid terminlar ham paydo bo'lish, shakllanish va rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Biz tadqiq markaziga olib kirmoqchi bo'lgan arxitektura va qurilish sohosi terminlari ham o'ziga xos yuzaga kelish, shakllanish va sohaviylashish tarixiga ega bo'lib, ilmiy va badiiy ruhda yozilgan klassik durdona asarlar hisoblangan Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy asarlari shu bilan bir qatorda XX asrgacha bo'lgan davrda yaratilgan qo'lyozmalarda ham qo'llanilgan o'rinlarni uchratishimiz mumkin. Quyida o'sha asarlarda qo'llanilgan atama va terminlarni misollar asosida tahlil qilishga harakat qilamiz.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kun leksikografiyasining tamal toshini qo'ygan, turkiy xalq va elatlar nutqida qo'llanilgan so'z hamda tushunchalarning mazmuni yoritilgan, XI asrning tilshunoslik, etnografiya, dialektologiya kabi sohalarning nodir ma'lumotlarni o'zida jamlagan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida o'sha davr xalqi, qardosh xalqlarning kundalik muloqotida qo'llanilgan qurilish hamda arxitektura atamalarini uchratishimiz mumkin. E'tiborli jihati shundaki bu atamalar maxsus terminologiya sifatida emas, balki o'zaro muloqotning mahsuli sifatida nutqqa olib kirilgan tushuncha sifatida tahlil qilinadi. Asarning 1-qismida keltirilgan atamalar sirasiga: yer – ba'zi lug'atlarda jër(jer) shaklida ham qo'llanilgan bo'lib, bugungi kun adabiy tilida yer, qipchoq shevasida esa jer shakli ishlatiladi; ul – devor va uylar poydevori; og' – chodir (o'tov)ning yuqori qismi bo'lgan uvuqlar, ya'ni chodirning yog'ochlari; ashu – qizil tuproq, qizil kesak; endak(o'g'uzcha) – sath, bir narsaning yuzi, ust tomoni; arquq – ustun, ikki devor yoki ustun orasiga qo'yilgan yog'och; arzutal – mo'yni to'ktirishga qo'llaniladigan aralashma. Ohak, zirnix; eshiklik – ostona va eshik uchun ishlatiladigan yog'och; o'kaklik - sandiq yasaladigan yog'och; o'kaklik tam – ustiga qubbalar ishlangan devor; irnaldi – arralandi. Jig'ach irnaldi –yog'och arralandi; temo'r – temir; baliq (arg'ucha, o'g'uzcha) – loy. Bu atamaning titik variant ham bor; siruq – chodirning ustuni; kerimi – ziynat uchun devorlarga tutiladigan narsa, kirpech; kerago' – chodir. Turkmanlar chodir deb, ko'chmanchi aholi

esa qishki uy deb atashgan; qisg'ach – qisqich, ombir; kerpich – kirpich, g'isht. Bishiq kirpich – pishiq g'isht; tubraq – tuproq; ev – uy; irpadi – arraladi; qum(chigilcha) – qum; qabug' – eshik; bechko'm – uyning shipi; bag'ram qum – elangan qum. Mayin qum. Qashqar bilan O'rkent o'rtasidagi qumlikka Bag'ram qum deyiladi. qarshi – shoh qasri. Shu bilan bir qatorda qarshi, teskari ma'nolarni ham anglatgan. qapg'a – qopqa, darvoza kabilardir.

Lug'atning 1- qismidagi termin hamda atamalarining aksariyati turkiy qabila va urug'lar tilida ishlatilgan bo'lsa-da, bugungi kun muloqot leksikasi uchun deyarli tushunarsiz holatga kelgan. Hozirgi leksik fondga saqlanib qolganlari ham fonetik o'zgarish asosida iste'molga qabul qilingan.

"Devonu lug'otit turk" ning 2-qismida qo'llanilgan atamalar asosan harakat ma'nosini ifodalovchi leksik birliklar bo'lib, unda fe'llarning turlari hamda yasalishi haqida mukammal ma'lumot berilgan. Shu jihati bilan ham qolgan ikki qismdan ajralib turadi. Quyida devonda qo'llanilgan arxitektura hamda qurilish sohasiga oid terminlarga: Ko'rgak – kemachalarning eshaklari. Shu bilan bir qatorda belkurak ma'nosini ham anglatadi. Qazlindi – qazildi. Jer qazlindi – er qazildi. To'zlo'ndi, to'zo'ldi, to'zdi – tekislandi (erga nisbatan). Bu atamaning to'g'rilandi, to'g'ri bo'ldi kabi ma'nolari ham mavjud. To'rpo'ldi – to'g'ri bo'ldi. Jig'ach to'rpo'ldi – yog'och randalanib tekislandi. Kertishdi – kertishdi (yog'ochga nisbatan). Bu atamaning bahslashdi ma'nosi ham muloqotda qo'llanilgan. Bug'rushdi – kesishdi (yog'ochga nisbatan); Kesto'rdi – orttirma nisbat shaklidagi fe'l bo'lib, kestirdi(kesmoq) ma'nosini anlatadi. Bu fe'l kesmoq fe'li bilan qo'llaniluvchi barcha ismlar uchun aynan shu ma'noga ega. Qazturdi – qazimoq fe'lining orttirma nisbatda qo'llanilgan shakli bo'lib, ariq qazdirdi, chuqur qazdirdi, o'ra qazdirdi kabi qoliplarda qo'llaniladi. Asarda XI asrda bu fe'lning qazildi variant ham qo'llanilganligi keltirib o'tiladi. Bu fe'lning qazdi, kezdi variantlarini ham lug'atda uchratishimiz mumkin. Tuzg'urdi – o'zlik nisbatidagi bu fe'l turg'izdi, tikladi, qurdi ma'nolarini izohlagan. Bu atama uy va shunga yaqin bo'lgan qurilish inshootlarini qurish ma'nosida qo'llanilgan. Telto'rdi – teshtirdi. Bu fe'l termin tom, devorni teshtirdi ma'nolarida qo'llanilgan. Bichturdi – kestirdi (yog'ochga nisbatan); bezandi- insonga nisbatan o'ziga o'ziga oro berdi, yasandi ma'nosida hamda uy yoki shunga o'xshash inshootlarga nisbatan ko'rkamlandi, bezatildi ma'nolarida qo'llanilgan. Chapildi – chapildi, suvaldi ma'nolarini anglatib uyga nisbatan uyning suyuq loy bilan suvab chiqilishi nazarda tutilgan. Bugungi kunda ayrim shevalarda bu so'z chaplandi shaklida ham qo'llaniladi. Teldi, telishdi – teshdi, teshishdi (devorga nisbatan); teldi fe'li chorvachilikda qo'zichoqni emizish uchun sovluqqa qo'shdi ma'nosida ham qo'llanilganlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rishimiz mumkinki, qurilish va arxitektura sohasiga oid bo'lgan harakat ma'nolarini ifodalovchi fe'llarning aksariyati asarda fe'lning noaniq shakli (-moq)da emas, balki ma'lum nisbat shakllarida ifoda etilgan. Bu jihat shundan dalolat beradiki, Mahmud Qoshg'ariy atamalarini xalq tilida qanday eshitgan bo'lsa, ana shu shaklda lug'at tarkibiga kirgizib ketavergan.

**Muhokama.** Ta'kidlaganimizdek, har bir davrning ijtimoiy, siyosiy hayoti, albatta, uning leksikasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Bu holatni yuqorida keltirilgan ma'nosi va qo'llanilish shakli izohlangan lug'atda ham ko'rish mumkin. Ya'ni XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xalq hayoti, turmush tarzida qo'llanilgan so'zlarning o'zbekcha yoki turkiycha muqobili bo'lishiga qaramay, rus tilidagi varianti faol qo'llanilgan. Bu holatdan o'sha davr rus sovetining nafaqat siyosiy jihatdan, balki tilimizga ham o'z hukmini o'tkaza olganini ko'rishimiz mumkin.

Turli davrda o'ritilgan va tarjima mazmuni izohlangan lug'atlardan ham ko'rishimiz mumkinki, so'zlar hamda



tushunchalar XXI asr leksikasiga davrlar yaqinlashishi bilan shakliy jihatdan bir xillikni yoki o'xshashlikni namoyon qilib borgan. Masalan, "Devonu lug'otit turk" da qo'llanilgan sandiq ma'nosini bildiruvchi yo'dro'k termini bugungi kun terminologiyasi uchun tamoman begona. Olim Usmonov, Shafik Hamidovlar lug'atida qo'llanilgan Kompas termini bugungi kun leksikasi uchun ham begona emas. Lekin bu istiloh Navoiy asarlarida qiblanamo shaklida ifoda etiladi. Bu holatni lug'atlarda qaysi davr leksik fondi qamrab olinganligi nuqtai nazaridan izohlash mumkin. Shunday bo'lishiga qaramay asrlar osha bir xil yoki ayrim tovush o'zgarishi orqali etib kelgan leksik birliklar ham ko'zga tashlandi. Ya'ni "yer" leksemasi XI asrdan shu kunga qadar aynan shu atama bilan qo'llanilib kelmoqda. XV asrdan qo'llanila boshlagan "tom" (uyning tomi) atamasi haqida ham ayna shu fikrni bildirish mumkin.

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, arxitektura va qurilish sohasiga oid bo'lgan terminologik tizim

boshqa yo'nalishlar terminologiyasi kabi davrlar o'tishi bilan takomillashib, zamon bilan hamnafas holda yangidan-yangi leksik birliklarning qabul qilinish jarayonini boshdan kechirdi. Tarixiylik jihatdan o'rganish shundan guvohlik beradiki, XI asrdan XX asr boshigacha bo'lgan davrda qo'llanilgan leksika asosan so'g'diycha, mo'g'ulcha, arabcha, forscha va rus tiliga oid bo'lgan so'zlardan tashkil topgan. "Devonu lug'otit turk", "Tarjumon", "Navoiy asarlari lug'ati" hamda "O'zbek tili leksikasi tarixidan materiallar (XIX asrning oxiri—XX asrning boshlari)" asarlarida qurilish hamda arxitektura sohasida qo'llaniluvchi terminlar bugungi kun shu soha terminologiyasi kabi mukammallikka erishmagan holda, ya'ni sodda, kunlik turmushda ham keng qo'llaniluvchi atama va terminlardan iborat bo'lganligi aniqlandi. Bu holat o'sha davr aholi turmush tarzi taraqqiyot darajasiga mos bo'lganligidan dalolat beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Стаматиаду Э. Лексико-семантические, структурные и функциональные особенности архитектурной лексики: на материале английского, немецкого, греческого и русского языков. Дисс. ... канд.филол.наук Россия. 2010, стр. 7.
2. Миронова Е.Е. Сопоставительный системный анализ английской и русской лексики: на материале лексики архитектурных конструкций. Дисс. ... канд.филол.наук Россия. 2001. Стр 8.
3. Weekly E. An Etymological Dictionary of Modern English. London 1921. 864 pages.
4. Klein E. A Comprehensive Etymological Dictionary of the English Language. Amsterdam. London. New York. 1966. 903 pages.
5. Barnhart R. The Barnhart Dictionary of Etymology. USA, 1988. 1326 pages.
6. Хакиева З.У. Англоязычная терминология строительства и строительных технологий: структура, семантика и динамика развития. Дисс. ... канд.филол.наук. 2013. Стр 186.
7. Муталлибов С.М. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони /Девону луғотит турк/. Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов С.М. - 1.1,-т.: ЎзССР ФА, 1960. - 499 с.
8. Нашрга тайёрловчи Юнусов А. „Таржумон" - XIV аср ёзма обидаси. Тошкент: Ўзбекистон ССР «Фан» нашриёти, 1980. – 128 с.
9. Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
10. Умаров Э.А., Эски ўзбек луғатлари. – Тошкент: Фан, 1992.



*Nilufar QAYUMOVA,*  
*Andijon davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi*

*F.f.f.d., dots. D.Satimova taqrizi asosida*

### THEORETICAL DIFFERENCES AND PRINCIPLES OF TEXT AND DISCOURSE, MEDIA TEXT AND MEDIA DISCOURSE CONCEPTS

Annotation

This article conducts a thorough analysis of the differences and interconnections between the concepts of text and discourse, as well as media text and media discourse, from linguistic and mediallyinguistic perspectives. Research by Uzbek and international scholars on the linguistic characteristics of media texts, their role in society, and their significance in disseminating information is examined. Additionally, the study focuses on the reasons behind the reflection of national-cultural elements in media texts, including cultural uniqueness, sense of humor, poetic rhyme, and metaphorical-symbolic meaning.

**Key words:** Media discourse, mediallyinguistics, psycholinguistics, sociolinguistics, ontolinguistics, symmetric, orthogonal.

### ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ РАЗЛИЧИЯ И ПРИНЦИПЫ ПОНЯТИЙ ТЕКСТА И ДИСКУРСА, МЕДИАТЕКСТА И МЕДИАДИСКУРСА

Аннотация

В статье проводится глубокий анализ различий и взаимосвязей между понятиями текста и дискурса, а также медиатекста и медиадискурса с лингвистической и медиалингвистической точек зрения. Рассматриваются исследования узбекских и международных ученых о лингвистических характеристиках медиатекстов, их роли в обществе и значении в распространении информации. Кроме того, в исследовании уделяется внимание причинам отражения национально-культурных элементов в медиатекстах, включая культурную уникальность, чувство юмора, поэтическую рифму и метафорически-символическое значение.

**Ключевые слова:** Медиадискурс, медиалингвистика, психолингвистика, социолингвистика, онтолингвистика, симметричный, ортогональный.

### MATN VA DISKURS, MEDIAMATN VA MEDIADISKURS TUSHUNCHALARINING NAZARIY FARQLARI VA TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada matn va diskurs, shuningdek, mediamatn va mediadiskurs tushunchalarining lingvistik va mediatilshunoslik nuqtai nazaridan farqlari va ularning bir-biriga bog‘liq tomonlari chuqur tahlil qilinadi. O‘zbek va xorijiy olimlarning bu boradagi tadqiqotlari, mediamatnlarning lingvistik xususiyatlari, ularning jamiyatdagi o‘rni va axborot tarqatishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tadqiqotda mediamatnlarda milliy-madaniy elementlarni aks ettirishning sabablari, jumladan madaniy o‘ziga xoslik, yumor tuyg‘usi, she‘riy qofiya, majoziy-ramziy ma‘no kabi jihatlar e‘tibor qaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** Mediadiskurs, mediallyingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, ontolingvistika, simmetrik, ortogonal.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslik sohasida mediamatnlar juda muhim bir o‘ringa ega, chunki ular nafaqat til va kommunikatsiya nazariyasining asosiy qismi sifatida, balki shuningdek, jamiyatda axborotning tarqalishi va qabul qilinishi jarayonlarini o‘rganishda asosiy vosita hisoblanadi. XXI asrning axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrida mediamatnlar turli shakl va formatlarda paydo bo‘ladi: matbuot maqolalari, televidenie va radio dasturlari, internet sahifalari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** T.A.Van Deyk [17], M. McLuhan [8], V.G.Borbotko [2], Yu.V.Shemelina [16], T.G.Dobrosklonskaya [4], A.V.Fyodorov [13], Yu.N.Karaulov [6], V.Z.Demyankov [3], V.E.Chernyavskaya [14], E.I.Sheygal [15], E.A.Uvarova [12], E.D.Isayeva [5], N.X.Yahyayeva [18], G.X.Boqiyeva [1], D.M.Teshaboyeva [11], M.K. Sabirova [10] kabi tadqiqotchilarning ishlari shu sohada asosiy manbalar sifatida qaraladi. Ular mediamatnlarning turli turlarini va ularning jamiyatdagi rolini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Bu yondashuvlar orasida diskurs tahlili, semiotika, pragmatika va kognitiv lingvistika kabi sohalar bo‘yicha ishlanmalarni o‘z ichiga oladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Asosiy metodologiya sifatida diskurs tahlili va semiotik tahlil usullari tanlangan. Diskurs tahlili mediamatnlarning qay tarzda qurilganligi va

ular orqali qanday ideologiyalar va mafkuraviy yondashuvlar ifodalanganligini ochib beradi. Semiotik tahlil esa mediamatnlardagi belgilar va ramzlar orqali yaratilgan ma‘nolarni o‘rganishga yordam beradi. Shuningdek, tadqiqotda kuzatuv va tahlil hamda hujjatli tahlil kabi an’anaviy usullar ham qo‘llaniladi.

**Tahlil va natijalar.** Ma‘lumki, kommunikativ kontekst deganda, o‘z-o‘zidan diskurs atamasi gavydalanadi. Tadqiqotlar natijasi o‘laroq, media diskurs tushunchasi tilshunoslikda dolzarb bo‘lgan diskurs atamasidan ajralib chiqqan. Ma‘lumki, zamonaviy tilshunoslikda tadqiqot ishlarining aksariyati diskursiv tahlil va uni turli tizimli tillarda chog‘ishtirma planda ko‘rib chiqishga bag‘ishlanadi. Diskurslogiya masalaning matnda qay holda aks etishi va uni boshqa qiyofada ko‘rinishini aniq va tiniq tahlil etadi. Sababi, har bir so‘z real nutqda voqealanadi va uni aynan muomala protsessida tilga o‘zlashishini kuzatish mumkin. 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlarida zamonaviy diskurs tahlilining rivojlanishi bir vaqtning o‘zida ushbu tegishli fanlarda bir necha marta tahlil etilgan va ko‘zga tashlangan. Dastlab bu o‘zgarishlar ma‘lum jihatdan avtonom bo‘lgan bo‘lsa, so‘nggi o‘n yillikda o‘zaro ta‘sir va integratsiya kuchayib bordi, bu esa matn yoki diskursshunoslikning bir necha mustaqil bo‘lgan yangi

qiyofasini keltirib chiqardi [17]. «Diskurs» atamasi tilshunoslikka polisemantik atama sifatida kirib kelgan, u qadimgi lotin tili. diskursus – mulohaza yuritish, bahsmunozara qilish, mantiqiy bilim, dastlab – aylanib yurish, shov-shuv, manevr, aylanish) kabi ma'nolarga ega, umumiy holatda nutq, lingvistik faoliyat jarayonlari va ularni nazarda tutuvchi tushunchalar tizimini anglatadi [19]. Diskurs ma'lum kommunikativ harakat va uning pragmatikasi bilan yuzaga keladi, unda hal qiluvchi jihatni tilga xos bo'lgan qurilishlardan iborat o'ziga xos lisoniy muhit tashkil etadi. Diskurs – ekstralingvistik – pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan hosil qilingan voqeiy aspektidagi bog'liq matn. Unda nutq uni hosil qiluvchilarning kognitiv jarayoni bilan bog'liq ravishda maqsadli ijtimoiy xususiyat kasb etadi [5]. Diskurs matndan sezilarli darajada farqlanadi, sababi u keng tushuncha bo'lib, nutqqa real jonli ifoda bag'ishlaydi, kommunikativlik jihatidan ustunlik qiladi, paralingvistik vositalar, ya'ni yuz ifodasi, mimika, jest, ovoznig baland-pastligi kabi harakatlarni ham o'zida muzassam etadi.

Aksariyat olimlar diskurs va matn fenomenlarini teng ko'radilar, buni chuqurroq tahlil qilsak, unda nima uchun «diskurs» atamasi paydo bo'lgan?, degan savol tug'iladi. Diskursologiya, diskurs nazariyasi, diskursiv tahlil kabi terminlarni ifoda etilishiga qanday javob izlash mumkin. Matn diskursdan ancha oldin paydo bo'lgani barchaga ma'lum, matn orqali xabar yetkaziladi, unda ma'lum bir chegara chiziqdagi borligi bilan himoyalaniadi. Masalan, V.G.Borbotko ta'kidlaganidek, diskurs – bu matn, u tilning kommunikativ birliklari – gap bilan bevosita semantik bog'liq bo'lgan kattaroq birliklardan iborat [2]. Shuningdek, olim matn doim ham bog'liq matn, ya'ni diskursni tashkil etavermaydi, degan qarashni yoqlaydi. Uning fikricha, matn – “diskurs”ga nisbatan kengroq hodisa. Diskurs doim matn bo'la oladi, ammo matn har doim ham diskurs emas. Hamma matn ham diskurs emas. Diskurs – matnning bir qismi [2], xolos, deya ta'riflaydi. T.A. Van Deyk [17] esa matn aynan diskursdan kelib chiqqanligi, uning tarkibiy sohasi ekanligiga uzil-kesil fikr bildiradi.

Mediadiskurs termini esa yuqorida e'tirof etilgan diskurs atamasidan kelib chiqqan holda - bu ommaviy kommunikatsiya sohasidagi nutq faoliyati jarayonlari va mahsulotlari, ularning o'zaro ta'sirining barcha boyligi va murakkabligidir. Bizningcha, media-diskursni tadqiq etishda media-diskurs, media matn hamda matn trilogiyasi terminlarini ajratish muhim. Ularni bir-biriga bog'liqlik tomonlari hamda ajratish mezonlari yaqqol solishtirilishi zarur. Ushbu zanjirsimon kategoriyalar aloqa modeli sifatida xabar tarqatuvchi belgisi bilan jipslashadi. Biroq, shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, matn - bu xabar, media-matn - xabar va kanal, media-diskurs esa - ekstralingvistik omillar bilan uyg'unlashgan xabar [16,8]. Media lingvistik nuqtai nazaridan, mediamatn - bu ma'lum bir media formatida aktualashtirilgan va umumiy ma'no bilan birlashtirilgan og'zaki va media darajalaridagi belgi birliklarining ketma-ket birikmasidir [4].

M. Makluenning mashhur maqolasida ham medianing ta'rifi tilga olinadi: “The medium is the message” [8]. Biroq, rus tilshunosi A.V.Fyodorov ko'pincha bu ibora rus tiliga “Media - bu xabar“ deya noto'g'ri tarjima qilinganini e'tirof etadi [13]. Uning asl tarjimasi “The New Encyclopedia Britannica” bo'yicha: medium, a substance used as a mean of transmission of force or effect [20] - kuch yoki ta'sirni o'tkazish vositasi sifatida ishlatiladigan materiya (modda). Binobarin, M.Makluen har qanday materiya (jumladan, albatta, har qanday ommaviy axborot vositalari matnlari) ma'lum subyektlar tomonidan - u yoki bu kontekstda idrok etilishi mumkin bo'lgan xabarlar ekanligi haqida ta'kidlaydi [8].

O'zbek izlanuvchilari esa «media» lotin tilidagi medium so'zidan olinganligini, «o'rta, oraliq, oraliqdagi» ma'nolarini bildirishini uqtiradilar [18]. Zamonaviy terminologiyada mazkur istiloh bir necha ma'noga ega: birinchidan, «media» so'zi OAVni: gazeta, televidenie, radio, axborot agentligi va internetni anglatadi; ikkinchidan, undan mediakontentni – yangiliklar, reklama e'lonlari, elektron o'yinlar va filmlarni – belgilash uchun foydalaniladi; uchinchidan, u mediakontentni ishlab chiqaruvchilarni, jurnalistlarni, fotosuratshilarni, mediakompaniyalarni va h.k.ni ham bildirishi mumkin [18].

Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarim yilligida matnga o'zgacha nigoh bilan qarash aynan tilshunoslardan tomonidan bahstalab muzokaraga sabab bo'ldi. Aksariyat holatlarda diskursni murakkab kommunikativ hodisa, bilimlar ierxiyasining ko'p tarmoqli tizimi, matn mutloq tushunish uchun zarur bo'lgan, unga qo'shimcha unsur sifatida mafkuraviy munosabatlar hisoblangan ekstralingvistik omillar (dunyo haqidagi bilimlar, fikrlar, munosabatlar, qabul qiluvchining maqsadlari va h.k.) ni taqdim etuvchi hodisa holatida ko'rishadi [6].

V.Z. Demyankov diskurs atamasi zamonaviy rus tilida terminologik maqomga ega emasligini, u ingliz tilidagidek речь-nutq sinfining atamasi bo'lib qolganini ta'kidlaydi [3]. Olimning chuqur tahlillariga binoan, matn va diskurs tushunchalariga metaforik oydinlik kiritiladi: Matn oddiy moddiy obyekt emas, balki talqin qilinadigan og'zaki obyekt bo'lib, uning ortidan diskurs (nutq sifatida) oqimini ko'rish mumkin. Lisoniy shaxsning faoliyati ijtimoiy soha, ya'ni diskursda so'z semantikasining boyishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Mass-media diskursida til vositalarini tanlash adresatga ta'sir etish maqsadidagi baho, qadriyatlar sistemasi bilan bog'liq [11].

Anglashiladiki, diskurs matndan farqli o'laroq, xabarni kimgadir qaratilgani, adresatning ehtiyojiga ko'ra shakllanganligi ustunlik qiladi. Bunday holatda, diskurs xabarning ma'lum qilinishiga ko'ra sharoit va vaziyatni qamrab oluvchi, matndan so'ng paydo bo'lgan holda, so'zlovchi tomonidan tilni o'zlashtirilishida butun olamni his qilib tinglovchiga kommunikativ maqsadidan kelib chiqqan murojaatdir.

T.A. Van Deykda diskursning ijtimoiy hodisa sifatida baholovchi ta'rif ham mavjud: Diskurs – bu nutqiy oqim, u doimiy harakatda, o'zida tarixiy davrning xilma-xil belgilarini, kommunikantlarning muloqot sodir bo'ladigan kommunikativ vaziyatdagi individual va sosial xususiyatlarini aks ettiradi. Diskursda umumiy, xususiy va shaxsiy madaniyat va mentalitet o'z aksini topadi [17].

Matn shaxs o'rini asosiy omillaridan biri sifatida talqin etuvchi qarashlarning kognitiv va psixolingvistik talqini diqqatga sazovordir. Kognitiv talqinda matn yaratilishiga «muallif – matn – matndan tashqaridagi voqelik» tamoyili asosida yondashilib, matnga bir vaqtning o'zida bir necha nuqtai nazar bilan qarash fikri ilgari suriladi, jumladan, so'zlovchi maqsadining ifodasi bo'lgan matn, nutq yaratilishi mahsuli bo'lgan matn, tushunish ob'yekti bo'lgan matn, tushunish mahsuli bo'lgan matn [18]. V.E. Chernyavskaya diskursni ko'p qiralli hodisa ekanligini izohlaydi: diskurs-murakkab kommunikativ-nutqiy jarayon bo'lib, u ko'plab mafkuraviy, ijtimoiy-tarixiy va boshqa omillarni o'z ichiga oladi [14]. Shu bilan birga, matn kommunikativ-kognitiv jarayon natijasida vujudga kelgan diskursning ham tarkibiy qismi ham asosiy qismidir [12]. E.S. Kubryakova matnni tugallangan tadqiqot ob'yekti sifatida, diskursni jarayondagi tadqiq tarzida ifodalaydi [7].

O'z navbatida, diskurs tipologiyasiga nazar tashlasak, uning ikki turi: yozma va og'zaki tiplari barqaror. Shuningdek, E.I. Sheygal diskursning har xil turlari mavjudligini keltiradi: iqtisodiy, ilmiy, ommaviy axborot vositalari diskursi va

boshqalar [15]. Darhaqiqat, muloqot nafaqat bir tomonlama balki inson faoliyatining mutlaqo boshqa sohalarida ham amalga oshirilishi mumkin. Shu jihatdan, ommaviy axborot vositalari diskursi hozirda keng ko'lamli, o'zida semiotik tizimlar - lingvistik, grafik, fonetik, vizual va audio belgilar ketma-ketligini mujassam etadi. Aytishimiz mumkinki, biz ushbu ta'rifni qo'llab-quvvatlaymiz: Mediadiskurs - bu ommaviy kommunikatsiya sohasidagi nutq faoliyati jarayonlari va mahsulotlari, ularning o'zaro ta'sirining barcha boyligi va murakkabligi yig'indisi [4]. T.G.Dobrosklonskaya ushbu trio terminlarga quyidagicha majoziy ta'rif beradi: matn voqelikning fotografik aksi, media-matn - bu video tasvir yoki «harakatlanuvchi tasvir - moving image» hamda media-diskurs - bu obyekt haqida to'liq va har tomonlama tasavvur beradigan gologramma tasviri [4]. Shunday ta'rifni o'zbek olimlari G.Boqiyeva va D. Teshabayevalarning tadqiqotlarida ham uchratishimiz mumkin: tilshunoslikdagi medialingvistika yo'nalishi ostida mediamatnlarni o'rganuvchi turli sohalar birlashtirildi. Ularning barchasi lisoniy va mediaviy xususiyatlarining dialektik yaxlitligini ifodalaydi va medianutqning uch miqyosida namoyon bo'ladi: so'zlardan iborat matn, videoqator yoki grafik tasvir miqyosi, ovoz jo'rliqi miqyosi (ovozli hamohanglik miqyosi) [1]. M.K. Sabirova ham yuqoridagi fikrlarni izohlaydi, mediamatn oddiy matndan farqli tarzda axborotni vizual - mediaviy vositalar ishtirokida uzatuvchi matnning alohida ko'rinishidir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har qanday matn orqali istalgan iste'molchiga ma'lumot yetkazish imkoniyati mavjud, biroq har bir mediamatn (hatto eng «ommaviy» - yangiliklar ham) yoshi, gender belgisi, dunyoqarashi, ijtimoiy kelib chiqishi, diniy mansubligi va boshqa xususiyatlariga bog'liq aniq auditoriya uchun mo'ljallangan bo'ladi [10].

Ko'plab olimlarning izlanishlari samarasi bilan quyidagi yettita asosiy tushunchalarni mediamatn uchun taklif etamiz: 1) barcha mediamatnlar maqsadli loyihalash natijasidir; 2) har bir mediamatn o'ziga xos estetik ko'rinishga

ega bo'ladi; 3) ommaviy axborot vositalari matnidagi shakl va mazmun bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir vosita turi o'ziga xos til xususiyatlariga, voqelikning ishoralari va kodlanishiga ega; 4) ommaviy axborot vositalari haqiqatni yaratadi; 5) tomoshabinlar media-matn mazmunini jinsi, irqi, yoshi, hayotiy tajribasi kabi omillar nuqtai nazaridan baholaydi; 6) ommaviy axborot vositalari ijtimoiy-siyosiy va tijoriy ahamiyatiga ega; 7) OAV mafkuraviy va qadriyatli xabarlarini o'z ichiga oladi. Aslini olganda, mediamatn ham mediadiskurs ham murakkab harakatdagi dinamik hodisa bo'lib, matn yoki diskursdan farqli o'laroq tarkibida grafik tasvir, audio yoki vizual hodisa, video voqea, xabarni yorqin tasvirlari mujassam etgan peyzaj va h.k. lar yordamida insonning olam haqidagi tasavvurini boyitishda yordam beruvchi birlik hisoblanadi.

**Xulosa.** Anglashiladiki, matn, diskurs, mediamatn va mediadiskurs tushunchalari bir-biriga bog'liq hodisalar, har birining tarkibida uzviy bog'liq xususiyatlar mavjud, masalan, agar diskursning mahsuli matn bo'lsa, mediadiskursning mahsuli mediamatndir. Mediadiskurs, umuman diskurs kabi, faqat til tizimi bilan cheklanib qolmasdan, barcha ekstralingvistik omillar bilan birgalikda media janrlarida ko'rib chiqiladi. Demak, media-diskurs media-matndan ko'ra kengroq tushuncha, u media makonning nutqiy-kognitiv faoliyati, media olamining yetakchi axborot oqimi, jamiyat va mediani umumlashtiruvchi murakkab va noyob strukturali muloqot elementi hisoblanadi. Har bir obyekt o'zining chegaralangan belgisi va ifodasiga ega bo'lganidek, oddiy matndan farqli o'laroq mediadiskursning mediaviy ifodasi, belgisi va xususiyatlari mavjud: 1) dizayn: rasm, karikatura, tipografiya, logotip va h.k. 2) audio-vizual qism 3) video tasvir 4) grafik element 5) verbal ifoda 6) kommunikativ-pragmatik munosabat 7) lisoniy-nutqiy ifodaviylik 8) mediasavodxonlik. Bularning bari mediadiskursning asl mohiyati, shakli va chegarasi bilan ajralib turuvchi omillar sifatida inobatga olinadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Медиаматн. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2019. – 171 б.
2. Борботько В.Г. Элементы теории дискурса. – Грозный: Изд-во Чечено-Ингуш. гос. ун-та, 1981. – 113 с.
3. Демьянков В. З. Текст и дискурс как термины и как слова обыденного языка. // IV Международная научная конференция «Язык, культура, общество». Москва, 2007. — С. 86-95.
4. Добросклонская Т.Г. Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ: современная английская медиаречь. – М.: 2008. – 264 с.
5. Исаева Е.Д. Понятие дискурса в современной лингвистике // <http://vii.sfu-kras.ru/info/public/vii/book/ponyatie-diskursa-v-sovremennoy-lingvistike-2009>
6. Караулов Ю. Н., Петров В. В. От грамматики текста к когнитивной теории дискурса. — М.: Прогресс, 1989. — С.5-11.
7. Кубрякова Е.С. Язык и знание. На пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
8. McLuhan M. Understanding Media. – New York: McCraw-Hill, 1964. – 396 p.
9. Milner S. J. Fanno bandire. — The University of Chicago Press and Villa I Tatti I Tatti studies. Vol. 16. No 1/2, 2013. — P. 107-152.
10. Сабирова М.К. Медиалингвистиканинг тадқиқ объекти: медиаматн ва унинг хусусиятлари // Истиклол даври ўзбек тилшунослиги, адабиётшунослиги ва фольклоршунослигининг долзарб масалалари” республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, 2021. – С. 186 – 195.
11. Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). филол. фан. док. дис. автореф... – Тошкент, 2012. – 47 б.
12. Уварова Е.А. Медиатекст и медиадискурс: к проблеме соотношения понятий. // Вестник МГОУ. Серия: Лингвистика, 2015 / № 5. – С.47-54.
13. Фёдоров А.В. Медиаобразование и медиаграмотность. – Таганрог: Изд-во Кучма, 2004. – 340 с.
14. Чернявская В.Е. От анализа текста к анализу дискурса // Текст и дискурс: традиционный и когнитивно-функциональный аспекты исследования: сборник науч. трудов. - Рязань, 2002. - С. 230–232.
15. Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса: автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Волгоград, 2000. – С. 31.
16. Шемелина Ю.В. Лингвокогнитивные аспекты английских новостных текстов (на материале британской качественной прессы): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2008. – 21 с.
17. Van.Djik. Teun A. News as discourse. – Hillsdale, New Jersey. UK: Hove and London, 1988. – 210 p.
18. Яхьяева Н.Х., Урунов Б.И. Медиаматн – ахборотнинг сифатини белгиловчи восита. // Сўз санъати халқаро журнали | Международный журнал искусство слова | International journal of word art. – Тошкент. 3-жилд. № 6, 2020. – Б. 158–164.
19. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В. Н. Ярцева. – М.: Сов. энциклопедия, 1990. — С.136.
20. The New Encyclopaedia Britannica, Vol. VI, 1984, – p. 751.



**Gulnoza QODIROVA,**  
*O‘zbekiston Respublikasi IIV Jizzax akademik litseyi*  
E-mail: [gulnozaqodirova@mail.ru](mailto:gulnozaqodirova@mail.ru)

*Filologiya fanlari doktori, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida*

## LEXICAL UNITS REPRESENTING THE NAMES OF OBJECTS IN THE "ZEVARKHAN" EPIC

Annotation

The article explains that these words used in the epic are manifested through 2 different means: lexical-semantic and morphological means. It analyzes personal meanings, words denoting gender based on kinship, popular nouns representing the names of epic heroes, as well as words representing the names of animals, birds and other creatures. In the article, the use of adverbs specific to the category of agreement and the variety of styles in the text are revealed on the basis of examples.

**Key words:** Lexical-semantic, morphological, personal names, epic, text, epic hero, vocabulary, possessive category, agreement category, style, speech.

## “ZEVARKHAN” DOSTONIDA NARSA-PREDMETNING NOMLARINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR

Annotsatsiya

Maqolada dostonida qo‘llangan mazkur so‘zlarning 2 xil vositalar: ya‘ni leksik-semantik va morfologik vositalar orqali namoyon bo‘lganligi yoritib berilgan. Unda shaxs ma‘nolari, qarindoshlik asosidagi jins bildiruvchi so‘zlar, epik qahramon ismlarini ifodalovchi atoqli otlar, shuningdek, hayvonot, parranda va boshqa jonzotlarning nomlarini ifodalovchi so‘zlar tahlilga tortilgan. Maqolada kelishik kategoriyasiga xos qo‘shimchalarning qo‘llanishi va matndagi uslub rang-barangligi misollar asosida ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Leksik-semantik, morfologik, shaxs nomlari, doston, matn, epik qahramon, lug‘at, egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, uslub, nutq.

## ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ОБОЗНАЧАЮЩИЕ НАЗВАНИЯ ПРЕДМЕТОВ В ЭПОСЕ «ЗЕВАРХАН».

Аннотация

В статье поясняется, что эти слова, используемые в эпосе, проявляются двумя разными средствами: лексико-семантическим и морфологическим. Анализируются личные значения, слова, обозначающие пол по признаку родства, народные существительные, обозначающие имена эпических героев, а также слова, обозначающие имена животных, птиц и других существ. В статье на основе примеров раскрывается употребление наречий, специфичных для категории согласия, и разнообразие стилей в тексте.

**Ключевые слова:** Лексико-семантические, морфологические, личные имена, эпос, текст, былинный герой, лексика, притяжательная категория, категория согласия, стиль, речь.

Dostonida qo‘llanilgan mazkur so‘zlar borliqdagi har qanday mavjudot kabi serqirraligi bilan ajralib turadi. Ularda moddiylik, qurilish, tarixiy-etimologik, maxsuslik, shuningdek, ma‘no, shakl, qo‘llanish, uslubiy bo‘yoq va boshqa qator xususiyatlar mavjud. Masalan, jins kategoriyasiga nazar solsak: jahon tilshunosligida biologik rod va grammatik rod kategoriyalardan bo‘lgan bu lisoniy hodisa bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligi allaqachonlar isbotlangan[2]. Doston tilida jonli predmetlarning jins kategoriyasi (“erkaklik va ayollik”)ni ifodalovchi so‘zlar ikki xil vositalar orqali namoyon bo‘lgan:

Leksik-semantik vositalar orqali.

Morfologik vositalar orqali.

Leksik-semantik vositalar lisoniy xususiyatiga ko‘ra, jins ma‘nosini ifodalovchi-atovchi so‘zlar orqali yasaladi. Ma‘no xususiyatlariga ko‘ra so‘z tarkibidagi ma‘nolar biz o‘rgangan dostonida quyidagicha zuhur bo‘lgan:

Shaxs ma‘nolari: ota (213, 184); o‘g‘il (179); qiz (157, 164, 165, 166, 190, 191, 197); juvon (171); er (179); xotin (179, 161, 180, 194); bobo (132, 133, 152); ena (196, 198); yigit (137, 149, 150); mard (131, 155, 178); kelinchak (182); kuyov (150, 151) kabilar. Doston matnidagi namuna sifatida olingan bunday tipdagi so‘zlarda ikki xil ma‘nolar mavjud: a) “erkak jinsiga mansub” ma‘nolar, b) “ayol jinsiga mansub” ma‘nolar. Bunday so‘zlar biz o‘rgangan doston matnida ikki

xil ko‘rinishda qo‘llangan: qarindoshlik va nikoh bilan bog‘liq so‘zlar. Ularni alohida-alohida ko‘rib chiqamiz:

a) qarindoshlik asosidagi jins bildiruvchi so‘zlar dostonida kam qo‘llangan. Masalan, ota, o‘g‘il, qiz, ena, momo, bobo kabilar. Ota, enam Bog‘dod elda, // Holimdan bexabar qoldi (131); Omon borib ko‘rsang otang, enangni, // Mendan salom yetkiz qarindoshing (151); Malikai Xubonning otasi zargarlarning g‘olibi edi (156); Bu to‘qayda o‘g‘il, qizlarim ko‘pdi(r) (179); Senga bu bobongni so‘zi shu bular, // Qayt, juvonmarg, senga bunda nima bor? (133); Aylabsan o‘zingni bundayin sarson, // Armon bilan o‘lib ketma, bobojon! (134) kabi.

Nikoh bilan bog‘liq atamalarning ayrimlari ham dostonida qarindoshlik bilan aloqador bo‘lgan umumiy ma‘notushunchalarni ifodalagan va ular ozchilikni tashkil etadi: er, xotin, kuyov kabilar. Arqiragan erday bo‘lib, // Yolg‘iz o‘zim sherday bo‘lib (162); Ilgarida arqiragan er edim, // Yoshim yetib endi men ham qaridim (179); Itboshining qizi bu maslahatni eshitib, borib ko‘rayin esa, deb «yoshi yuzdan oshgan kampirlarni oldiga solib, erga tegmoqchi bo‘lib, u odamzod bo‘lsa xohlaydi, deb u-buni bo‘yniga osib olib, eshak-munchoq bo‘ladigan toshlardan munchoq qilib, beli bukchaygan kampirlardan o‘ziga hamroh qilib olib, maymunlar suhbatiga kelib qoldi (180); Xotining ham qursin. Bu ko‘zikib qolsa sira omon qo‘ymaydi (161); Podshoning xotini katta odamning qizi bo‘lsin», deb Itboshining qiziga xabar

qilgan (180); Bobo Saqqo qaytadan dunyoga kelib // Yigitdek podshoga kuyov bo'lgandi (150); -Podsho kuyov qipti shunday azamat, // Qaysi yurtidan kelgan bul o'zi bekdod (151) kabi.

Yuqorida namuna sifatida berilgan so'zlar birmuncha ma'no jihatidan farqlangan: bu farq belgining me'yordan ikki pog'ona yoki bir pog'ona pastligi, me'yordaligi, me'yordan bir pog'ona yuqori ekanligida ko'zga tashlanadi.

Endi nikoh bilan bog'liq so'zlarning ma'nolariga e'tiborni qaratsak: "erkak jinsiga mansub" er, kuyov; "ayol jinsiga mansub" xotin, kelin so'zlari uchun "erkak // ayol", "mendani katta // kichik", "qarindosh // begona" ma'nolari xos. Bunday so'zlar "Zevaxxon" tilida qarindoshlarga hurmat yuzasidan va umuman, yoshi ulug'roq begona kishilarga qarata qo'llanganligini kuzatamiz.

b) murojaat ma'nosi asosida jins bildiruvchi so'zlar. Bunday tipdagi so'zlar "erkak" jinsiga mansub bek, begim, bekbachcha, vazir, buva, to'ra, qiblagoh, sardor, sarkarda, sulton, podsho, shuningdek, "ayol" jinsiga xos mehribon, sarvinoz, mohitabon kabi so'zlar ma'nosida "ayol // erkak" "mendani katta // kichik", "kuchli // kuchsiz" ma'nolari mavjud. Ammo ularda "qarindosh", "qon-qarindosh"; "bir avlod" ma'nolari yo'q. Buning sababi shundaki, qon-qarindoshlik so'zlar paradigmasida bu so'zlar shu belgilar asosida birorta so'zga zid (qarama-qarshi) qo'yilmaydi. Doston matnidani olingan misollarga e'tibor qilamiz: Zangar shaharining podshovachchalari, sarkarda, beklari cho'ldan ong otamiz, qo'lga qarchig'ay solib, o'rdak, g'oz ushlatamiz, deb ovda yurgan edi (137); Sap-sarkarda, beklar yig'ilib, davlat qushini uchirib yurgan edi (167); Birga kelgan bekbachchalar, // Ergashmang bizga munchalar (126); Karvonlarni jo'natayin bekbachcha, // Xonim, xizmat qilay senga o'lguncha (156); Quloq soling mening arzima, // Javob bering, qiblagohim, ketarman! (124); Kerakmasdur menga joyu gavharlar, // Javob bering, qiblagohim, ketarman! (125). Bu so'zlarning ma'no tarkibini quyidagicha ifodalasak bo'ladi: 1) "shaxs", 2) "erkak", 3) "mendani katta", 4) "doston tiliga xos": Titrar mening shirin jonim, // Qani mening mehribonim (130); To'rt bo'p qoldi ikki ko'zim, // Qo'ldan ketdi sarvinozim (160); Bir gazanda bo'lgan tarob, // Qaysi dushmanning qo'lida, // Mohitabonim o'pkalab (160) kabi.

Matndagi so'zlarning ma'no tarkibi quyidagicha bo'ladi:

1) "shaxs", 2) "ayol", 3) "mendani katta", 4) "doston tiliga xos" kabi.

2. Kishi (shaxs) – epik qahramon ismlarini ifodalovchi atoqli otlar. "Erkak jinsiga mansub" atoqli otlar shular jumlasiga kiradi: Zevaxxon, Iskandar, Sadulla, Farhod, Hasanxon, Hasanjon, Shohasan kabi. Bobosi uzoq yashagan odam, o'tlarni tanib terib yuribdi. Zevaxxonning o'zi dori soladigan xalta-xulta quti-qutivachcha qiladi. (140); Ovozasi olamga ketgan, Iskandarning lashkari bilan halok qilgan bu uyrumda ko'p aylanib yurdi (173); Shul vaqtda Sa'dulla kalga har yerni, cho'lni bosib olib yurgan qirg' qaroqchi yo'liqib, o'rab ushlab oldi (164); Yo'lida ayladi Majnun Farhod, // Tilladan yuzigi, tarog'i shamshod (123); Xisrav shohning Zevaxxon degan o'g'li, Hasanxon degan vaziri bor edi (121); Sen kelibsan o'zi yolg'iz qoldimi, // Sultonimdan bayon ayla, Hasanjon? (174); Zevaxxonning karvonlar bilan kelayotgan Shohasan degan vaziri bor edi (152) kabi.

3. Hayvonot, parranda va boshqa jonzodlarning nomlarini ifodalovchi so'zlar. Daraxtlar mevazor, gullar ochilib, bulbullar bir-biriga chaq-chaq uchirib, to'ti, maynalar sayrab, qushlar har turli ohang qilib turibdi (123); Qulon, kiyik, necha olqor otadi, // Odami yo'q bu to'qayda netadi? (128); Bu nolani unda maymunlar bildi, // Har tarafdan qancha maymun yig'ildi (177); Men berayin qator-qator norimni, // Sen tilasang bisotimda borimni (149); Semurg' kush qaytib

Zangarga ketdi, // Boshin quyib Zevaxxon bunda yotdi (152) kabi.

II. Morfologik vositalar. "Zevaxxon" dostoni matnida bu usul bilan jins ma'nosi maxsus qo'shimchalar, masalan, -xon, -oy, -bonu, -poshsha, -boy, -jon, -bek, -bachcha kabilar yordamida ifodalangan: yo erkak, yo ayol ismiga qo'shilgan: Semurg' kush qaytib Zangarga ketdi, // Boshin quyib Zevaxxon bunda yotdi (152); Qayda qoldi, bayon ayla, Hasanxon, // Armon bilan mendani judo bo'ldimi? (174); Sen kelibsan o'zi yolg'iz qoldimi, // Sultonimdan bayon ayla, Hasanjon? (174); Birga kelgan bekbachchalar, // Ergashmang bizga munchalar (126) kabi.

Xullas, "Zevaxxon" dostoni tilida jins bildiruvchi so'zlar miqdori anchagina, ular matnda uslub rang-barangligi uchun xizmat qilgan. Ayrim so'zlarning hozirgi adabiy tilda qo'llanmasligi yoki doston tilida mavjudligini aniqlash, ularni maxsus o'rganish ona tilimiz va folklor namunalardagi uslubiy xususiyatlarni tadqiq etish imkoniyatini yaratib beradi.

Kelishik kategoriyasi doston tilida eng faol va serqirra holatda qo'llanilgan. Ularning orasida bosh kelishikning ko'rsatkichi yo'q, ayni holat o'zbek adabiy tili uchun ham, "Zevaxxon" dostoni tili uchun ham umumiy xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Lekin boshqa kelishik qo'shimchalari bunday emas: xalq tilining fonetik qonuniyatlari (masalan, singarmonizm hodisasiga) ko'ra ular xilma xil fonetik shakllarda talaffuz etiladi va ayrim hollarda esa nutq jarayonida ba'zi bir kelishik qo'shimchalari tushib qoladi. Ayni lisoniy xususiyat "Zevaxxon" dostoni matnida ham ko'plab uchraydi.

Qaratqich kelishigining asosiy shakli -ning hisoblansada, doston matnidagi men, sen olmoshlariga qo'shilganida –ing, -im shakllariga ega bo'lgan. Masalan: Shohim sening xizmatimda men bo'ldim // Ko'chalarda behad odamni ko'rdim (142). Bobo, hayron qoldim sening ishing (15) // Kafil bo'ldim uchib yurgan qushingga (146) kabi. Doston matnida qaratqich kelishigi belgisiz holda qo'llangan holatlar anchagina: Chin shahrida qolsin qavmu-qarindoshim // Yor yo'linda endi sarf aylab boshim (209); Yor ishqida yuragima o't tushdi, Bag'rimdan o't chiqib tanim tutashdi (210); Yor yo'linda // yorning yo'lida, Yor ishqida // yorning ishqida (215). Ko'ramizki, har ikkala matnda doston ijrosiga uslub talabi bilan baxshi qaratqich kelishigi qo'shimchasini ishlatmagan, ya'ni belgisiz qo'llangan. Buning bosh omili og'zaki nutqning qisqalikda ifodalanishi, doston ijrosi auditoriya ahliga tushunarli bo'lishini talab qilganligidir. Shunday qilib, doston matnida qaratqich kelishigida kelgan otlar belgili va belgisiz tarzda qo'llanilgan. Bunday holatlarda otlarning qaratqich kelishigi yoki tushum kelishigi shaklida ekanligini qaralmishdagi egalik qo'shimchasi yoki shu ot bilan bog'lanib kelgan fe'l orqali aniqlanadi.

Doston matnida tushum kelishigi qo'shimchasining bir necha variantlari (-ni, -di, -ti, -in) qo'llangan: Zevaxxonni uyat o'ldirdi dog'ing // Ajab badnamodir boshdan oyog'ing (180) Bexabar qoldi maymunlar / Boshin olib ketdi shunqor / (182); Ichki uyga ul o'zi bordi // Ustidani libosini chechib tayladi (194) kabi. Doston matnida tushum kelishigi qaratqich kelishigi kabi belgili va belgisiz holatlarda qo'llangan: Ajal yetsa ushbu kunda o'lasan // O'lim haqqi, yurak-bag'ring tilabon (189); Qilgan ishing agar mendani yashirsang // Qirqingni ham bunda yakson etaman (190). Mazkur misollarda tushum kelishigi qo'shimchasi baxshining doston ijrosida tushib qolgan, ya'ni qisqaruv hodisasi yuzaga kelgan. Adabiy me'yordan chekinish kabi bunday lisoniy qonuniyat folklorning barcha materiallarida, Fozil shoir mansub bo'lgan qipchoq shevasida va so'zlashuv nutqida ham ko'plab uchraydi.

Jo'nalish kelishigining ko'rsatkichi adabiy til va folklor materiallarida –ga, -ka, -qa, -g'a, -na, -a kabi shakllarda ishlatiladi. Ushbu lisoniy qonuniyatning –ga shakli

“Zevaxon” dostoni tilida faol qo‘llangan. Masalan: Qirqini chiqarib olib zindondan // Shoh kishiga haybat keldi shu zamon (189); Sizga xabar qildim aqlim shoshib // Izlanglar daryoyu dengizga tushib (176) kabi. Jo‘nalish kelishigining ko‘rsatkichi kishilik olmoshlarining I, II, III shaxs birlik shakllariga ega bo‘lganida va ular birga qo‘llanganida – mag‘an, sag‘an, ug‘an shakllarining ishlatilishi og‘zaki so‘zlashda nutqqa, xususan, qipchoq shevasidagi aholi nutqiga xos. Ayni lisoniy xususiyatni biz o‘rgangan “Zevaxon” dostonida uchratmadik. Lekin doston matnida jo‘nalish kelishigi vazifasini qaratqich kelishigi qo‘shimchasi bajarganligini, ya‘ni biri o‘rnida ikkinchisi ishlatilganligi holati kuzatildi: G‘arib bo‘lib qoldim, ishqingda yig‘lab // Qayda ketding o‘zing kelgin so‘roqlab (122); Qayda ketding yoru do‘stim // Yemish bo‘lmaganda go‘shim (131). Ushbu misollardagi qayda ketding // qaerga ketding tarzida adabiy tilda qo‘llanishi zarurligini ko‘pchilik bilishadi, lekin matndagi shakli (qayda ketding) doston ijrosida epik qahramon nutqida ishlatilgan.

“Zevaxon” dostonida o‘zbek adabiy tilida bo‘lganidek o‘rin-payt kelishigining qo‘shimchasi –da, -ta shakllarida qo‘llanilgan: Bahorda ochilgan bog‘ning gulsan // Sen ham bir-birovning joni dilisan (168): Bu chorvoqda ancha seskanib turgan // Yana tavakkalni tangriga qilgan (132). Doston matnida ba‘zi hollarda baxshining ijrosidagi uslub talabi bilan jo‘nalish kelishigi, o‘rin-payt kelishigi va ta‘kid yuklamasi omonimiyahosil qilganligi kuzatiladi. Buning asl sababi qo‘shimcha boshidagi tovushning tushib qolishi bilan belgilanadi, lekin matndagi epik qahramon nutqiga xos she‘ning qofiyasini saqlab qolish ikkilamchi hodisa sanaladi. Quyidagi matnga e‘tibor qilamiz:

Qushlarning podshosi — Semurg‘ shohim-o,

Quloq solib eshit aytdan nolishima,

Mushkul ishlar tushdi mening boshima,

Tabib bo‘ldik, duchor bo‘ldik bu ishga.

Qayta boshdan bizlar qoldik koyishga. (143) kabi.

O‘zbek adabiy tilida bo‘lganidek, “Zevaxon” dostoni matnida chiqish kelishigining qo‘shimchasi –dan, -din, -nan shakllari uchraydi, ularning orasida –dan, -din kabi variantlari juda faol: Bu hunarni ham bilding, men sendan o‘rgandim (149); Ul vaqtda zangilardan qutulib chiqib edim (132); Qaytadan dunyoga o‘lmayin kelib // Xabar bergin, bobo, qaydin bo‘lasan? (135); Dardu g‘aming bo‘ldi sening ziyoda // Xabar bergin, jonim qaydin bo‘lasen? (192) kabi.

Doston matnida chiqish kelishigining belgisiz holatda qo‘llanganligini ham kuzatdik: Anglab so‘ng o‘zini ichkariga oldi // Malikai Xubbonni bu yerda ko‘rdi (194); Ko‘tarishib borib taxtiga qo‘ydi // Podsho bo‘lib taxt ustiga turgan so‘ng // Zamon shahanshohi, - dedi chaqirdi (170); Anglab so‘ng // anglagandan so‘ng, yoki turgan so‘ng // turgandan so‘ng tarzida qo‘llanmog‘i va ijro etilmog‘i zarur. Bunday lisoniy konstruksiyalar, asosan (so‘z+ko‘makchi) qolipining hosilasidan vujudga kelgan, ayni lisoniy holat adabiy me‘yorga mutlaqo zid sanaladi.

11. Vocabulary Expansion: Encourage learners to continually expand their vocabulary through developing their dictionary habits for working with special dictionaries of synonyms and antonyms, dictionaries of idioms, formulaic language, for learning to express themselves more precisely and effectively in different communicative contexts.

**Results and analysis.** Basically, these technologies lead to improving the knowledge of the foundations of phonetics, grammar, vocabulary, knowledge of producing and understanding different types of texts (e.g., narratives, reports, interviews, conversations), ability to use language for different purposes and functions, understanding how to vary language use according to discourses (e.g., knowing when to use formal and informal speech or when to use language appropriately for written as opposed to spoken communication), and knowing how to maintain communication through different kinds of communication strategies.

However, none of these levels of communicative competence can be achieved without a solid knowledge of the vocabulary. The richer the vocabulary, the more powerful our speaking or writing is, and the more effective is what we say or mean. This indispensable tool helps us choose the best word for every job and avoid vague words that do not give your listeners or readers a good sense of your meaning.

Building up our vocabulary is one of the easiest ways to improve the power of our writing and make any task that much easier. Developing your vocabulary need not be difficult or painful. Since the times of much criticized grammar-translation method we know that the best ways to increase vocabulary is through repetition. Throughout the day, repeat a word you're trying to learn to embed it within your memory.

You can also write down a word multiple times on a piece of paper to improve your memory.

Writing a word down provides the added benefit of seeing the word again and again. Another repetition strategy frequently used to improve vocabulary is to create a sentence using a word you're trying to learn and then repeating the entire sentence several times. Repetition of a word, within a context that communicates its meaning, is a powerful strategy for enhancing vocabulary. Also the more a memory is used, the more it will endure. So the next tip is to engage learners in active repetition and usage. This is where the teacher gets to play with new words.

Word games that challenge learners and help them discover new meanings and new words are great and fun tool in the quest for expanding vocabulary. Examples include crossword puzzles, word jumble and etc.

Innovative technologies have become a key concept for the success of reforms in almost all spheres of modern life. The term itself has long outgrown specific technical spheres and refers now to methods, systems and devices which are the result of scientific knowledge being used for practical purposes. From this point of view the much discussed nowadays in Uzbekistan CEFR and credit-modular systems in foreign languages learning can be referred to innovative technologies which are supposed to play a crucial role in the efforts for improving the present-day language teaching and learning situation and for enhancing the quality and efficacy of the FLT at the national and international levels.

It is the teachers' utmost professional duty nowadays to learn the CEFR guidelines which represent an umbrella framework making transparent the relationship between European and national higher education frameworks of qualifications.

Turning to the educational reform in Uzbekistan we can see that there still is a strong need for flexible, innovative learning approaches and delivery methods in many educational areas, particularly in FLT. One key way of achieving this goal is to introduce new pedagogical and methodological technologies to enrich teaching, improve learning experiences, support personalised learning, facilitate access through distance and blended learning and virtual mobility, streamline administration and create new opportunities for research.

The three sequential cycles identified by the Bologna process in foreign languages qualifications are Bachelor, Master and Doctorate, within which all European higher education qualifications are distributed. This system does not fully coincide with the Uzbekistan system yet.

Consequently, we still need to better learn the new concepts and grounds behind the European qualifications frameworks. The learning outcomes should clearly define what a learner is expected to know, understand and /or be able to do at the end of a period of learning. They should be assessed on credit system, which is a quantified means of expressing the volume of learning based on the achievement of learning outcomes and their associated workloads.

The FLT system needs clear understanding and application of a range of instruments regarding teaching and learning processes. The following range of such special tools can be mentioned here:

**Discussion.** Teaching methods might include guided self-study, research project integration seminar, teamwork problem-oriented tutorial, online discussion, micro teaching, excursion, project, blended learning, etc. The assessment methods vary as much and may include oral examination, peer evaluation, simulation (role play), skills tests, written exam with multiple choice questions, portfolio, essay, written exam with open questions, etc.

At all the stages of teaching vocabulary the teacher should constantly use all kinds of vocabulary testing to see how the students assimilate the form, the meaning, and the usage of the vocabulary units. Being able to effectively communicate, both verbally and in writing, is a very important skill to develop. Effective communicators are highly sought after by organizations and companies.

Generally, people are often judged by their vocabulary, whether negative or positive. Additionally, a strong vocabulary is the single best predictor of academic success in school or university. For these reasons, it's important to take every opportunity to enhance vocabulary learning. By implementing the strategies and techniques suggested in this research, language learners can enhance their communicative competence and become more proficient and confident in using the target language to interact with others effectively.

While the core principles of effective language teaching apply to teaching any modern language, including English, Spanish, French, Japanese or Mandarin, there may be some differences in emphasis or approach depending on the specific language being taught. However, these differences are generally minor, and the most effective teaching methods can be adapted to suit any language. For example, Communicative

Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), and Content and Language Integrated Learning (CLIL) are all highly effective for teaching any language. These methods prioritize authentic communication, meaningful tasks, and contextual learning, which are essential for successful language acquisition regardless of the target language.

**Conclusion.** Thus, if we organize developing work with students aimed at studying communicative competence and its development in the context of the realization of a generation, this will increase the level of its formation, namely, the formation of communicative knowledge, skills and abilities that contribute to the effective establishment and maintenance of contacts with other people, mastery of communication norms, application of their knowledge in changing conditions of communicative progress.

However, certain aspects of a language might require more specific attention or focus. For instance, English has a more complex phonology and a larger vocabulary compared to some other languages, which may require additional emphasis on pronunciation and vocabulary building. Spanish and French have grammatical gender and more verb conjugations than English, which may necessitate a more structured approach to teaching grammar.

#### REFERENCES

1. Byrne D. (2005) Blended learning. DACG Ltd., 2005 // <http://www.trainingreference.co.uk>
2. Gaebel M. (2010) Input statement on Bologna Policy Forum// [http://www.aic.lv/bologna/2010/policy\\_forum](http://www.aic.lv/bologna/2010/policy_forum)
3. Richards J.C. (2006) Communicative Language Teaching Today. Univ of Sydney, 2006 – 62 p.
4. Wilson, T. D. (2008). Activity theory and information seeking. Annual Review of Information Science and Technology, 42, 119-161.



*Xurshida SAFAROVA,*  
*Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD*

*Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD M.Akhmedova taqrizi asosida*

### INGLIZ TILIDAGI FRANSUZ O'ZLASHMALARINING FONETIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Zamonaviy ingliz tili etimologik tarkibining yarmidan ko'pini o'zlashma so'zlar tashkil etadi, ular orasida birinchi o'rinni fransuz tilidan o'zlashgan so'zlar egallaydi. Fransuz tilining ingliz tilining lug'at tarkibiga ta'siri haqiqati bir necha bor qayd etilgan bo'lsa-da, bu ta'sirning tabiati yetarlicha o'rganilmaganligi kuzatildi.

Ingliz tilida ko'p sonli fransuz so'zlarining mavjudligi haqiqati yaxshi ma'lum, ammo ularning ingliz tilida rivojlanishi, assimilyatsiya darajasi va tabiati yetarlicha tadqiqi etilmagan. Ayni paytda, aynan mana shu omil ikki til o'rtasidagi munosabatlarning tabiatini juda aniq ko'rsatib beradi, shuning uchun fransuz tilidan olingan o'zlashma so'zlarning tabiati va assimilyatsiya darajasi zamonaviy ingliz tili lug'atini o'rganish uchun katta qiziqish uyg'otadi.

**Kalit so'zlar:** Etimologik tarkib, lug'at, assimilyatsiya, o'zlashma so'zlar, zamonaviy ingliz tili lug'ati, fonetik, morfologik va leksik qoliplar.

### PHONETIC-GRAMMATICAL CHARACTERISTICS OF FRENCH BORROWED WORDS IN ENGLISH

Annotation

Borrowed words make up more than half of the etymological composition of the modern English language, among which the first place is occupied by words borrowed from the French language. Although the influence of French on the vocabulary of English has been noted several times, the nature of this influence has been understudied.

The fact that there are a large number of French words in English is well known, but their development, level of assimilation and nature in English is understudied. At the same time, it is precisely this factor that clearly shows the nature of the relationship between the two languages, so the nature and level of assimilation of French loanwords is of great interest for the study of modern English vocabulary.

**Key words:** Etymological composition, vocabulary, assimilation, borrowed words, vocabulary of modern English, phonetic, morphological and lexical patterns.

### ФОНЕТИКО-ГРАММАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАНЦУЗСКИХ ЗАИМСТВЕННЫХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Займствованные слова составляют более половины этимологического состава современного английского языка, среди которых первое место занимают слова, заимствованные из французского языка. Хотя влияние французского языка на словарный запас английского отмечалось неоднократно, природа этого влияния изучена недостаточно.

Тот факт, что в английском языке имеется большое количество французских слов, хорошо известен, но их развитие, уровень усвоения и природа в английском языке изучены недостаточно. В то же время именно этот фактор наглядно показывает характер взаимоотношений двух языков, поэтому характер и уровень ассимиляции французских заимствований представляет большой интерес для изучения современной английской лексики.

**Ключевые слова:** Этимологический состав, лексика, ассимиляция, заимствованные слова, лексика современного английского языка, фонетические, морфологические и лексические закономерности.

**Kirish.** Xorijiy so'zlarni o'zlashtirgan til ularni uzoq vaqt davomida o'zgarishsiz qoldirmaydi. Bu so'zlar asta-sekin o'zining fonetik, morfologik va leksik qoliplariga mos ravishda o'zgartirilib, butun til tizimiga moslashtiriladi, ya'ni assimilyatsiya jarayonini boshdan kechiradi. Bu jarayon natijasida o'zlashgan so'zlar o'zining o'zga tillilik xususiyatini yo'qotadi, o'zlashgan tilning lug'at fonida ajralib turishni to'xtatadi va uning tarkibiy qismiga aylanadi.

Asosiy lug'at fondi yangi so'zlarning shakllanishiga asos, tilning leksik-semantik markazi bo'lib, ko'p jihatdan rivojlanish yo'llarini va o'zlashtirish qonuniyatlarini belgilaydi[9]. U o'zlashtirilgan so'zlarning kirib kelishini tartibga soladi va ularning semantik mazmunini belgilaydi, odatda bu so'zlar o'zlashtirilgan va ma'lum bir xalq uchun yangi tushunchalarni ifodalovchi ma'nolarda tilda o'z ifodasini topmagan bo'ladi. Tilga kirib kelgan o'zlashma so'zlar til tizimida allaqachon o'z ifodasini topgan tushunchalarni bildirsada, ular asosiy lug'at tarkibidagi so'zlar bilan ma'lum sinonimik munosabatlarga kirishadi va kam

qo'llaniladigan sinonimlar pozitsiyasida tildan chekkada qolib ketadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Muayyan tilning lug'at tarkibi bilan bog'lanib, o'zlashgan so'zlar asosiy lug'at fondining rivojlanish qonuniyatlariga bo'ysunadi, ular grammatik tizim bilan birgalikda ularni til rivojlanishining ichki qonuniyatlariga muvofiq o'zgartiradi.

Tilda u yoki bu vaqtda paydo bo'lgan o'zlashma so'zlarning o'zlashtirilishi, ularning til tizimiga kirishi, til me'yorlariga bo'ysunishi va o'zgarishi qonuniyatlari ham tilning ichki qonuniyatlari harakati bilan bog'liq. O'zlashma so'zlarning tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra o'z grammatik tuzilishi, tovush ko'rinishi va semantik mazmuniga ko'ra o'zgarishiga asoslanib, tilshunoslikda so'z o'zlashtirishning uch turini: morfologik, fonetik va leksik assimilyatsiyani belgilaydi. Ushbu uch xil assimilyatsiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ammo ularning o'ziga xos xususiyatlari borligi sababli, ularning har birini alohida-alohida qisqacha tavsiflashni maqsadga muvofiq, deb aytish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Grammatik assimilyatsiya. Ingliz tilidagi fransuzcha so'zlarning assimilyatsiya qilish jarayoni, birinchi navbatda, ularning grammatik tuzilishiga bo'ysunishida namoyon bo'ladi. Davrlar mobaynida rivojlangan grammatik tuzilma tilning, jumladan, uning lug'at tarkibini ham o'zgartiradi. Fransuz tilidan o'zlashma so'zlar ingliz tilida mavjud bo'lgan paytdan boshlab ingliz grammatikasi qoidalariga muvofiq ishlatiladigan faol grammatik kategoriyalarga kiritilgan. Bu so'zlar ingliz tilidagi nutqning ushbu qismiga xos bo'lgan barcha fleksiya shakllarini oladi va bu shakllarni mahalliy ingliz so'zlari modeliga muvofiq shakllantiradi. O'zlashtirilayotganda, jins va sonni ifodalovchi otlardan oldin ishlatiladigan frantsuzcha le, la, les artikllari kabi morfologik bezaklar olib tashlandi. Biz o'zlashma so'zlarda grammatik jins kategoriyasining asta-sekin yo'qolishini kuzatamiz, bu ingliz tilidagi otlarning grammatik jinsi yo'qolishining umumiy tendensiyasi bilan bog'liq[3]. Shuningdek, barcha olingan otlar ingliz tilidagi otlar bilan bir xil tizimga ega. Genitiv birlik va ko'plik -s (-es) - beornes, hostages, toures, crunes va boshqalarni qo'shish orqali yasaladi.

Ingliz tili me'yorlariga muvofiq sifatlar qiyoslash darajalaridan tashqari barcha grammatik qoidalariga bo'ysunmagan. Ingliz tilida mavjud fe'llar shaxslarga ko'ra tuslanadi (conjugation) va ingliz modeliga ko'ra oddiy va murakkab zamonlarni hosil qiladi. Ko'pchilik o'zlashgan fransuz fe'llari zaif ingliz fe'llari (masalan, to turn, to evoke, to control, to revenge) tarzida preterit va sifatdosh Ining shakllanishi bilan tavsiflanadi.

O'zagi unli bilan tugagan fransuz fe'llari 1-turning kuchsiz fe'llariga qo'shilgan, masalan, cryien – qichqirmoq, assayin – urinmoq, obeie(n) – itoat etmoq. O'zagi undosh bilan tugagan fe'llar birinchi marta Angliyaning janubiy qismida 2-tur kuchsiz fe'llari namunasiga ko'ra tuslangan, ya'ni hozirgi zamonada i va preteritda d dan oldin unli sinkopatsiyasiga duchor bo'lmagan, masalan, servi(n) -served.

**Tahlil va natijalar.** Angliyaning shimolida ham, janubida ham 2-turning maxsus shakllari yo'qolganidan so'ng, ular barcha zaif fe'llar qatorida preterit hosil qila boshladilar.

Ingliz tiliga o'zlashgan ko'plab fransuz sifatlarining o'ziga xos xususiyati ularning ko'plik shaklini saqlab qolishidir. Bunday sifatlarni post-pozitiv qo'llanishda tez-tez uchramiz - letters patents, place delitables, lords spirituels; ammo, tilshunoslikning keyingi rivojlanish jarayonida ular tomonidan ko'plik shakli -s tugatilgan va frantsuzcha o'zlashtirilgan sifatlarining postpozitiv qo'llanishi court martial, heir apparent, knight errant kabi muayyan turg'un birikmalarda saqlanib qolgan[2].

O'z so'zlar va bir til doirasidagi murakkab so'zlar ko'pincha o'zlashma so'zlar bilan bog'lanmaydi. Shunday qilib, hosila o'zakli o'zlashgan xorijiy so'zlar bilan, agar bu so'zlar o'zlashtirilgan tilning leksik materiali bilan bog'lanmagan bo'lsa, soddalashtirish jarayoni sodir bo'ladi. Odatda, ona tilidagi so'zlarni soddalashtirishning asosiy

sababi zamon o'zgarishi natijasida sodir bo'ladi, so'zlar soddalashtiriladi, ular oddiy holga keladi. Xuddi shu jarayonni fransuz o'zlashmalarida ham kuzatamiz.

Fransuz otlari control, rendez-vous, char-a-bancs, parterre, ingliz tilida tarkibiy qismlarining ma'nosini yo'qotgan, ya'ni soddalashtirilgan va oddiy so'zlar sifatida qabul qilingan. Ba'zi hollarda ular birgalikda yozila boshlaydi, ularda fonetik o'zgarish sodir bo'ladi. Bu, masalan, fransuz tilidan ingliz tiliga contre-roule (lotincha contra rotuladan) shaklida kelgan va "davlat xazinasini saqlash kotibi tomonidan xazinani qayd etmoq" degan ma'noni bildiradi. Mahalliy va xorijiy so'zlardagi soddalashtirishning farqi shundaki, ona tilidagi so'zlarda bu jarayon juda sekin boradi, o'zlashtirilgan so'zlar esa tilga kirishi bilan darhol sodir bo'ladi. Natijada, o'zlashgan so'zlarning morfologik tuzilishi bu xalq tomonidan tan olinadi, o'zak morfemalar haqiqiy ma'noga ega bo'lib, yangi so'zlar yasash qobiliyatiga ega bo'ladi, ingliz affiksari esa yangi so'zlarni hosil qilish uchun ishlatiladi. Shunday qilib, ingliz tilida -ment, -al, -ess, -ance va boshqalarda frantsuzcha kelib chiqishi bir qator qo'shimchalar va prefiksalar paydo bo'ldi.

Fransuzcha so'zlarning katta qismi -ance, -ence qo'shimchasi bilan tuzilgan: ignorance, arrogance, entrance, repentance, innocence va boshqalar. Demak, inglizlar uchun bu qo'shimchani ma'nosi aniq bo'lib, uning yordamida sifat va fe'l o'zaklaridan mavhum otlar yasaladi. Shunday qilib, yangi "hindrance" so'zining shakllanishiga imkon yaratadi, bunda frantsuz qo'shimchasi inglizcha "hinder" fe'lining o'zagiga birlashtirilgan[1]. Xuddi shunday, ingliz tiliga government, treatment, agreement kabi so'zlarning tarkibiga kirgan -ment qo'shimchasi ham inglizlar tomonidan tan olindi va uning yordami bilan ingliz o'zigidan yangi so'zlar hosil bo'ldi: fulfilment, bereavement, amazement, bewilderment.

Jins kategoriyasida jenskiy rod(feminine)ni bildiruvchi otlarni yasashda qo'llaniladigan -ess (aslida kelib chiqishi yunoncha) qo'shimchasi ingliz tiliga princess, countess, baroness so'zlari bilan kirib kelgan. Keyin mahalliy aholi bu qo'shimchani ingliz o'zaklariga qo'shishni boshladilar: shepherdess - cho'pon ayol, goddess - ma'buda, murderess - qotil.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirilgan misollarga asoslanib, shunday xulosa chiqarish mumkin:

- 1) har qanday til alohida olingan til sifatida taraqqiy eta olmaydi;
- 2) ma'lum bir til lug'at boyligi obyektiv va subyektiv omillar asosida kengayib boradi;
- 3) ingliz tilining lug'at tarkibi oshib borishida olinma so'zlar munosib o'rin tutadi;
- 4) ma'lum bir tildan ingliz tiliga kirib kelgan so'zlarning katta qismi yangi tilning imlo va talaffuz qoidalariga to'lig'icha amal qilishi tufayli aksariyat o'zlashma so'zlar fonetik va morfologik yozuv tamoyillarini qabul qiladi, shu sabab ingliz tilida shakliy yozuv tamoyili asosida yoziladigan o'zlashma so'zlar nisbatan kamdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Ильиш Б.А., История английского языка, издание пятое, исправленное и дополненное, издательство «Высшая школа», Москва 1968, стр. 385
2. Арбекова Т.И. Лексикология английского языка.- М., 1977, стр. 274
3. МакКрам Р. История английского языка. - Нью-Йорк, 1987, с. 256
4. Ngom, F. Linguistic Borrowing as Evidence of the Social history of the Senegalese Speech Community. International Journal of Sociology of Language, 158, 2002. – P.37
5. Darwish, Hosam, M. 2015. "Arabic Loanwords in English Language". IOSR Journal of Humanities and Social Sciences. Vol 20 (7) Ver VII (July 2015) pp105-109.
6. Gak V.G. Essai de grammaire fonctionnelle du français. – M., 1974. – P. 24– 63.
7. Görlach, Manfred. The Linguistic History of English. Houndmills: MacMillan Press LTD, 1997., -602p.
8. Hickey, Raymond. Contact with French: The Two Periods. Studying the History of English. Feb. 2012., -260p.
9. Ngom, F. Linguistic Borrowing as Evidence of the Social history of the Senegalese Speech Community. International Journal of Sociology of Language, 158, 2002. – P.37-51
10. Peters, Robert A. A Linguistic History of English. Boston: Houghton Mifflin Company, 1968.,-265.



UDK:811.133.1.81`373.7

*Feruz SINDAROV,*  
*Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi*  
*E-mail:sindarovferuz@gmail.com*

*SamDCHTI professori N.Suvonova taqrizi asosida*

## TEOLOGIK ANTROPONIMLAR FRAZEOLGIK BIRLIKLAR TARKIBIY QISMI SIFATIDA (FRANSUZ TILI MATERIALIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada teologik antroponimlar ishtirokidagi frazeologik birliklar tahlil qilib o'tilgan. Fransuzcha frazeologik birliklar tarkibidagi diniy ismlar Injil qahramonlari, aziz avliyolar va marosim nomlaridan kelib chiqqan ismlarni o'z ichiga oladi. Frazeologik birliklar tarkibida diniy antroponimlar keng qo'llaniladi va fransuz xalqining diniy madaniyatini yorqin ifoda etadi.

**Kalit so'zlar:** Antroponim, teologiya, frazeologik birlik, til va madaniyat

## ТЕОЛОГИЧЕСКИЕ АНТРОПОНИМЫ КАК СОСТАВНЫЕ ЧАСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ (НА ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ)

Аннотация

В статье анализируются фразеологизмы с теологическими антропонимами. К религиозным именам во французских фразеологизмах относятся имена, происходящие от библейских персонажей, святых, ритуальные имена. Религиозные антропонимы широко используются во фразеологизмах и ярко выражают религиозную культуру французского народа.

**Ключевые слова:** Антропоним, теология, фразеологизм, язык и культура.

## THEOLOGICAL ANTHROPONYMS AS COMPONENTS OF PHRASEOLOGICAL UNITS (IN FRENCH LANGUAGE MATERIAL)

Annotation

The article analyzes phraseological units with theological anthroponyms. Religious names in French phraseological units include names derived from biblical characters, saints, and ritual names. Religious anthroponyms are widely used in phraseological units and clearly express the religious culture of the French people.

**Key words:** Anthroponym, theology, phraseology, language and culture.

**Kirish.** Antroponimika (antropo ... va yun. opuma — nom) — onomastikaning bo'limi bo'lib, odamlar ismini, ularning tarqalganligi, kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo'llanishini va bundan tashqari antroponimik tizimlar tuzilishi hamda rivojlanishini o'rganadi[9].

Ism nafaqat shaxsni nomlash vositasi, balki ma'lumot tashuvchisi sifatida ham xizmat qiladi. Agar bu ma'lumot butun til hamjamiyatida keng tarqalgan bo'lsa, bunday nomlar jamiyatning tarixiy va madaniy taraqqiyoti haqidagi ma'lumotlarning tashuvchisi hisoblanadi. Ismning madaniy va etnik-madaniy makonini hisobga olish alohida qiziqish uyg'otadi, chunki nom etnik guruh ongining elementi bo'lib, xalqning ma'naviy madaniyati xususiyatlarini va ularning qadriyatlar tizimini aniqlashga imkon beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlil.** To'g'ri, ismlar tilning eng ko'p qabul qiluvchi qismi bo'lib, ular barcha tarixiy va madaniy hodisalarni boshqa elementlarga qaraganda tezroq o'zida aks ettiradi[7].

Shu jihatdan shaxsiga atab qo'yilgan atoqli otlar ham frazeologik birliklar tarkibida keng qo'llaniladi. Frazeologik birliklar xalq donoligi va madaniyatining asosiy lingvistik posbonlaridir. Bugungi kunda frazeologiya dunyo tilshunoslari uchun asosiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda frazeologik birliklar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'lamini kengayib bormoqda.

Tilga madaniy voqelikni ifodalovchi, o'zida mujassamlashtirgan va ramziy ma'lumot beruvchi ma'lum madaniyatni kodlash vositasi sifatida qaraladi[2]. Tilda

frazeologiyaga "ma'lum bir tilga xos bo'lgan bir qator madaniy an'analarning lingvistik ombori" sifatida qarash mumkin [1]. Xuddi shu nuqtai nazardan Veronika Teliya "Frazeologiya til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni yuqori darajada ko'rsatadigan tilshunoslik sohasi"[5] deb ta'kidlaydi. Bunday yondashuvni qabul qilish inson bilimining ayrim tomonlarini ochish imkonini beradi. Hozirgi tadqiqotlarning aksariyati "madaniyatni frazeologiyada fundamental e'tirof etilgan doimiylik sifatida ko'rib chiqadi[4].

Lingvistik-madaniy tahlillar doirasida frazeologik birliklarning "til ma'nolarida ifodalangan madaniy ma'lumotlar uchun" tahlillari kognitiv tilshunoslik fanning antropologik yo'naltirilgan tarmog'i bo'lgan madaniy tilshunoslik doirasida amalga oshiriladi[5]. Darhaqiqat, kognitiv lingvistika va kontseptual tadqiqotlar lingvistik-madaniy tahlillar uchun nazariy asosdir. Lingvistik-madaniy tadqiqotlar jahonda keng tarqalgan, Tilga madaniyat orqali kirib boradigan beshta yo'llar mavjud: madaniy semalar, madaniy tushunchalar, madaniy konnotatsiyalar, madaniy kelib chiqish va nutq stereotiplaridir[6]. Ularni o'rganish tilshunoslarga ma'lum bir etnik jamoaning dunyoqarashi va stereotiplarini tasvirlash imkonini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Biz frazeologik birliklarda qo'llanilgan shaxs nomlarining tarixiy kelib chiqishini o'rganib chiqdik. Shunga ko'ra, frazeologik birliklar tarkibida qo'llanilgan ismlar tarixiy shaxslar nomlari, mashhur badiiy adabiyotlar va drammatik asarlar qahramonlari nomlari, teologik ismlar va taxalluslarni o'z ichiga oladi. Masalan:

Drammatik asar qahramonlari ismlari	Tu l'as voulu, George Dandin! – sen buni o'zing xohlagansan! qilgan ishidan pushaymon bo'lganda qo'llaniladi. George Dandin Molyerning shu nomli komediyasi bosh qahramoni bo'lib, asar davomida bu iborani bir necha marotaba qo'llagan. George Dandin o'zi tabaqasidan yuqori turuvchi tabaqadan bo'lgan ayolga uylanadi. Asarda qizning tanbehleri va injiqliklaridan umidsizlikka tushgan Dandin bu iborani ko'p marta takrorlab, qilgan xatosidan achchiq tavba qiladi.
-------------------------------------	--

Tarixiy shaxs ismlari	faire Charlemagne – g'alaba qozonganidan keyin o'yinni tark etmoq (Charlemagne kabi harakat qiling). Bu iborada o'limigacha barcha zabt etilgan hududlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan fransuz qiroli Karl (742-814) ga ishora qilingan. Shunday qilib, u "g'alaba qozonganidan keyin o'yinni tark etdi", ya'ni zabt etilgan yerlarning birortasini ham boy bermasdan olamdan o'tgan. Bu ism ishtirokida yana bir frazeologik birlik shakllangan: <i>être sorti de la coté de Charlemagne</i> "qirolikdan kelib chiqqan".
Diniy shaxs ismlari	miches de Saint-Etienne - toshlar (Sent-Eten noni). Xristian afsonasiga ko'ra, Avliyo Stefan toshbo'ron qilingan. Ushbu iborada shu voqeaga ishora qilingan.
Badiiy asar qahramonlari nomlari	Fier comme Artaban - Artaban kabi mag'rur insonning juda behuda narsalar bilan g'ururlanishini anglatadi. Bu ibora birinchi marta 1734 yilda Marivaux tomonidan yozilgan "Marianning hayoti" romanida paydo bo'lgan.
Taxalluslar	sonner l'Olifant - shovqin qilmoq, karnay chalmoq. Olifant - "Roland qo'shig'i" she'ridagi Roland shoxining nomi. Qadimgi doston va qo'shiqlarda qahramonlarning jangovar qurollariga ham odamlar kabi nom, taxallus berilgan.

Fransuzcha frazeologik birliklar tarkibida teologik antroponimlarning qo'llanilishi salmoqli o'ringa ega. Zero, din jamiyat madaniyatining eng ajralmas bo'lagidir. Teologiya (yun. theos — xudo va ...logiya) — xudoning mohiyati va irodasi haqidagi diniy talimotlar majmui. Xudo shaxsan o'zini vahiy orqali kishilarga ma'lum qiladi degan konsepsiyaga asoslanadi. Muqaddas kitoblar va muqaddaslashtirilgan yozuvlar Teologiyaning asosiy manbalari hisoblanadi[13].

Din – tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda

taqdirini bevosita qurshab olgan, atrof muhitdan tashqarida bo'lgan, insonni yaratgan, ayni zamonda unga birdan-bir to'g'ri hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan

ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir [6]. Din bu muayyan dunyoqarash, ya'ni his-tuyg'u va marosimlar orqali odamlar, ularning uyushmalari, xalqlar va millatlarining yaqinlashuvi, ma'naviy-axloqiy hayotdagi hamfikirlik demakdir. Shunday ekan fransuzcha frazeologik birliklar tarkibida diniy antroponimlarning qo'llanilishi va fransuz xalqining diniy madaniyatini yorqin ifoda etishi bejiz emas. Bizga ma'lumki, fransuz millati, asosan, xristian diniga ( Rim katolik cherkoviga) e'tiqod qiladi, shundan kelib chiqib frazeologik birliklar tarkibidagi diniy ismlar ham Injil qahramonlari, aziz avliyolar va marosim nomlaridan kelib chiqqan ismlarni o'z ichiga oladi. Masalan:

Avliyolar ismlari	Injil qahramonlari ismlari	Avliyo va tarixiy shaxs ismlari	Diniy bayramlardan kelib chiqqan ismlar
décoiffer sainte Catherine-qizni turmushga bermoq	faire sa Sophie-o'zini ehtiyotkorlik bilan tutmoq	mal Saint-Genou- podagra kasalligi. 5-asrda Kahor episkopi Avliyo Genouff nomidan tashkil topgan. u odamlarni ushbu kasallikdan davolagan	faire Quasimodo avant Pâques-nikobdan avval farzand ko'rmoq

Avliyolar – turli dinlar tomonidan ma'naviy yuksalishlari bilan ajralib turadigan va na'munali deb topilgan shaxsiy xususiyat yoki xatti-harakati tufayli imonlilarga hayot namunasi sifatida taqdim etilgan insonlardir[14].

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kunda Katolik cherkovida 7 mingga yaqin Saint (avliyo)lar bor. Katolik cherkoviga ko'ra, muqaddaslik Xudo va inson o'rtasidagi birlikdir va "mo'jiza muqaddaslikni tasdiqlash uchun emas, balki Xudo bilan yaqinlikni tasdiqlash uchun kerak". Ular 11-asrdan boshlab Rim papasi tomonidan kanonizatsiya qilina boshlagan[12]. Avliyolar ismlari teologik antroponimlarning asosiy bo'g'ini xisoblanadi. Bu fransuzcha frazeologik birliklarda ham o'z aksini topgan. Masalan:

coiffer sainte Catherine – 25 yoshda bo'ydoq bo'lmoq, qari qiz bo'lib qolmoq.

Ushbu frazeologik birlik ba'zi katolik mamlakatlarida mavjud bo'lgan cherkovlardagi avliyolar haykali shlyapa kiydirish odatiga asoslanadi. Avliyo Ketrin bokira qizlarning homiysi edi, shuning uchun uni kiyintirish 25 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan turmushga chiqmagan qizlarga ishonib topshirilgan. Avliyo Ketrin kuni 25-noyabrda nishonlanadi. Avliyo Ketrin ismi bilan boshqa iboralar ham mavjud: *décoiffer sainte Catherine* –a) qizni turmushga bermoq; b) turmushga chiqmoq.

*été du saint Martin* - 1) hind yozi; 2) ikkinchi yoshlik (Sent-Martin yozi). Idiomaning kelib chiqishi xristian afsonasi bilan bog'liq bo'lib, unga ko'ra Saint-Martin vafot etgan kuni (taxminan 316-397) 11-noyabr (keyinchalik diniy bayram) mo'jiza yuz berdi: kech kuz bo'lishiga qaramay, tabiat yana gulladi, issiq va go'zal kunlar keldi, bu uning "ikkinchi yoshligi" edi. Avliyo Martin antroponimi bilan boshqa frazeologik birlik ham mavjud : *à chaque porc vient le Saint-Martin* - hamma odamlar o'ladi (so'zma-so'z: har bir cho'chqa uchun Avliyo Martin kuni keladi). Sankt-Martin bayrami arafasida qishning boshlanishida cho'chqalami so'yish uchun ko'plab qishloqlarda keng tarqalgan diniy marosimdan olingan.

*décoiffer (deshabiller) saint Pierre pour coiffer (habiller) saint Paul* - birini boshqasining zarariga qo'llab-quvvatlamoq.

Bu ibora avliyolar haykallarini bezash odatidan kelib chiqadi. Kambag'al cherkovlar avliyolarning har bir bayrami

uchun o'z haykallarini yangi kiyimda kiyintirish imkoniga ega emas edilar, shuning uchun ular bir xil bezaklarni avliyolar kuni qo'llaganlar. Keyinchalik bu frazeologik birlikning yanada zamonaviy shakli paydo bo'ldi: *prendre à Pierre pour donner à Paul*.

*mal de Saint-Eutrope* -falajlik. 1-asrda Sentanjda yashagan va odamlarni turli kasalliklardan davolagan avliyo nomidan kelib chiqqan. Bu ibora birinchi marta Rablning "To'rtinchi kitobi" da tushuntirilgan.

*miches de Saint-Etienne* - toshlar (so'zma so'z tarjimai: Sent-Eten noni). Xristian afsonasiga ko'ra, Avliyo (saint) Stefan toshbo'ron qilingan.

*prison de Saint-Grépin* - qattiq poyabzal (Saint Grepin zindoni). Sankt-Grepin - poyabzalchilarning homiysi. U 287 yilda Soissonsda vafot etgan. Quyidagi frazeologik birliklar ham bu nomni o'z ichiga oladi: *prendre la voiture de Saint-Grépin* "yurish; o'z oyoqlarida yurish" (Saint Grepin avtomobilini olib); *offre de Saint-Grépin* "yolg'on: Saint Grepin taklifi).

*ventre Saint-Gris* - qasam ifodasi. Bu qiroli Genrix IV bilan bog'liq bo'lib, u " ventre sangue Christi- Masihning hayoti va qoni bilan" deb qasam ichishni odat qilgan. Bu so'zlar parijliklar tomonidan yuqorida ko'rsatilgan shaklda qabul qilindi.

*danse de Saint-Guy* - Vitt raqsi. Vitt Sitsiliya orolida tug'ilgan, uning ota-onasi imonsiz, xudosiz odamlar bo'lgan, u Avliyo Modestdan ta'lim va tarbiya olgan, keyin otasi tomonidan viloyat gubernatoriga berilgan. U qochishga muvaffaq bo'ldi, lekin tez orada qo'lga olindi va qiynoqqa solingan. O'shandan beri u Avliyo Vitus deb atalgan, u asab kasalligi avliyosi deb nomlandi.

*feux de la Saint-Jean* – yoz kechasi chiroqlari. Ivan Kupala tunida ( ya'ni 22-iyun – yoz kunning tuni)chiroqlar, gulxanlar,. Bu ism ishtirokida tuzilgan bir qator frazeologik birliklar ham mavjud, masalan, *tout son Saint-Jean* "barcha narsangiz"; *cela n'est que de la Saint-Jean* "hammasi bema'nilik"; *faire son petit Saint-Jean* "o'zini ahmoqqa solmoq"; *faire comme Saint-Jean qui donnait le baptême sans l'avoire reçu* "birovga o'zi tushunmaydigan narsani o'rgatmoqchi bo'lgan kishi haqida", *employer toutes les herbes de la Saint-Jean* – 1)barcha vositalardan foydalanish; 2) ta'minlash, barcha rasmiyatchiliklarga rioya qilish (Ivan

Kupalaning barcha o'tlarini qo'llash). Bu ibora Ivan Kupala kechasida yig'ilgan o'tlar mo'jizaviy shifobaxsh xususiyatlarga ega degan qadimgi xalq e'tiqodidan kelib chiqadi.

scrupule de Saint-Macaire - asossiz shubhalar (Sent-Makerning shubhasi). Fransiyaning janubida tez-tez ishlatiladigan bu hazil ibora Molyerning "Tartuffe" komediyasidan olingan deb ishoniladi.

c'est Saint-Roch et son chien - bu ajralmas do'stlar (bu Sent-Roch va uning iti). Ushbu iboraning paydo bo'lishi Sent-Roch hayoti haqidagi afsonadan bilan bog'liq (XIII asr). O'zini vaboni davolashga bag'ishlagan Sent-Rochning o'zi bu kasallik bilan kasallangan va kimsasiz joyda o'limni kutgan. Ammo uni u davolagan zodagonning iti topdi. O'shandan beri it Sent-Rochning ajralmas sherigiga aylandi va u doimo u bilan birga tasvirlangan. Bu so'z bilan boshqa iboralar ham mavjud: bénédiction de Saint-Roch "la'nat, qasam ichish"; coiffé comme Saint-Roch "bir tomonida shlyapali".

donner les Innocents Ushbu ibora qadimgi diniy kun bilan bog'liq, 28-dekabr avliyo Innosent kuni bo'lib, Hirod buyrug'i bilan qirg'in qilingan begunoh bolalarning o'rnini bosish uchun ko'proq farzand ko'rishga ishora qiluvchi ibora. Luperkaliyani nishonlash paytida, ruhoniylar duch kelgan ayollarni ko'proq unumdor bo'lishlari uchun qamchi bilan urishardi.

Avliyolar ismlari bilan bir qatorda Injil qahramonlari nomlari bilan kelgan frazeologik birliklar qo'llanilgan:

faire sa Sophie - o'zini ehtiyotkorlik bilan tutmoq. Sofi Injil qahramoni bo'lib, II asrda yashagan. Vera, Nadej va Lyubbening onasi, Hadrian hukmronligi davrida u uchta qizi bilan shahid bo'lgan.

pleurer comme une Madeleine - yig'layverib shishib ketmoq.

Fransuz tilida diniy obrazlarga asoslangan "pleurer comme une Madeleine" ya'ni so'zma-so'z tarjimai Magdalenga o'xshab yig'lamoq iborasi ham mavjud bo'lib, uni o'zbek tiliga dod-faryod solib yig'lamoq deb talqin qilish mumkin. Ushbu Magdalen obrazli iboraning kelib chiqish etimologiyasi bo'yicha tegishli manbalarda shunday ta'rif beriladi: ushbu iborada fransuz xalqi tarixida Magdalening fohisha sifatida o'ta qabih ishlar qilganligi va o'z xatosini tushunib, Iso Masih oldida ayu-hannos solib, o'kirib yig'lagan holda kechirim so'ragan holatiga ishora qilingan[11].

Diniy bayramlar nomlaridan kelib chiqqan antroponimlar ham teologik frazeologik birliklar tarkibida qo'llanilgan. Masalan:

faire Quasimodo avant Pâques ( Pasxadan oldin Quasimodoni nishonlash) to'ydan (nikohdan) oldin bola dunyoga keltirish. Quasimodo - Pasxadan keyingi birinchi yakshanba. Yana bir frazeologik birlik ushbu diniy bayramning nomi bilan bog'liq: renvoyer à la Quasimodo "to'lash (qarzni to'lashda)." Quasimodo diniy bayram nomi bo'lib, keyinchaik insonlarga ism sifatida ham qo'yilgan.

Quasimodo V. Gyugoning "Notre Dame de Paris" romanining qahramoni ismi, zamonaviy jamiyatda muallif tomonidan yaratilgan tasvirning yorqinligi tufayli, jismoniy deformatsiyaning umumiy nomi sifatida qo'llaniladi[10].

**Xulosa va takliflar.** Din bu muayyan dunyoqarash, ya'ni his-tuyg'u va marosimlar orqali odamlar, ularning uyushmalari, xalqlar va millatlarining yaqinlashuvi, ma'naviy-axloqiy hayotdagi hamfikrlilik demakdir. Shunday ekan fransuzcha frazeologik birliklar tarkibida diniy antroponimlarning qo'llanilishi va fransuz xalqining diniy madaniyatini yorqin ifoda etishi bejiz emas. Fransuzcha teologik frazeologik birliklar orasida avliyolar ismlari eng sarmahsul vosita hisoblanadi, bazi avliyolar ismlari bir nechta frazeologik birlik hosil qilishi ham mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Colson J. Cross-linguistic phraseological studies: An overview. In:Granger, Sylviane; Meunier, Fanny (eds).2008.-191-206.
2. Kramersch C.Language and Culture. Oxford: Oxford University Press. 2000.134.
3. Piirainen E. Figurative phraseology and culture. In:Granger, Sylviane; Meunier, Fanny (eds).2008.-207-228.
4. Piirainen E. Phraseology in a European framework: A cross-linguistic and cross-cultural research project on widespread idioms In:Granger, Sylviane; Meunier, Fanny (eds).2008.-243-258.
5. Teliya, V. N., Bragina, N. G., Oparina, E. O. & Sandomirskaya, I. I. Phraseology as a language of culture: Its role in the representation of a collective mentality. In A. P. Cowie (Ed.), Phraseology: Theory, Analysis, and Application. Oxford: Oxford University Press.1998.-55-75.
6. Zaripov O. Dinshunoslik, Buxoro.-2016.100 b.
7. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного.- Москва: Наука, 1973. — 366 с.
8. Doliyeva L.B. Рухият тасвиридаги comme coponentli қиёсий фразеологизмлар семантикасига доир ( француз тили материалида) // "So'z san'ati". Xalqaro jurnal.- Toshkent,2021.- 3 son , 4-jild -B.244-251.
9. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
10. <http://www.telegraph.co.uk/culture/books/artsandentertainmentbooksreview/7945634/Real-life-Quasimodo-uncovered-in-Tate-archives.html>
11. <https://www.linternaute.fr/expression/image/commun/logo.gif>
12. <https://alsina-sa.com/sobre-religion/como-surgen-los-santos-en-la-iglesia-catolica.html>
13. <https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/thumb/c/c1/Wikipedia-logo-v2-uz.svg/418px-Wikipedia-logo-v2-uz.svg.png>
14. <https://eglise.catholique.fr/>





*Dilshodbek SODIKOV,*  
*Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti*  
*E-mail: navruz\_sd@mail.ru*

*FarDU dotsenti, PhD SH.Yusuffonova taqrizi asosida*

## O‘ZBEK MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARINI IFODALOVCHI AYRIM FENOMENLAR TARJIMA TAHLILIDA

Annotatsiya

Tadqiqotning maqsadi tarjima jarayonlaridagi til va madaniyat hodisalarini chuqur o‘rganishdir. Ishda madaniy jihatlar butun tarjima jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishi va maqsad tilidagi matnlar manba matnning ma’nosi va ta’sirini qanday qilib adekvat yetkaza olishi tahlil qilinadi. Ushbu maqsadga erishish uchun misollarni sinchkovlik bilan tanlash va sinash orqali turli tillar va madaniyatlarining turli madaniy elementlari tahlil qilinadi. Bu hodisalarni yechish nafaqat o‘quv mashg‘uloti, balki tarjimonning amaliy faoliyati uchun ham katta ahamiyatga ega ekanligiga asosiy e’tibor qaratiladi. Tarjimonlar to‘g‘ri va madaniy jihatdan mos tarjimani ta’minlash uchun madaniy va lingvistik nuanslarni yaxshi bilishlari kerak.

**Kalit so‘zlar:** Tarjima jarayoni, madaniy moslashish, tilshunoslik tahlili, maqsadli matnlar, madaniy o‘zgarishlar, professional tarjima, kritik tushuncha, madaniy chog‘lar.

## В ПЕРЕВОДЧЕСКОМ АНАЛИЗЕ НЕКОТОРЫХ ЯВЛЕНИЙ, ОТРАЖАЮЩИХ НАЦИОНАЛЬНО- КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКОВ

Аннотация

Целью исследования является глубокое изучение явлений языка и культуры в процессах перевода. В работе анализируется, как культурные аспекты влияют на весь процесс перевода и как тексты на целевом языке могут адекватно передавать смысл и эффект исходного текста. Для достижения этой цели проводится анализ различных культурных элементов из разных языков и культур путем тщательного выбора и проверки примеров. Основное внимание уделяется тому, что решение этих явлений является не только академическим упражнением, но и имеет большое значение для практической работы переводчика. Переводчики должны быть знакомы с культурными и языковыми нюансами, чтобы гарантировать правильный и культурно адекватный перевод. Результаты исследования подчеркивают, что успешные переводы требуют не только глубокого понимания языковых структур, но и культурных различий и нюансов.

**Ключевые слова:** Переводческий процесс, культурная адаптация, лингвистический анализ, целевые тексты, культурные нюансы, профессиональный перевод, критическая интерпретация, культурные чувствительности.

## IN THE TRANSLATION ANALYSIS OF SOME PHENOMENA REPRESENTING UZBEK NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS

Annotation

The aim of the study is to gain a deeper understanding of language and cultural phenomena in translation processes. The research examines how cultural aspects influence the entire translation process and how target language texts can adequately convey the meaning and impact of the source text. To achieve this goal, various cultural elements from different languages and cultures are analyzed through careful selection and examination of examples. It is emphasized that addressing these phenomena is not only an academic exercise but also crucial for the practical work of translators. Translators must be familiar with cultural and linguistic nuances to ensure accurate and culturally appropriate translations. The findings of the study highlight that successful translations require not only a deep understanding of language structures but also of cultural differences and nuances.

**Key words:** Übersetzungsprozess, kulturelle Anpassung, linguistische Analyse, Zieltex-te, kulturelle Nuancen, professionelle Übersetzung, kritische Interpretation, kulturelle Empfindlichkeiten.

**Kirish.** Ushbu ilmiy maqola tarjimada til madaniyati hodisalarini chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan. Uning asosiy maqsadi madaniy jihatlar butun tarjima jarayoniga qanday ta’sir qilishini va ular maqsadli tildagi matnning ma’nosi va ta’sirini qanday sezilarli darajada shakllantirishi mumkinligini ko‘rsatishdir. Buning uchun so‘z va gaplarni lingvistik ko‘chirishdan tashqari chuqur tahlil talab etiladi.

Turli tillar va madaniyatlardan namunalarni sinchkovlik bilan tanlash va tekshirish orqali madaniy elementlar tarjimasining turli qirralari batafsil ko‘rib chiqiladi. Nafaqat idiomalar, metaforalar, xushmuomalalik shakllari va madaniy me’yorlar, balki boshqa til va madaniy nuanslar ham hisobga olinadi. Bular matnning turli jihatlariga, jumladan, uslubiy o‘ziga xosliklarga, madaniy tashbehlariga, tarixiy kontekstlarga va hatto ona tili bo‘lmaganlar uchun tushunarsiz

bo‘lgan nozik ma’no darajalariga ham tegishli bo‘lishi mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, bu hodisalarni hal qilish shunchaki akademik mashg‘ulot emas, balki professional tarjima amaliyoti uchun amaliy ahamiyatga ega. Tarjimonlar manba matnning to‘g‘ri va madaniy jihatdan mos tarjimasini ta’minlash uchun ushbu madaniy va lingvistik nuanslardan xabardor bo‘lishi kerak. Buning uchun nafaqat til ko‘nikmalari, balki matnlar qaysi madaniyatdan kelib chiqqan va ular tarjima qilingan kontekstlarni chuqur anglash ham talab etiladi.

Ushbu murakkab jihatlarini hisobga olgan holda tarjimonlar nafaqat matnning ma’nosini to‘g‘ri etkazishi, balki uning maqsadli auditoriyaga ta’sirini maksimal darajada oshirishi mumkin. Shunday qilib, til madaniyati hodisalarini

har tomonlama o'rganish nafaqat madaniy tushunishga, balki butun tarjima amaliyotining sifati va samaradorligiga ham xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tarjimoni oddiygina so'z va gaplarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazishning mexanik jarayoni sifatida ko'rib bo'lmisligi ta'kidlanadi. Aksincha, bu madaniy kontekst va nuanslarni chuqur tushunishni talab qiladigan murakkab harakatdir. Ayniqsa, madaniy tafovutlar tarjimonlar uchun katta qiyinchilik tug'diradi, chunki ular so'zlarning ma'nosidan ko'ra ko'proq ta'sir qilishi mumkin. Bu farqlar matnning umumiy ma'nosini, ohangini va maqsadli tildagi ta'sirini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin.

Bunga misol qilib bir tilda ma'lum ma'noga ega bo'lgan, lekin boshqa tilda ma'noga ega bo'lmagan yoki hatto tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan iboralar yoki so'zlardan foydalanish mumkin. Shuning uchun tarjimon nafaqat bu iboralarning ma'nosini, balki ularning madaniy ta'siri va qo'llanilishini ham tushunishi kerak.

Bu haqida Shuxrat Sirojiddinov, Gulnoza Odilovalar "Badiiy tarjima asoslari" monografiyasida shunday deb yozadilar: "Tarjima ijodiy faoliyat soxasiga kiradi. Shu jarayonda tarjimonning lisoniy va ma'naviy bilimlari matnda uz ifodasini topadi. Tarjimon, avvalo, ona tilini yaxshi bilishi, boshqa xalqlarning, xususan tarjima kilinayotgan asar mansub xalqning adabiyoti, tarixi, madaniyati va mentalitetini chuqur o'rgangan bo'lishi lozim. Tarjimonga qo'yiladigan talablardan yana biri filologik bilimlarining yuqori darajada bo'lishidir"[7].

Rus tilshunosi Alekseeva I.S. "Что такое «перевод» в нашем повседневном, непрофессиональном понимании, пожалуй, объяснить не надо. Любой случай, когда текст, созданный на одном языке, выражается средствами другого языка, мы называем переводом." deb fikr bildirgan[1].

Ushbu strategiyalarning ba'zilar matnning uslubi va ohangini moslashtirish, madaniy jihatdan mos iboralar va idiomalardan foydalanish, maqsadli auditoriya va ularning madaniy kutishlarini hisobga olishni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu strategiyalarni ongli ravishda qo'llash orqali tarjimonlar manba matndan ko'zlangan xabar tarjimada to'g'ri va samarali tarzda etkazilishini ta'minlashi mumkin. Ushbu ishda o'zbek tilidan nemis tiliga tarjima qilingan "Shumbola", "Anor" va "O'rgan kunlar" asarlaridan misollarni ko'rib chiqamiz.

Umuman olganda, muvaffaqiyatli tarjima qilish nafaqat til va grammatikani mukammal bilishni, balki madaniy farqlar va nuanslarni chuqur tushunishni ham talab qiladi. Faqatgina ushbu jihatlarni hisobga olgan holda tarjimonlar maqsadli auditoriyaga mo'ljallangan ta'sir ko'rsatadigan yuqori sifatli, madaniyatga mos tarjimalarni ishlab chiqishi mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu ilmiy maqola nafaqat til madaniyati hodisalarining mavjudligi va ahamiyatini ko'rsatishga, balki tarjimonlarning ularni muvaffaqiyatli aniqlash va hal qilishning amaliy usullarini ko'rsatishga qaratilgan. Bu madaniy va lingvistik nuanslarni chuqur tushunishni, shuningdek, ushbu muammolarni hal qilish uchun tegishli strategiyalarni qo'llash qobiliyatini talab qiladi.

Madaniy va lingvistik chegaralar bo'ylab muloqot tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan globalashgan dunyoda bunday tushunish juda muhimdir. Tarjimonlar matndagi xabarlarining nafaqat to'g'ri, balki madaniy jihatdan mos tilga tarjima qilinishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun tarjimonlar doimiy ravishda o'z malakalari va bilimlarini kengaytirishlari kerak. Buni doimiy treninglar, hamkasblar bilan bo'lishish va

lug'atlar, lug'atlar va ma'lumotnomalar kabi resurslardan foydalanish orqali amalga oshirish mumkin.

Qolaversa, tarjimonlar doimo fikr yuritish va moslashishni talab qiluvchi dinamik va murakkab faoliyat ekanligini tarjimonlar bilishlari muhim. Har bir matn va har bir tarjima holati noyobdir va tarjimonlar turli qiyinchiliklar va talablarga moslashuvchan javob bera olishlari kerak.

Umuman olganda, lingvistik madaniyat hodisalarini to'g'ri tushunish va ularni to'g'ri ko'rib chiqish yuqori sifatli va madaniy jihatdan mos tarjimalarni yaratish uchun juda muhimdir. Tegishli strategiyalarni ishlab chiqish va qo'llash orqali tarjimonlar turli madaniyatlar va tillar o'rtasidagi muloqotni osonlashtirishga yordam beradi va shu bilan madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

**Tahlil va natijalar.** Tarjimada lingvokulturologik fenomenlarni ayrimlarini quida biz o'zbek tilidan nemis tiliga qilingan asarlar tarjimalar misolida ko'rib chiqamiz.

Idiomalar - alohida so'zlarning ma'nosidan bevosita kelib chiqqan lingvistik iboralar yoki gaplar. Buning o'rniga, ular ko'pincha madaniy yoki mintaqaviy ta'sir ko'rsatadigan majoziy yoki metaforik ma'noga ega. Idioma tarkibidagi so'zlarning so'zma-so'z talqinidan farq qiladigan o'ziga xos ma'noga ega bo'lishi mumkin. Ushbu madaniy nuanslar idiomalarni to'g'ri tarjima qilish tarjimonlar uchun qiyinchilik tug'diradi.

Nemis tilidagi idiomaga misol sifatida "Da steppt der Bär" so'zma-so'z tarjima qilingan "ayiq u erda raqsga tushmoqda" deb tarjima qilinadi. Ammo bu idiomaning asl ma'nosi shundaki, voqea yoki hodisa juda jonli yoki qiziqarli.

Abdulla Qaxxorning "Anor" asari tarjimasini nemis tilidagi muqobillarida ko'rib chiqsak:

O'zbek tilidagi matn: Turobjon qizardi.

Nemis tilidagi tarjima matni: Turobschon errötete vor Scham und Verdruss.

Asl matndagi ajratib ko'rsatilgan Turobjon qizardi so'z birikmasining o'zbek tilining izohli lug'atida berilishicha: qizarmoq 1. qizil yoki shunga yaqin tus olmoq, qizil tusga kirmoq. Osmon qizardi. Qulupnay qizara boshladi. Beti sovuqdan qizarib ketdi. Non qizarib pishdi[4].

2. ko'chma. Nojo'ya nomaqbul xatti-harakati, qilmishi, aybi, kamchiligi va sh.k. uchun kimsa oldida xijolat tortmoq, izza holatga tushmoq. Modomiki mendan gunoh sodir bo'lmadi, tekshirsalar haqiqat oldida o'zlari qizarib qoladilar, shunday emasmi? Oybek. Nur qidirib.

Matning nemis tilidagi tarjimasiga yuzlansak: er-rö-ten; errötete, ist errötet: geschr; rot im Gesicht werden (meist weil man sich freut oder verlegen ist) vor/aus Freude, Scham, Verlegenheit erröten- qizarib ketish (odatda baxtli yoki xijolat bo'lganligi sababli) quvonch, uyat, xijolatdan qizarish.

Ushbu misolda qizarmoq so'zini o'zini nemis tiliga o'g'riganda to'la ma'no bermeydi, shuning uchun "errötete vor Scham und Verdruss" deb tarjimon - "uyat va sharmandalikdan qizardi" iborasini qo'llashga majbur bo'lgan.

Tarjimonlar oldiga qo'yilgan vazifa madaniy ta'sirga ega bo'lgan bunday iboralarni asl ma'nosini yo'qotmagan holda maqsadli tilga adekvat tarzda tarjima qilishdir. Buning uchun ular nafaqat idiomaning ma'nosini tushunishlari, balki uning qo'llanilgan madaniy ma'nolari va kontekstlarini ham hisobga olishlari kerak. Tegishli va haqiqiy tarjimoni taqdim etish uchun ko'pincha ijodkorlik va ikkala til va madaniyatni chuqur tushunish talab etiladi.

Idiomalarni muvaffaqiyatli tarjima qilish nafaqat lingvistik ko'nikmalarni, balki chuqur madaniy tushunishni ham talab qiladi. Tarjimonlar tarjimaning tegishli usullarini tahlil qilish va qo'llash orqali, hatto iboralar madaniy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa ham, maqsadli tildagi asl matnning ma'nosi va kayfiyatini to'g'ri etkazishga yordam beradi.

Metaforalar - bu so'z yoki iboraning mavhum g'oyani aniq yoki aqlli narsa bilan bog'lash orqali tasvirlash uchun ishlatilishiga tayanadigan lingvistik figuralar. Ular madaniy va kontekstdan ta'sirlanadi va ko'pincha murakkab tushunchalarni aniq va tushunarli tarzda taqdim etishga xizmat qiladi. Metaforaning taniqli misoli "umumiy mavzu" iborasidir.

"Umumiy mavzu" metaforasi ko'pincha matn yoki nutqdagi mavzu yoki syujetning izchil va bog'liqligi haqidagi fikrni bildirish uchun ishlatiladi. Qizil ip butun matn bo'ylab o'tadigan va unga tuzilish beradigan markaziy yoki etakchi g'oyani anglatadi. Ushbu metafora ko'plab madaniyatlarda asarning uyg'unligini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Bunday metaforani tarjima qilish bilan duch kelganda, tarjimon nafaqat iboraning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosini, balki u bilan bog'liq madaniy ma'no va ramziylikni ham tushunishi kerak. Bunday holda, "umumiy mavzu" metaforasini tarjima qilish ranglar va belgilarning madaniy ma'nosini tushunishni talab qiladi.

Qizil rang madaniy kontekstga qarab turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Ba'zi madaniyatlarda qizil rang ehtiros, energiya yoki sevgini anglatadi, boshqa madaniyatlarda esa xavf, ogohlantirish yoki g'azab bilan bog'liq. Bundan tashqari, "ip" tushunchasi uzluksizlik, bog'lanish yoki yo'naltiruvchi kabi turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin.

Shu sababli, tarjimon "umumiy mavzu" metaforasini tarjima qilayotganda, metaforik ma'noni adekvat yetkazish uchun ushbu madaniy tushunchalarni o'z tilda qanday eng yaxshi tarzda ifodalash kerakligini diqqat bilan ko'rib chiqishi kerak. Muvaffaqiyatli tarjima metaforik ma'no saqlanib qolishi va o'quvchi tomonidan tushunilishini ta'minlash uchun manba va maqsad tillarning madaniy kelib chiqishini chuqur tushunishni talab qiladi.

Muloyim va hurmat shakllida so'zlovchilar o'rtasidagi hurmat, xushmuomalalik va ijtimoiy masofani ifodalash uchun ishlatiladigan lingvistik vositalardir. Bu xushmuomalalik shakllari bir madaniyatdan boshqasiga sezilarli darajada farq qiladi va tilning turli tomonlarini, masalan, salomlash olmoshlari, xushmuomala zarrachalar, xushmuomalalik fe'llari yoki muayyan ifoda shakllarini o'z ichiga olishi mumkin.

Tarjimon shuni bilishi kerakki, hurmat va odob shakllarning to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi mo'ljallangan xushmuomalalik yoki hurmatni ifodalash uchun etarli bo'lmasligi mumkin, chunki bu shakllarning madaniy ma'nolari va ijtimoiy ma'nolari farq qilishi mumkin. Shunday

#### ADABIYOTLAR

1. Введение в перевод: Учеб. пособие для студ. филол. и лингв. фак. высш. учеб. заведений. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ; М.: Издательский центр «Академия», 2004. - 352 с. 3-бет.
2. Худойберганаева Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 33.
3. Ҳамроев Ҳ. Миллий хос сўзлар-реалиялар ва бадий таржима// Таржима маданияти (Мақолалар тўплами)- Тошкент, 1982.-Б.158
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: 2000-2006.
5. А. Кодирий. «Ўткан кунлар»– «Илм - зиё - заковат » Тошкент - 2019– Б. 6
6. Abdulla Kodiri. Die Liebenden von Taschkent. Verlag Kultur und Fortschritt, Berlin • L. N. 3-285/15/68
7. Шухрат Сирожиддинов, Гулноза Одилова. Бадий таржима асослари. Монография- Тошкент «Mumtoz so'z» 2011. 10-бет.
8. Abdulla Qahhor "Anor". – Ёшлар нашриёт уйи. 2018. – С. 193
9. G'ofur G'ulom Der Granatapfel. – Akademyashr. 2013. – B. 193
10. Langenscheidt KG, Berlin und München. Elektron dastur lug'ati.
11. Sodikov Dilshodbek Kobilovich. "Anor" asarining nemis tilidagi tarjimasiga doir ayrim mulohazalar O'zbekistonda zamonaviy lug'atshunoslik va Tarjimashunoslikning dolzarb masalalari. Andijan, 2023-yil 15-sentabr 273-278-b.
12. Sodikov Dilshodbek Kobilovich. "Anor" asari tarjimalarining o'ziga hos lingvistik va lingvokulturoloqik tadqiqi. Сўз санъати халқаро журналі. № 4 (2023) DOI http://dx.doi.org/10.26739Z2181-9297-2023-4. 6 jild, 4son. 168-172 b.
13. Sodikov Dilshodbek Kobilovich. Some remarks on the translation of uzbek artistic works into german language. Ethiopian international journal of multidisciplinary research. Volume 10, Issue 10.
14. SJIF 2019: 4.702 2020: 4.737 2021: 5.071 2022: 4.919 2023: 6.980. 313-316 b.

ekan, tarjimon o'z tilidagi odobli shakllarni adekvat aks ettirish uchun ijodiy yechimlarni topishi va so'zlovchilar o'rtasidagi ijtimoiy dinamika va hurmatni saqlashni ta'minlashi kerak. Bu til va madaniyatning o'tkir tuyg'usini, shuningdek, xushmuomalalikning turli darajalari va ularning konteksti o'rtasida harakat qilish qobiliyatini talab qiladi.

Quida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridan olinga parchada ushbu tahlilni misol orqali ko'ramiz:

"Отабек меҳмонларни танчага ўтқузиб, фотиҳадан сўнг Ҳасаналидан сўради.

-Тузукмисиз ота?"

Ота - 2. Yoshi katta kishilarga murojaat qilishda yoki ularni hurmatlash uchun ishlatiladi. Otalar so'zi - aqilning ko'zi. Maqol[4].

Nachdem sich die Gäste an den Sandal gesetzt hatten und die Fatiha gesprochen war, fragte Otabel den Alten: „Wie fühlt Ihr Euch, Verehrungswürdiger?“

ver·eh·rungs·wür·dig ADJ nicht steig. geh

so, dass jd es wert ist, dass man ihn verehrt

Er ist ein verehrungswürdiger Meister.

„hurmatga loyiq.

Shunday qilib, kimdir sajda qilishga loyiqdir.

U hurmatli usta“

Bu o'rinda tarjimon „Ota“ so'zini tog'ridan to'g'ri ma'nosida emas, balkim hurmat qilish ma'nosida qo'llanilganini o'quvchiga yetkazib uchun Verehrungswürdiger „Xurmatli“ so'zini qo'llagan.

**Xulosa.** Tarjima jarayoni uchun til madaniyati hodisalarining dolzarbligini ta'kidlaydi. Bu hodisalar tarjimaning sifati va ta'sirchanligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Muvaffaqiyatli va madaniy jihatdan mos tarjimaga erishish uchun manba va maqsadli tillarning madaniy jihatlarini chuqur tahlil qilish va chuqur tushunishni rivojlantirish kerak.

Ishda ta'kidlanganidek, keltirilgan misollar tarjimonlar lingvistik madaniyat hodisalari qo'yadigan murakkab muammolarni qanday hal qilishlari mumkinligini ko'rsatadi. Tegishli tarjima strategiyalarini qo'llash va madaniy nuanslarni hisobga olgan holda tarjimonlar manba matnning maqsadli tilga to'g'ri va madaniy jihatdan mos tarjimasiga erishishlari mumkin.

Shu tariqa tarjimaga nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy jihatlarini ham hisobga oladigan fanlararo yondashuv muhimligini ta'kidlaydi. Tarjimonlar bu omillarni to'liq anglagan holdagina globallashtirish va madaniy jihatdan xilma-xil dunyo ehtiyojlariga javob beradigan yuqori sifatli va samarali tarjimalarni yaratishi mumkin.



*Zavqiddin SUVONOV,*  
Renessans ta'lim universiteti professori v.b., filol.f.d. (DSc)  
E-mail: [suvanovzavqiddin1986@gmail.com](mailto:suvanovzavqiddin1986@gmail.com)

*Tosh DO'TAU professori, filol.f.n. A.Ulug'ov taqrizi asosida*

### TRAGIK VAZIYAT YOXUD HAYOT VA O'LIM CHEGARASI

Annotatsiya

Romanning yetakchi g'oyasi qahramonlarning narigi dunyodagi baxtli hayotdan umidvor bo'lishdan ko'ra, turmush qonunlari va sharoitlari yanada takomillashuviga ishonishidir. Romanda Botir va Dilbar obrazining shajarasi bayoniga kalit so'z sifatida qarash va tasvir o'zining shu asosga bog'lanishi yaxshi samara bergan.

**Kalit so'zlar:** Tragik vaziyat, hayot va o'lim chegarasi, siyosiy tutqunlik, milliy o'zlik, satirik kulgu.

### THE TRAGIC SITUATION OR THE LIMIT OF LIFE AND DEATH

Annotation

The leading idea of the novel is that the characters believe that the laws and circumstances of marriage will be further refined, rather than hoping for a happy life in the Otherworld. In the novel, it was good to look at the statement of the genealogy of the image of The Godfather and the image itself as a key word, and the attachment of the image itself to this basis.

**Key words:** The tragic situation, the limit of life and death, political captivity, national identity, satirical laughter.

### ТРАГИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ ИЛИ ПРЕДЕЛ ЖИЗНИ И СМЕРТИ

Аннотация

Ведущая идея романа-Вера героев в дальнейшее совершенствование законов и условий жизни, а не в надежду на счастливую загробную жизнь. В романе хорошо сказался взгляд на генеалогическое повествование образа батыра и Дилбара как на ключевое слово и привязка рула образа к этой основе.

**Ключевое слово:** Трагическая ситуация, грань жизни и смерти, политический плен, национальное самосознание, сатирический смех.

**Kirish.** Tog'ay Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romani ijodkorning boshqa asarlari kabi jamoatchilikda yaxshi fikr uyg'otdi, qaysidir ma'noda ijodining sarxilligini yuzaga chiqarishda manba vazifasini o'tadi. Chunki asar qahramonlari ruhiy po'rtanalar qurshovida, hissiy alangalar sirtmog'ida yurgandek taassurot qoldiradi kishida. Bu roman fransuz tiliga tarjima qilinib, Parijdagi "Les Editions DU NET" nashriyotida bosilib chiqqan. Mislsliz san'at asarlari mangu yashaydi. Ular bir millat yo elatning mulki sanalmas, balki butun bashariyatning mulkidir.

Asarda yigirmanchi asrning o'ttizinchi yillaridagi ocharchilik davri jarohatlari hamda shusiz ham siyosiy tutqunlik aro azoblar qurshovida qolgan oddiy xalq va ularning kechmish-kechirmishi tasvirlanadi. Asarda ijtimoiy hayot va psixologik tavsifga keng urg'u beriladi. Muallif sovet tuzimi davrida xalqning boshiga tushgan savdolar va ijtimoiy jarayonni ko'rib turgan kishidek bayon qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Asarda obrazlar statistikasiga e'tibor qilsak, ular 43 nafarni tashkil etadi. Muallif obrazi bilan 44 nafardir (agar joiz bo'lsa). Qodir qul, Xolmat malay, Eson xizmatkor, Botir qo'shchi, Botir qo'shchining xotini, qorovul, dehqonlar, ona, bola, Mirzaxo'jaboy, Zaynab, Obod, komandir, Ashir momo, Chori bobo, NVKDchilar, xodimlar, Dilbar, Yo'ldosh Oxunboboyev, Xrushchev, Brejnev, Sharof Rashidov, Rajabov, Madiyev, To'raqulov, To'raqulovning o'g'li, Mirzayev, Klara, diniy-ruhiy bemorlar, tarixchi ruhiy kasallar, boyvachcha bemorlar, harbiy qonun-qoida qurbonlari, ixtirochi kashfiyotchilar, direktor, direktor o'rinbosari, laboratoriya mudiri, yuristlar, Grigorenko, Suslov, Hanifa

Rajabovna, go'rkov, toshbitikchi, shofyor. Asar 74 bobdan iborat.

Asar "Davarning yangilanishi jarayonida o'z e'tiqodidan voz kech olmay qiynalayotgan kishining o'y-iztiroblari tahliliga bag'ishlangan. Bu asari istiqloldan so'nggi yillarda yaratilgan romanlar orasida millat kishisining milliy qiyofasi, dunyoqarashi" [1], diniy va milliy o'zligini tanishi orqali jamiyatning muhim muammolarni yorqin bo'yoqlarda aks ettiradi.

Asar "Tagi ko'r maganga gilam bitmasin" degan maqol bilan boshlanadi. Qahramonning ajdodlari qul, malay, xizmatkor o'zi esa qo'shchi bo'lgani aytiladi. Zoti, tagi bunday mansab ko'r maganlar birdan o'zgarib qolishi tabiiy hol. Ijodkor folklorini yaxshi tushunib, unumli foydalana bilgan. Birinchi bobda aytmochi bo'lgan fikrni o'sha maqol bilan ifodalab qo'ya qoladi.

Asar qahramoni Botir qo'shchi, muallifning boshqa romani qahramoni Dehqonqulning "rahbar" shakli. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi, chunki kelishimiz ham, ketishimiz ham Yaratganning xohishi bilan bog'liq. Xudkushlik haqida esa gap bo'lishi mumkin emas. Asar qahramoni yurt taraqqiyoti uchun kuyib-pishib mehnat qiladi. Uning qayg'usi oila tashvishi-yu, bola-chaqa emas, "yuqori"dan kelgan topshiriqni xalq orqali bajarib, o'lka rivojiga bosh qo'shish. U shu bilan o'zini baxtiyor hisoblaydi.

Asarda odamning e'tiqodiy tuyg'ulari tasviri jonli aks etgan. Bunda muallif va Botir firqa qarashlarining uyg'unligi aks etgandek ko'rinadi. "Yetmish uch bobdan iborat romanning o'ttiz to'rttasida qahramon harakatda, iztiroblar ichida, tuyg'ular og'ushida ko'rsatiladi. Obraz dinamikasi sezilib turadi. Qolgan o'ttiz to'qqiz bobida esa Botir firqa

muallif istagan gaplarni gapiradi-yu, u buyurgan ishlarni qiladi" [2]. Adabiyotshunos asarni shaklan kuzatib, bir bobga yanglishib, 73 bob deydi va adashadi. Adib umri davomida yozgan asarlarini tahrir qilib, so'zlar ustida ishlab turgan. Ammo bizning qo'limizdagi "Tanlangan asarlar"da mazkur asar 74 bobni tashkil etadi.

O'sha davr o'zbek xalqining ongida kechgan jarayon Botir firqa obrazi orqali yorqin aks ettirilgan. Rahbarlar shunday fikrlagan, yo'qsa vazifasidan chetlatilgan.

Romanda tuzumiga sidqidildan xizmat qilgan va "qayta qurish" davri tufayli hayotligidayoq unutilgan hamda beqadr bo'lgan el o'g'lonlarining taqdiri aks ettiriladi. Asar inson qadr-qimmat, jamiyat qusur va kamchiliklari haqida bitilgan. "Shu boisdan ham, roman yetakchi qahramoni Botir firqa umr shomida achchiq hayot yo'lini qayta idrok etibgina qolmay, balki jamiyat va odamlar tabiatini ham xolis baholaydi. Shuhratparast, mansabparast, munofiq kimsalarning intilishlaridan qattiq ruhiy iztirob chekadi. Chunki roman o'tgan asrning so'nggi yillari sabog'i, xalq yakdilligini taminlash, Vatan ravnaqi yo'lida sidqidildan mehnat qilish zarurligi, yurt istiqbolini haqida bitilgan asardir" [3]. Asarda xalq ko'rib turgan nohaqligi malomatlarga chidam bilan dosh bergan, har ne ko'rguliklar bo'lsa-da ertasiga umid-ishonch bilan boqqan, kuch qudratda tengsiz hamda yengilmas xalq tafakkuridagi mangu erk g'oyasi o'z ifdasini topgan.

Munaqqidlarning asar qahramoniga bildirgan munosabatlari har xil va aynan, Botir firqani ijodkorning boshqa qahramonlaridan farqlaydi. "Botir firqa esa oq-qorani taniydigan rahbar xodim. Hamma narsaga aqli yetadi. O'zi qilayotgan, amalga oshirayotgan ishlarining nojo'ya ekanligini bilib turgan holda o'z davri arbobi sifatida tuzum siyosatini amalga oshirishda sobit turgan, bu yo'lda hech kimni o'zini ham, o'zgalarni ham ayamagan"[4]. Uning taqdiri kulgili va ayanchli holati asar dinamikasida yorqin namoyon bo'ladi.

Tadqiqot institutining direktori va o'rinbosarlari olimning ilmiy faoliyatga sherikchilik qilishni xohlab qolishini qanday tushunish kerak? Shunday illatlar evaziga o'zbek adabiyotshunosligi dunyo miqyosida targ'ib-u tashviq qilinmayapti. Buni yozuvchi qahramoniga yuqtiradi. Satirik kulgu orqali jamiyatning kirdikorlarini ochishga harakat qiladi.

Aslida, ruhiy kasallar deb jinnixonada saqlanayotgan shaxslar jamiyatning avangardlari, sog'lom fikrli kishilari hisoblangan. Shifokor esa, ularni sovet meditsinasining "so'nggi yutuqlari" asosida davolayotganini aytib adashga urinadi. Ham diniy va dunyoviy bilimlarni o'zida mujassam etgan shaxslar tuzum qurboni. Arboblari, biror xalqni yo'q qilish uchun uning manaviyatiga chang solishni maslahat berisharkan. Agar bu asarni davr nuqtai nazaridan avvalroq yozib e'lon qilsaydi, bu avtor fojiasi bilan tugardi. Biz satirik kulgu deb baholayotgan yuqoridagi holat bosh obraz Botir firqani qanchalik o'ziga solganini asar mutolaasi jarayonida his qilamiz. "Komandir sheriklariga nazar soldi. — Ana, o'rtoq rais ikkitadan kulcha beraman, deydiki, — dedi. — Bitta shu... o'likka rahm-shafqat qilaylik. Kelinglar, uyiga olib borib qo'yinglar" [5]. Aslida tirik-o'liklarni ko'mish nafaqat shariat qoidalari, balki odamiylikkayam zid. Buni "ular" ilg'amasada, firqa ich-ichidan sezadi. "Ocharchilikni emas, ochlarni tugatishga kirishgan hukumat odamlari tomonidan bo'lajak o'liklar handaqlarga ko'mib tashlanayotgan vaqtda aytilgan bu gaplarda Tog'ay Murod Surxon o'lkasigagina xos yumordan foydalangan. Vaziyat o'ta fojiaiy, ammo aytilayotgan gaplar kulgu qo'zg'aydigan. Lekin nafaqat personajlar, balki o'qirman ham kula olmaydi. Basharti, kulganda ham, kishida adoqsiz mung uyg'otadigan kulgi yuzaga kelgan bo'lardi. Shunisi ham borki, chin kulgi hamisha darddan suvlangan bo'ladi va odamni g'amga yovuqlashtiradi"[6]. Oddiy qo'shchining biror oliy ta'lim muassasasini tamomlamasdan

tuman hokimi darajasiga erishishi o'sha davr siyosiy muhitining biz o'zbeklar uchun yaratgan "imkoniyati" edi.

Tog'ay Murod shaxsi va uning qahramoni Botir firqa ruhiyatida ayrim birxilliklar ko'zga tashlanadi deydi, ayrim adabiyotshunoslar. Chunki yozuvchi tarixiy jarayonni bir o'zbek amaldori misolida jonlantirdi. Uning qahramoni ba'zan ocharchilik qurbonlariga achinsa, ba'zan sovet meditsinasining yutuqlaridan qahrlandi, ba'zan esa diniy arboblari chiqishlariga kinoya bilan qaraydi.

O'quvchi oldida adib ijodini chuqurroq anglash muammosi turadi. Badiiy asarga yozuvchi ilgari surgan g'oyasidan, uning ma'naviy va ijtimoiy dunyoqarashini anglagan holda yondashish talab etiladi. Qahramonlar xarakter mantig'ini chuqurroq bilish uchun ijodkor konsepsiyasini bilish lozim. Bu holatni to'g'ri tushinishda obraz harakat qiluvchi tarixiy sharoit, yozuvchi yashagan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, mafkuraviy muhit, adabiy jarayon, yozuvchi uslubi kabi omillarni e'tiborga olish lozim.

Asardagi har bir voqea tafsiloti va qahramonlar qiyofasi, nutqi va ichki o'y-kechinmalari talqinida shahar hayoti va xalq turmushini ich-ichidan bilgan va o'sha jafokash odamlar qalbiga ko'nglini payvand qilib, ularga astoydil hamdard bo'la olgan haqqo'y bir adibning o'tkir nigohi, chuqur ijodiy mushohadakorligi va ezgu niyatlari sezilib turadi. Roman shu jihatlari bilan ham bizni o'yga toldiradi.

Adabiy tur va janrlar, uslub va tasviriy vositalarga ko'ra obrazlar ma'lum guruhlariga bo'linadilar. Satirik obrazlarda hayotdagi qusurlar ustidan zaharanda kulgu, masxaralash usuli yetakchilik qiladi. Qahramonlardagi tashqi jihatdan ko'zga ko'rinmaydigan, lekin ongimiz orqali sezishimiz mumkin bo'lgan yaramas odatlar fosh etiladi. "Qo'llarini orqa etdi. Yo'q qorinni olg'a surdi. Yo'q qorinni olg'a suraman deya... ketiga chalqayib qoldi. Yo'q qorin oldinda qoldi... Ketgi ichkari kirib yo'qoldi. O'zi ketiga chalqayib qoldi" [7]. Botir qo'shchining shunga o'xshash mimikalari o'ziga nisbatan kulgu qo'zg'atadi kishida.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Metodologik nuqtai nazardan inson psixologiyasini yaxshi tushungan adib qahramon ruhiy holati tasvirini berar chog'i chalg'imasdan ong osti voqeligini chuqur ilg'aydi va o'quvchiga o'ta topqirlik bilan yetkaza oladi. Bu haqda qahramon holatini tushuntirishga harakat qilgan professor Umarali Normatovning quyidagi fikrlari asosli. "Botir firqa butun vujud bilan firqa, kommunistik e'tiqod odami bo'lsa-da, qalbi tubida chin insoniy, milliy, umumbashariy, qolaversa, islomiy tuyg'ular ham pinhona maskan tutgan. Payti kelganda ular yuzaga qalqib chiqdi, o'sha mash'um zamonlarda uni imkoniyat doirasida amal qilgan e'tiqodiga zid savob ishlarni ham ado etishga undaydi. Qalb tubidagi shu noyob tuyg'u bu g'aroyib tabiat kimsani bugungi mushkul, chigal ruhiy qiynoqlar girdobidan chiqishida birdan-bir najot "kalit"i vazifasini o'taydi"[8]. Bunda ijodkor va qahramon qarashlari izchillik kasb etsa-da, o'tish davri odamlari taxayyul olamidagi evrilishlarni uchinchi shaxs munaqqid, ya'ni professor U.Normatov ham ilg'aydi. Shoir Cho'lpon iborasi bilan aytganda: "Xayol, xayol... Yolg'iz xayol go'zaldir. Haqiqatning ko'zlaridan qo'rqaman" deb nola qilingan bir zamonda yashagan ajdodlar portretini yaratish uchun ular dunyosiga kirish ham osonmas.

Tog'ay Murod qahramonlari haqiqatan murakkab obrazlardir. Tuban ishlarni qilishga qodir obrazga juda yomon sifatini berib bo'lmaydi. Chunki o'sha personajni shu holga tushishiga sabab bo'lgan omillar sababi asar fabulasida yarq etib ko'rinadiki, o'quvchi sabab-oqibatini anglagan holda qabul qiladi. Botir firqa nutqida "ammo-lekin" degan zid bog'lovchi odat tusiga kirgan. Bu xislat qahramon xarakteriga ham yuqadi. Uning ongida diniy va dunyoviy qarashlar miqyosi to'qnash keladi. Qahramon shu azoblar iskanjasida

qovriladi va umri poyonida, hayot va o'lim chegarasida jamiyatdan norozi kayfiyatni tuyadi.

**Tahlil va natijalar.** Shaxsning jamiyat bilan munosabati o'z tabiatidan begonalaishi uni ko'plab fojialarga duch qilishi mumkinligi ayonlashadi. "Shuningdek, hayot va o'lim muammosi mohiyatini anglatishda masalaning tabiiy-biologik va milliy-islomiy talqinlariga, ijtimoiy-psixologik jihatlariga urg'u berdi. Bu esa personaj ichki olamini tadqiq qilish imkonini yaratdi... Ayni vaqtda o'lim ruhiy poklov vazifasini ham bajaradiki, buni o'zligidan ayri borayotgan insonning najot yo'li deb taqdim qilindi"[9]. Shu tufayli qahramon nazarida o'lim o'tkinchi dunyodagi munosabatlarga barham beradigandek. Tog'ay Murod qahramonini arosatga qo'yib, o'tmish asoratlarini ayovsiz fosh etadi. Botir firqa dunyoqarashida milliy ruh hamda kommunistik tushunchalar bilan shakllangan iymon-e'tiqod bahslashadi.

Asar motivi buni bunyodkorlik ruhi, moddiy dunyoni yashartirish istagi kuchli. Qahramon maishiy-axloqiy, diniy-ilohiy va estetik qadriyat kishisi sifatida qayta tug'iladi. Roman poetikasini tushunish va tushuntirishda yuqoridagi jihatlar e'tiborda tutilishi kerak.

Asarda Botir firqa, Rajabov, Madiyev va Dilbar dunyoqarashidagi ko'zga tashlanadigan ba'zi farq va tafovutlarga e'tibor qaratiladi. Adib sovet mafkurasiga sadoqatli kishilar va qayta qurish kayfiyatidagi "yangicha" fikrlaydigan yoshlar qarashlari orqali o'sha payt ijtimoiy-siyosiy muhitini ochib berishga harakat qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Asarda aynan shu ikki (Botir firqa, Dilbar) obrazning shajarasi bayoniga kalit so'z sifatida qarash va tahlil o'zanini shu asosga bog'lash yaxshi samara beradi. Biz asar tahlilida qahramonlar tabiati va asarda tutgan badiiy vazifasini muallif adabiy-estetik qarashlari asosida qo'yilgan muammoga yechim topishga harakat qildik. Darhaqiqat, asarda Tog'ay Murodning dard-hasratlarini yuzaga chiqaradigan murakkab obrazlar mavjudligi ko'zga tashlandi. Asarni muallifning shu roman xususida bildirgan qaydlari orqali tekshirish tahlilda aniq xulosalar chiqarishga yordam berdi.

Adibning asarni yozishiga turtki bo'lgan omillardan biri jamiyatdagi tub o'zgarishlar ekanligini ilg'aymiz. Shu jihatdan asar qahramonlarida yozuvchining badiiy niyati qay darajada aks etganini ko'rishimiz mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Дониярова Ш. Истиклол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон муаммоси. Филол. фан. д-ри. ... дис. – Тошкент: 2012 – Б. 116.
2. Йўлдош Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 116.
3. Ёкубов И. Ўзбек романининг маънавий-рухий асослари // Шарқ юлдузи. – Тошкент: 2011. – 4-сон.
4. Норматов У. Беназир истеъдод соҳиби. Отамдан қолган далалар романига сўзбоши. – Тошкент: O'zbekiston НМИУ, 2018. – Б. 3-10.
5. Тоғай Мурод. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 218.
6. Йўлдош Қ. Сўз ёлқини. – Тошкент: Ғафур Ғулум НМИУ, 2018. – Б. 285.
7. Тоғай Мурод. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 206.
8. Норматов У. Нафосат гурунглари: адабий-танқидий мақолалар, эссе, хотира, қайд ва суҳбатлар. – Тошкент: Muhaqqir, 2010. – Б. 225.
9. Хамроқулова Х. XX аср ўзбек насрида ҳаёт ва ўлим муаммосининг бадий талқини. Филол. фан. д-ри. ... дис. – Тошкент: 2018. – Б. 216.



*Mohira TURSUNOVA,*  
Namangan davlat chet tillari instituti tadqiqotchisi  
E-mail: mohiratorsunova1105@gmail.com

NamDCHTI dotsenti O.Dadaboyev taqrizi asosida

### FANTASTIK ADABIYOTNING BADIY XUSUSIYATLARI

Annotasiya

Adabiyotda va boshqa san'atda aql bovar qilmaydigan hodisalarni tasvirlash, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan badiiy tasvirlarni kiritish, rassomning tabiiy shakllar, sababiy munosabatlar va tabiat qonunlarini bo'rttirib tasvirlanishi fantastik adabiyotning asosi hisoblanadi.

Ushbu maqolada fantastik adabiyotning badiiy xususiyatlari, xususan, uning boshqa yo'nalishdagi badiiy asarlardan kompozitsion, syujet qurilishidagi farqlari, ilmiy fantastika va fentezi yo'nalishining o'zaro o'xshash va farqli tomonlari tadqiqi kabi masalalar ilmiy tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** Fantastika, adabiy yo'nalish, janr, badiiy xususiyat, ilmiy fantastika, fentezi, syujet xususiyatlari, kompozitsion xususiyatlar.

### ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФАНТАСТИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация

Описание невероятных явлений в литературе и другом искусстве, введение нереалистичных художественных образов, преувеличенное изображение художником природных форм, причинно-следственных связей и законов природы-вот основа фантастической литературы.

В данной статье анализируются художественные особенности литературы в жанре фэнтези, в частности, ее отличия по композиции и сюжетному построению от других жанров художественной литературы, исследование взаимных сходств и различий между научной фантастикой и фэнтези.

**Ключевые слова:** Художественное произведение, литературное направление, жанр, художественная особенность, научная фантастика, фэнтези, сюжетные особенности, композиционные особенности.

### ARTISTIC FEATURES OF FANTASTIC LITERATURE

Annotation

The description of incredible phenomena in literature and other art, the inclusion of unrealistic artistic images, the exaggeration of the artist's natural forms, causal relationships and laws of nature are the basis of fantastic literature.

This article analyzes the artistic features of literature in the fantasy genre, in particular, its differences in composition and plot structure from other genres of fiction, and a study of the mutual similarities and differences between science fiction and fantasy.

**Key words:** Fiction, literary movement, genre, artistic feature, science fiction, fantasy, plot features, compositional features.

**Kirish.** Adabiy jarayonda yangi yo'nalishlar va uslublarning shakllanishi va taraqqiyoti adabiy hamda umumiy madaniy makonda sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. Xalqaro va milliy madaniyat paradigmalari sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, texnologik va madaniy jarayonlarni tasvirlash uchun adiblar turli yangi va yangi usullarga murojaat qilishadi. Natijada adabiyotda yangi yo'nalishlar paydo bo'lishiga sababchi bo'ladilar. Adabiy jarayondagi ana shunday hodisalardan biri bu fantastik adabiyotning paydo bo'lishidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XX asr ikkinchi yarmiga kelib fantastik adabiyotga mustaqil adabiy hodisa sifatida tilshunoslik va adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida yondosha boshlandi. Bu borada rus adabiyotshunoslari olib borgan ishlar alohida ahamiyatga ega. Xususan, G.I.Gurevichning 2 ta kitobi ilmiy fantastika tadqiqotiga bag'ishlangan bo'lsa [1] [Гуревич Г.И. 1983], E.P. Brandis o'zining qator ilmiy ishlarini fransuz fantast-yozuvchisi Jyul Vern ijodiga va ilmiy fantastik romanchilikning rivojlanish masalalariga bag'ishlagan [2] [Брандис Е.П. 1981].

Shuningdek, A.F. Britikov sobiq sovet ittifoqi rus adiblari qalamiga mansub romanlar tadqiqi bilan shug'ullangan va birinchi bo'lib mamlakatdagi ilmiy-fantastik adabiyotni tarixiy-adabiy jihatdan tadqiq etgan. Uning mazkur

tadqiqoti 1917-1967 yillarda yozilgan fantastik adabiy asarlarga bag'ishlangan [3] [Бритиков А.Ф. 1970].

S.L. Koshelev esa XX asrning 50-60-yillari ingliz adabiyotidagi ayrim yozuvchilarning fantastik asarlaridagi falsafiy qarashlarni o'rgandi [4] [Коселёв Л.С. 1983]. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur adabiyotshunos olimlar o'z tadqiqotlarida birinchilardan bo'lib ushbu yo'nalishning badiiy usullari va janr xususiyatlarini tizimlashtirishga uringanlar. Biroq, hozir ham fantastik adabiyotning lingvistik, kompozitsion, syujet xususiyatlari ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy qiziqishlari markazida bo'lib qolmoqda.

Ta'kidlash joizki, fantastika zamonaviy adabiyotshunoslikda keng talqin qilinadigan atamalardan biridir. Bu atama tasvirni yaratishda obrazli ifoda vositalari tizimini va fantaziya yetakchi mavzu bo'lib xizmat qiladigan adabiyot turini hamda adabiyotning bir yo'nalishini o'z ichiga oladi. L.I. Timofeyev ta'kidlaganidek, "fantastika bu ilgari o'rganilgan real hayot faktlari asosida tasavvurda tug'ilgan xayoliy g'oyalar va obrazlar dunyosi"dir [5]. [Тимофеев Л. И., Тураев С. В.1974].

S.P. Belokurovaning ta'kidlashicha, "fantastika – bu tasvirning o'ziga xos fantastik turiga asoslangan badiiy adabiyot turi bo'lib, yuqori darajadagi an'anaviylik, voqelik me'yorlari, mantiqiy aloqalari va qonunlarining buzilishi, badiiy to'qimaga yo'naltirilganlik, o'ylab topilgan "ajoyib"

olamlarni yaratish kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi[6] [Белокурова С. П. 2007].”

Xuddi shu nuqtai nazarni I.V.Golovacheva quvvatlagan holda, fantastikaning o'ziga xosligini ta'kidlaydi[7] [Головачёва И. В. 2013]. T.V.Timoshenko ham “fantastika o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy-madaniy dinamikani aks ettiradi” deb ta'kidlaydi[8] [Тимошенко Т. В. 2003].

S.Todorovning fikricha, quyidagi uchta shart bajarilsa, adabiy asarni fantastik janrga kiritish mumkin:

fantastik adabiyot matni o'quvchini qahramonlar dunyosini tirik odamlar olami deb bilishga majbur qilishi va tasvirlangan voqealarning tabiiy va g'ayritabiiy izohlari o'rtasida tanlov qilishda ikkilanishni boshdan kechirishi kerak;

shu kabi ikkilanishlarni qahramonlar ham boshdan kechirishlari kerak, buning natijasida “ikkilanishlar tasvirning mavzusiga, asar mavzularidan biriga aylanadi”;

o'quvchi “matnga nisbatan ma'lum bir pozitsiyani egallashi kerak: ham allegorik, ham “poetik” talqindan voz kechishi kerak[9].

S.Todorovning fikricha, hodisaning tabiiy yoki g'ayritabiiy xarakterga ega ekanligi haqidagi qahramon va o'quvchining ikkilanishlari orqali fantastika yaratiladi.

**Tahlil va natijalar.** Fantastika – bu voqelikni reproduksiya qilish usuli bo'lib, unda voqelik ijodkor tomonidan shu darajada qayta yaratiladiki, muallifning taxmini darajasi mavjud voqelikning bir qator elementlarini qandaydir buzilishdan tortib to ana shu voqelikni keng ko'lamlil qayta qurilishini ham nazarda tutishi mumkin.

Zamonaviy adabiy tanqidda fantastik adabiyotning ikki yo'nalishga bo'linishi nazarda tutilgan: fantastika (ilmiy fantastika) va fentezi.

Ilmiy fantastika ijodining o'ziga xos xususiyati uning voqealarni oldindan bilishidir. Fantastikaning negizida ilmiy tahlil san'atning xayoliy tafakkuri bilan o'ziga xos kombinatsiyasi natijasida hosil bo'lgan ehtimollik prognozi yotadi. Bu jihat ushbu atamaning ta'riflarida o'z aksini topgan: “Ilmiy-fantastika - bu o'z davrining tabiiy ilmiy qarashlariga zid bo'lmagan ilmiy kashfiyotlar, texnik ixtirolar yoki tabiat qonunlaridan foydalangan holda, ratsional xarakterdagi farazga asoslangan fantastik adabiyot turidir”[10] [Николютина А. Н. 2003]. Ilmiy fantastika insonning g'ayrioddiy narsalar va fantastik loyihalarga to'la mukammal dunyo haqidagi orzularini aks ettiradi. Uning yordami bilan inson imkonsiz narsani tasavvur etish va kelajakni bashorat qilish uchun kundalik voqelikni, modellarni, taxminlarni, tajribalarni amalga oshiradi. Bu ilmiy-fantastik asarlarning kitobxonlar orasida ommabopligini belgilaydi, lekin shuni ta'kidlash kerakki, ilmiy fantastika vazifalari faqat ilmiy qarashlar va dunyoni tushunish usullarini rivojlantirish bilan cheklanmaydi.

Matn tarkibi, syujet arxitekturasi, stilistik xususiyatlar, til, personajlar, ko'tarilgan muammolar, psixologik xususiyatlar - adabiyotning har qanday yo'nalishi, fantastikada hamma narsa mavjud. Ilmiy fantastika - bu undan biron bir narsa qo'shimchaning uslubida kesilgan yarim xayoliy tushuncha emas, (dangasa va tajribasiz odamlar uchun soddalashtirilgan, yengil versiya), aksincha bu adabiyot va umuman, adabiy vosita bo'lgan fantastik tahmin bo'lib keying iinovatsiyalarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta'kidlab o'tamizki, ilmiy fantastika ildizlari qadim zamonlarda - mifologiya, ertak, afsonalar, keyinchalik - gotik romanlar, sarguzasht romanlar va umuman olganda romantizmga bog'liq.

Fentezi badiiy adabiyotning o'ziga xos yo'nalishi bo'lib, unda real, fantastik, mistik chegaralar xiralashadi va syujet irratsional xarakterdagi taxminlarga asoslanadi. Bu taxmin matnda mantiqiy asosga ega emas, u ilmiy fantastikadan farqli o'laroq, oqilona tushuntirib bo'lmaydigan

faktlar va hodisalar mavjudligini taxmin qiladi. Fentezi mualliflarining vazifalari o'zlarining iloji boricha haqiqiy va ishonchli bo'lishi kerak bo'lgan virtual dunyosini yaratishni o'z ichiga oladi.

Fantastika va fentezi yo'nalishlarida yaratilgan badiiy asarlarni farqlash uchun biz E.N.Kovtunning bu boradagi fikriga murojaat qilishimiz o'rinni. Uning ta'kidlashicha, hozirda haqiqatda kuzatilmaydigan (lekin kelajakda yoki prinsipial jihatdan unda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan) holatlar bilan ilmiy fantastika shug'ullanadi. Dunyo haqidagi zamonaviy ilmiy g'oyalar nuqtai nazaridan, “mutlaqo mavjud bo'lolmaydi” degan narsa fentezidir.[11] [Ковтун Е. Н. 2007]

Fentezi asarlari ko'pincha ilmiy tafakkur bilan bog'liq bo'lmagan va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot haqiqatlari bilan jihozlanmagan o'ziga xos, muallifning mifologik modelini yaratadi. Fentezining asosiy tarkibiy qismlari – bu xudolar, qahramonlar va yirtqich hayvonlar yashaydigan hamda yaxshilik va yovuzlik kuchlari o'rtasida majburiy va doimiy urush bo'lgan sehr-joduga to'la ajoyib hayoliy dunyo.

**Muhokama.** Ilmiy fantastik adabiyotda ham, fentezi adabiyotida ham o'zaro uyg'un belgilar va qonuniyatlar mavjud bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- fantastika va fentezining genetik ildizlari mif, ertak, sarguzasht adabiyoti bilan bog'liqdir;

- fantastikada dunyo va insonni ilmiy tushunishga asoslanadigan, fentezida esa mantiqiy motivga ega bo'lmagan faraz tamoyili, ilmiy izohlab bo'lmaydigan fakt va hodisalarning mavjudligi taxmin qilinadi;

- real dunyoga parallel ravishda xayoliy dunyoni yaratishni o'z ichiga olgan modellashirish prinsipiga asoslanadi. Bu olamlar bir-biri bilan qorishib ketishi, o'zaro qarama-qarshi qo'yilishi, solishtirilishi, turli proporsional munosabatlarda bo'lishi mumkin;

- “real – noreal” hodisalar va fenomenlar qarama-qarshiligi mavjud bo'ladi;

- “o'zgalor va o'zimiznikilar” qarama-qarshiligi mavjud bo'ladi;

- tasvirning fantastik turi (an'anaviylik, mantiqiy aloqalar va qoidalarning buzilishi).

Ilmiy fantastika - adabiyot, kino va boshqa san'at turlarida janr, fantastikaning bir turi sifatida, fan sohasidagi fantastik tahminlarga (fantastika, spekulyatsiya), shu jumladan aniq, tabiiy va gumanitar sohalariga asoslangan. Ilmiy fantastika xayoliy texnologiyalar va ilmiy kashfiyotlar, g'ayriinsoniy ong bilan aloqalar, tarixning mumkin bo'lgan kelajagi yoki muqobil yo'nalishini hamda bu taxminlarning insoniyat jamiyati va shaxsiyatiga ta'sirini tasvirlaydi. Ilmiy fantastika ko'pincha kelajakda sodir bo'ladi, bu janrni futurologiya va dunyo haqidagi bo'lgan bo'ladi.

Tanqidchi adabiyotshunos olimlar orasida ilmiy fantastika xususida bir necha munozaralar bo'lishiga qaramay, ularning aksariyati ilmiy fantastika ilm-fan sohasidagi ba'zi tahminlarga asoslangan adabiyot ekanligini ta'kidlaydilar: yangi ixtironing paydo bo'lishi, tabiatning yangi qonunlarining kashf etilishi, ba'zan hatto jamiyatning yangi modellarini qurish (ijtimoiy fantastika) kabilar.

Tor ma'noda ilmiy fantastika-super texnologiyalar va ilmiy kashfiyotlar, ularning hayajonli imkoniyatlari, ijobiy yoki salbiy ta'siri, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan paradokslar haqida fikr yuritadi. Bunday tor ma'noda ilmiy fantastika ilmiy tasavvurga ega bo'ladi, sizni kelajak va ilm-fan imkoniyatlari haqida o'ylashga majbur qiladi. Umuman olganda, ilmiyfantastika ertaksiz va tasavvufsiz fantastika bo'lib, unda fantastik voqealar va hodisalar g'ayritabiiy emas, balki ilmiy tushuntirishga ega.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytish lozimki, ilmiy fantastika ham, fentezi adabiyoti ham ma'lum bir umumxususiyat va shu bilan birga o'ziga xoslikka ega. Ilmiy fantastika o'tgan asrlarning fantastik an'analari ta'siri ostida



shakllangan va yangi sharoitlarda badiiy tasavvur va haqiqatni anglashning o'ziga xos fantastik shaklini rivojlantirish va davom ettirishdir.

Fantastik adabiyotning o'zbek adabiy jarayonida nisbatan yangi yo'nalish ekanini hisobga olgan holda uning

janr xususiyatlarini o'rganishda adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan atamalar unifikatsiyasiga ehtiyoj seziladi. Bundan tashqari, fantastik adabiyotning ichidagi o'nlab yo'nalishlarni klassifikatsiyalash va tizimlashtirish vazifasi juda dolzarbdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Гуревич Г.И. Карта страны фантазии. – М., 1967; Шу муаллиф. Беседы о научной фантастике. – М.: Просвещение, 1983.
2. Брандис Е.П. Жюль Верн и вопросы развития научно-фантастического романа. – Л., 1955; Шу муаллиф. Жюль Верн: Библиогр. указатель. – М., 1955; Шу муаллиф. Жюль Верн: Очерк жизни и творчества. – Л.: Детгиз, 1956. – 248 с; Шу муаллиф. Вперёдсмотрящий. Жюль Верн: Повесть о великом мечтателе. – М., Молодая Гвардия, 1976. – 224 с; Шу муаллиф. Рядом с Жюлем Верном: Документальные очерки. – Л.: Дет. лит., 1981. – 224 с.
3. Бритиков А.Ф. Русский советский научно-фантастический роман. – Ленинград: "Наука", 1970. 448 с.
4. Кошелёв Л.С. Философская фантастика в современной английской литературе (романы Дж. Р. Р. Толкина, У. Голдинга и К. Уилсона 50-60-х гг.). Автореф.дисс. кан.филол.наук. – Москва, 1983;
5. Тимофеев Л. И., Тураев С. В. Словарь литературоведческих терминов. М.: Просвещение, 1974. – С.432.
6. Белокурова С. П. Словарь литературоведческих терминов. СПб.: Паритет, 2007. – С.301.
7. Головачёва И. В. Фантастика и фантастическое. Поэтика и прагматика англо-американской фантастической литературы. СПб.: Петрополис, 2013. 420 с.
8. Тимошенко Т. В. Фантастика как социокультурный феномен: дисс. ... канд. филол. наук. Ростов-на-Дону, 2003. – С. 4.
9. Тодоров Ц. Введение в фантастическую литературу Введение в фантастическую литературу / Перев. с франц. Б. Нарумова. М.: Дом интеллектуальной книги, 1999. – С.144.
10. Николутина А. Н. Литературная энциклопедия терминов и понятий. М.: Институт научной информации по общественным наукам РАН, 2003. – С.621.
11. Ковтун Е. Н. Фантастика как объект научного исследования: проблемы и перспективы отечественного фантаствоведения // Русская фантастика на перекрестье эпох и культур: материалы Международной научной конференции 21-23 марта 2006 г. М.: Издательство Московского государственного университета, 2007. – С.7.



**Ganisher KHUDAYBERGANOV,**  
Senior Teacher at University of Tashkent for Applied Sciences  
E-mail: khudayberganoganisher@gmail.com

Based the review of Sh. Khakimova - Doctor of Philosophy in Philology Sciences, UzSUWL

## FROM WORDS TO WORLDS: UNPACKING SOCIOCULTURAL MEANINGS IN ADVERTISING THROUGH LINGUISTIC AND VISUAL ANALYSIS

Annotation

This article analyzes the sociolinguistic features of advertising language from a sociolinguistic perspective. It examines how advertisers employ specific linguistic techniques and language variations according to social factors to target different demographic groups effectively. The article analyzes examples of print and television advertisements to illustrate how these sociolinguistic features are strategically employed to target different audiences. Insights from this analysis contribute to understanding language's role in marketing communications and consumer behavior.

**Key words:** advertising language, sociolinguistics, language variation, register vocabulary, tone, imagery, persuasive appeals, target audience, demographics.

## “SO‘Z OLAMI”NING TA‘SIRI: LINGVISTIK VA VIZUAL TAHLIL ORQALI REKLAMADAGI IJTIMOYIY-MADANIY MA‘NOLARNI OCHISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada reklama tilining sotsiolingvistik xususiyatlari sotsiolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. U reklama beruvchilarning turli demografik guruhlarni samarali nishonga olish uchun ijtimoiy omillarga asoslangan muayyan lingvistik uslublar va til o'zgarishlaridan qanday foydalanishini o'rganadi. Maqolada bosma va televidenie reklamasi misollari tahlil qilinib, ushbu sotsiolingvistik xususiyatlar turli auditoriyalarni maqsadli ishlatish uchun qanday strategik tarzda qo'llanilishini ko'rsatadi. Ushbu tahlil natijalari marketing kommunikatsiyalari va iste'molchilarning xatti-harakatlarida tilning rolini tushunishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Reklama tili, ijtimoiy lingvistika, til o'zgarishi, ro'yxatdan o'tish, lug'at, ohang, tasvir, ishontiruvchi murojaatlar, maqsadli auditoriya, demografiya.

## ОТ СЛОВ К МИРАМ: РАСПАКОВКА СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ СМЫСЛОВ В РЕКЛАМЕ ПОСРЕДСТВОМ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО И ВИЗУАЛЬНОГО АНАЛИЗА

Аннотация

В данной статье анализируются социолингвистические особенности языка рекламы с социолингвистической точки зрения. В нем рассматривается, как рекламодатели используют определенные лингвистические методы и языковые вариации в зависимости от социальных факторов для эффективной ориентации на различные демографические группы. В статье анализируются примеры печатной и телевизионной рекламы, чтобы проиллюстрировать, как эти социолингвистические особенности стратегически используются для ориентации на различные аудитории. Результаты этого анализа способствуют пониманию роли языка в маркетинговых коммуникациях и поведении потребителей.

**Ключевые слова:** язык рекламы, социолингвистика, языковая вариация, регистрация, словарный запас, тон, образы, убедительные призывы, целевая аудитория, демография.

**Introduction.** Advertising plays a significant role in modern society by promoting products, services, and ideas. The language used in advertising aims to attract attention, persuade consumers, and ultimately influence purchasing decisions. Given its commercial objectives, advertising language employs specific linguistic techniques and sociolinguistic features.

Sociolinguistics examines how language varies according to social factors such as age, gender, social class, and context. When applied to advertising, sociolinguistic analysis reveals the strategic language choices made to target different demographic groups. Advertisers carefully craft messages considering sociocultural norms and values shared within communities. The linguistic styles adopted aim to connect with consumers on a personal level and build trust or authority.

This article analyzes key sociolinguistic features of advertising language. It explores how advertising utilizes language variation according to product type and target audience. Specific attention is given to vocabulary, register,

